



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TASHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

AHMEDOV M.B.

YOG'OCH O'YMAKORLIGI

TOSHKENT-2006

Mazkur darslikda yog'och o'ymakorligi san'atining tarixiy rivojlanishi, me'morchilik obidalari, yog'och o'ymakorligi maktablari, namoyondalari, ularning hayoti va faoliyati, yog'och materiallar va uning turlari, o'ymakorlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, dastgohlar, yordamchi asboblari hamda zamonaviy yog'och o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligiga oid yo'l ichidagi oddiy naish kompozitsiyalarini chizish va o'yish bosqichlari, duradgorlik birikmalari, buyum yasash texnologiyasi kabilar nazariy va amaliy jihatdan bayon qilingan.

Qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlarining «5140700-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» va «5140900-Kasbiy ta'lim (5211200-Amaliy san'at)» ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan ilmiy izlanuvchilar, kasb-hunar maktablari, kollej va litseylari, umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari, maktabdan tashqari muassasalarning to'garak rahbarlari va havaskor ustalar ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Xalq ustasi, O'zbekiston Badiiy

Akademiyasining fahriy akademigi

Ortiq Fayzullaev

Pedagogika fanlari doktori, professor Saidaxbor Sobitovich Bulatov

Xo'jaev nomidagi Dizayn kasb-hunar

kolleji direktori muovini, yog'och

o'ymakorligi ustasi, oliy toifali o'qituvchi

Umid Hakimov

KIRISH

Amaliy san'atning tur va janrlari erlik tub aholining zakovati, orzu-istaklari, yorqin kelajakka bo'lgan intilishlari namunasi sifatida shakllandi va rivojlandi. Ularda asrlar davomida bobolarimiz to'plagan boy tajriba va ijodiy mehnat o'z aksini topgan. Go'yoki ular asrlar qa'ridan so'zlayotgandek.

Samarqandu Xiva me'moriy yodgorliklari, Buxoro zardo'zligi, Marg'ilon atlasini, Namangan beqasami, Chust do'ppisi, Rishtonu Shahrisabz kulolchiligi, Toshkent Jo'qon yog'och o'ymakorligi va boshqalar amaliy san'atining asrlar davomida taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Amaliy san'at o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi san'at turiga aylanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng amaliy san'atni yanada rivojlantirishga, yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Xalq badiiy hunarmanchiligi va amaliy san'atni davlat yo'li bilan yanada rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Hunarmandchilikka yo'naltirilgan ko'plab kasb-hunar maktablari, litseylari va kollejlari tashkil qilinib o'z faoliyatini boshladi.

Albatta, ushbu o'quv yurtlarini yosh pedagog kadrlar bilan ta'minlash, jahon andozalariga javob bera oladigan mutaxassislar etkazish muammosi paydo bo'ladi. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida pedagogika oliy o'quv yurtining Badiiy grafika fakultetlarida yoshlarga amaliy san'at turlari bo'yicha bilim berib kelinmoqda. Ushbu o'quv qo'llanma Badiiy grafika fakulteti talabalari uchun tuzilgan namunaviy o'quv dastur asosida tuzilgan bo'lib, yoshlarga yog'och o'ymakorligi san'ati bo'yicha bilim beribgina qolmay, ularga badiiy estetik, hissiy, ruhiy va ma'naviy tarbiya berishda ham muhim o'rin egallaydi.

Mazkur o'quv qo'llanmani yozish jarayonida yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida o'ymakorlikka oid yo'l ichidagi oddiy naqsh namunalarini chizishni o'rgatish orqali yoshlarda estetik didni rivojlantirish, ularga zarur bilimlar va ahloqiy

tarbiya berish, mehnat malaka va ko'nikmalarini o'stirish, yog'och o'ymakorligi hunarini o'rgatishga ruhiy va amaliy jihatdan tayyorlash e'tiborda tutilgan. O'quv qo'llanma talabalarga yog'och o'ymakorligi san'ati sirlarini o'rgatishda yaqin ko'makchi bo'ladi degan umiddamiz.

Muallif tomonidan o'quv qo'llanmaning mazmunini yanada boyitish borasidagi izlanishlari davom etishi tabiiy. Kitobni yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalaringiz bo'lsa, bizga yozib yuborsangiz Sizdan minnatdor bo'lar edik.

YOG'OCH O'YMAKORLIGI TARIXI, MAKTABLARI, USTALARI VA ULARNING IJODIY FAOLIYOTI.

Amaliy san'atning tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg'ayib borgan sari amaliy san'at ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qo'l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro'g'zor buyumlariga bo'lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o'ymakorligi, suyak o'ymakorligi, keyinchalik esa yog'och o'ymakorligi san'ati sekin astalik bilan o'z rivojini topdi.

Sinfy jamiyat vujudga kelishi bilan ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrlarda paydo bo'ldi. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topib bordi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at va san'atkorlar hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol topdirib bordi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik va yorqin kelajakka intilish yo'lidagi kurashga da'vat etdi.

Arxeologik qazish ishlari natijasida Surxon vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan yog'och o'ymakorligi topilmalari mazkur joylarda bir, bir yarim ming yil muqaddam san'atning bu turini yaxshigina rivoj topganligini olimlarimiz o'z

izlanishlarining mahsuli sifatida isbot etib berishdi. Hali-hanuz bunday noyob topilmalar nafaqat Surxon vohasida, balki Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Farg'ona vodiysidagi So'x va boshqa qadimiy shahar, qishloqlardan V-VI asrlarga tegishli bo'lgan san'at asarlari topilmoqda.

Samoniylar davrida amaliy bezak san'ati, ayniqsa kulolchilik, shishasozlik va yog'och o'ymakorligi rivojlandi. Monumental me'morchilikka katta e'tibor berildi, turar joylar, hunarmandchilik ustaxonalari, saroylar, ma'muriy binolar, savdo rastalari, hammomlar, masjid va madrasalar qurildi. Jurilishda asosan pishiq g'ishtdan foydalanildi, ba'zan bino devori xom g'ishtdan, tomi-gumbazi pishiq g'ishtdan ishlandi. Hunarmand-ustalar tomonidan binolarni ko'rkam va chidamli bo'lishligiga e'tibor qaratildi, bor bilim va kuchlarini safarbar etdilar.

«Samoniylar maqbarasi rejasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib va printsip asosida yaratilganligi aniqlandi. Maqbara me'mori amaliy geometriya va matematikadan chuqur xabardor bo'lganligi shubhasizdir, aks holda, u bunchalik go'zallik me'yorini topolmasdi. Ehtimol tasodif dersiz? Yo'q tarix taqazosi bu! Algebra faniga asos solib, logarifm, algoritm so'zlariga nomi yo'g'rilgan Muhammad Xorazmiy (787-850) me'morchilikka ta'sir ko'rsatgan, mutafakkir olim Abu Nasr Farobiyning (870-950) amaliy geometriya sohasidagi risolalari me'morlar uchun qo'llanma vazifasini o'tagan. Koinot bo'yicha tekshirishlar olib borgan, astronomiya, geometriya va trigonometriyaga oid risolalar muallifi Abu Rayhon Beruniyning me'morchilikka hissa qo'shigani shubhasizdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, arxitektura bilan bog'liq amaliy matematika va geometriya doimo me'morlar e'tiborida bo'lgan». (Zoxidov II. III. «Me'mor san'ati» T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978, 27-bet).

VI-VIII asrlarning boshlariga kelib ko'shk, qo'rg'onlar, shaharlarga ibodatxonalar va saroylar qurildi. Bu davrda yog'och va ganch o'ymakorligi yanada rivoj topdi, devoriy rasmlar rang-barang bo'lishiga e'tibor qaratildi, buni Afrosiyob, Varaxsha va Yumaloqtepa singari madaniy yodgorliklarimiz misolida ham ko'rishimiz mumkin. Bu kabi san'at asarlari, sug'diylar madaniyati bizga, o'sha

davrlarda jumhuriyatimiz hududida yashagan xalqlar qo'shni xalqlar bilan savdo-sotiq olib borgan, bu esa bizga qo'shni xalqlar bilan ham madaniy aloqada bo'lgan deyish imkonini beradi.

Arablar VII-VIII asrlarda ibodatxonalarni, tasviriy san'at asarlarini yo'q qilib tashladilar. Natijada san'atda sal kam bir asr tushkunlik hukm surdi.

« ... arablar o'rta Osiyoni zabt etgunlariga qadar mahalliy xalq ma'budalari topilgan. Har bir xonadonning jamoada tutgan o'rni va boyligiga qarab, o'z ma'budasi (xudosi) bo'lgan. Odatda bu ma'buda eshik tepasiga qo'yilgan. Xonadon sohibi mavridi bilan yog'ochdan o'yilgan yangi ma'budani xarid qilib, almashtirib turgan. Bunday jarayon yog'och o'ymakorligi san'ati qadimiy bo'lganligidan dalolat beradi. Arablar istilosi oqibatida tasviriy san'atning ko'p turlari qatori yog'och haykallar ishlash ham butkul barham topdi. Biroq Islom dini bu san'atni tag-tugi bilan yo'qota olmadi. Yog'och tarashlovchi usta naqqoshlar o'z san'atini yog'ochda dov-daraxtlarni aksini ifodalash, oddiy chiziqlardan murakkab geometrik shakllar yasashda namoyish etdilar. Ustalarning san'ati otadan-bolaga, avloddan-avlodga meros bo'lib o'taveradi. (Karimov X. Usto Jodir. T., G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, 6-bet).

Albatta muallifning ta'kidlab o'tganidek, Islom dini paydo bo'lgan ilk davrlarda qabr ustiga yodgorlik qo'yish ma'n qilingan. Bu kabi qonunlarga amvoiylar va abbosiylar ilk hukmronligi davrida rioya qilingan. Ammo, keyinchalik arablar jumhuriyatimiz hududida dastlab masjidlar qurdilar, qadimiy ibodatxonalarni masjidlarga aylantirdilar. Bunga misol qilib Buxoroning Moh bozoridagi ibodatxonani olib ko'rishimiz mumkin. Nihoyat arxitektura va amaliy bezak san'atida, hunarmandchilikning turli sohalarida jonlanish boshlandi. 862 yilda Al – mantasir va Fotiddin, so'ngra ruhoniylar fatvosi bilan «Amir al-ma'man»ga atab maqbara bunyod qilindi. Keyinchalik esa Sharqning Islom tarqalgan boshqa mamlakatlarida ham shu kabi yodgorliklar qurdirish rusim bo'ldi. IX-X asrlarda qurilgan, Buxorodagi Samoniylar maqbarasi shular jumlasidandir (1-rasm). Bu maqbara o'rta Sharqdagi eng qadimiy maqbaralardan birinchisi bo'lsa, ikkinchisi esa

biz yuqorida qayd qilib o'tgan Samarqand tog'alarida joylashgan Tim qishlog'idagi turli naqshu - nigorlar bilan bezab ishlangan «Arab ota» - «Amir al – ma'man» («Arablar homiysi») maqbarasidir.

1960 yil boshlariga kelib shoir va jo'g'rofiya olimi Farg'ona pedagogika institutining professori Nikoley Lionov tomonidan kashf qilingan bu maqbaraning peshtoqiga bitilgan naqshinkor arabiy bitiklardan ma'lum bo'lishicha, bu maqbara xijriy 367, melodiy 977 yillarga tegishliligi aniqlandi.

Islom dini tirik mavjudotlarni tasvirlashni qat'iy ma'n etgani tufayli tasviriy san'at rivojiga imkon bermadi, faqat amaliy bezak san'ati rivoj topdi. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar turli tuman naqshu – nigorlar bilan bezatila boshlandi.

VIII-IX asrlarda ayniqsa Buxoroda badiiy hunarmandchilik keng-ko'lamda rivoj topib bordi. IX-X asrlardan girih san'ati yuksaldi. Arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko'tarildi. Masalan, shu davrlarda kufiy yozuvidan keng foydalanilgan bo'lsa, XI-XII asrlardan esa nash yozuvi me'morchilikda keng – ko'lamda ishlatila boshlandi.

Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib me'morchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashdi, shu jumladan darvoza, eshik, ustun va ravoqlari yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa yog'och o'ymakorligini tez sur'atlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib berdi. ymakor ustalar bulardan tashqari uy-ro'zg'or buyumlarini bezashda ham o'z san'atlarini mohirona namoyish etishdi. Ustalar tomonidan turli xil stollar, kursilar, xontaxtalar, laganlar, lauxlar, sandiqlar, qutichalar, qalamdonlar va hakkazolar yaratildi.

Chingizxon bosqinchiligi tufayli XIII asrga kelib madaniy hayot izdan chiqdi. o'rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx va Mavr kabi bir qator shaharlar Chingizxon boshchilik qilgan mo'g'il bosqinchlari tomonidan ostin-ustun qilib tashlandi.

Bu vayronagarchiliklarga XIV asrning ikkinchi yarmida oqsoq Jahongir Amir Temur o'rta Osiyo xalqlarini birlashtirish orqali, chek qo'ydi va xalqimizning

madaniyati, san'ati, shu jumladan, yog'och o'ymakorligining rivojiga o'zi qurdirgan obidalari, asori-atiqalari bilan o'z hissasini qo'shdi. Samarqandga yirik–yirik san'atkorlar, shoiru ulamolarni, hunarmandu ustalarni to'plab ko'plab jom'e masjidleri, madrasalar, xonaqohonlar, saroylar va boshqa ulkan inshootlar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng Temuriylar o'rtasida bo'lgan o'zaro to'qnashuvlar tufayli madaniyat rivojiga salbiy ta'sirini o'tkazdi.

XVI asrda arxitektura inshootlarining ko'rinishi yanada takomillashdi, ko'plab jamoat binolari, karvonsaroylar, ko'priklar, sardobalar, shaharlarda hammom, tim va boshqa savdo rastalari qo'rila boshlandi. Monumental binolarning tarhi, qiyofalariga o'zgartirishlar kiritildi, hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Jom'e masjidleri saroy tipida serhasham qilib qurildi, guzar va mahallalardagi masjidlar qishlik va yozlik qilib qurilib, katta ayvonlar, o'yma ustunli va eshiklari ham o'yma bezaklar bilan bezatildi.

XVII asrda kelib o'rta Osiyoda avj olgan o'zaro feodal nizo va urushlar Eronning Xivaga qilgan hujumi va boshqalar arxitektura va badiiy hunarmandchilikka salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina musavvir va hunarmandlar hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo'ldilar. XVII asr oxirlariga kelib me'morchilik va amaliy bezak san'ati rivojlana boshladi. Saroy qurilishlarida xalq me'morchiligi kompozitsiya uslublaridan foydalanib, ichkari hovli, hovuz ko'p ustunli ayvon, sinchli imoratlar qurila boshlandi. XVIII-XIX asrlarda binolarning ayniqsa, ichki qismini koshin, tosh, ganch va yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bulardan misol qilib, Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi (2-rasm), Buxorodagi Chorminor (3-rasm), qo'qondagi Dahmai shohon asori atiqalarini keltirishimiz mumkin.

Asrimizga qadar san'at asarlari turli qirg'inbarotlar tufayli vayronalar ostida qolgan bo'lsa, asrimizda "qizil ko'lanka" ostida qoldi. Xalqimizning o'qimishli, bilimdon, ziyoli farzandlarini turli sabablarni ro'kach qilib qatag'on qilishdi. hunarmand ustalarni esa shaxsiy boylik orttirishida ayblab faoliyatlari to'xtatib qo'yildi. Biroq xalqimizning fidoyi farzanlaridan ijodkor ustalar usta Shirin

Murodov, Mirxamid Yunusov, Shamsiddin g'ofurov, Yunus Ali Musaev, Usmon Ikromov, quli Jalilov, Sulaymon Xo'jaev, haydar Najmiddinov, Toshpo'lat Arslonqulov, Maqsud qosimov, Mahmud Usmonov, Olimjon qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Maxmud Oblaqulov, Abdulla Boltaev, qodirjon Xaydarov, Ota Polvonov, Abdurazzoq Abduraxmonov va boshqa bir qator hunarmand ustalar o'zlarining hunar sirlarini maktabda va maktabdan tashqari muassasalarda yoshlarga o'rgatishni yo'lga qo'ydilar. Keyinchalik esa o'z uslubi, yo'nalishiga ega bo'lgan Xiva, Samarqand, Buxoro, Toshkent va qo'qon kabi yirik yog'och o'ymakorlik maktablari rivoj topdi.

Xiva yog'och o'ymakorligining rivojida Ota Plovonov va Sapo Boqbekovlarning ijodiy faoliyati alohida o'rin tutadi. Bu maktab o'ymakorligi boshqa maktablarga qaraganda o'yma naqshlarining maydaligi, zaminining kamligi, novdalarining zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi, ya'ni novdalarining zichligi, badiiy tuzilishi jihatidan o'ynoqligi, ya'ni novdalarning spiralsimonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabida esa o'ymalarning maydaligi, naqsh namunasining murakkabligi, o'simliksimon girih va gulli girih naqshlarining ko'p ishlatilishi hamda o'yma yuzasining ranglanishi bilan ajralib turadi. Ijodkor ustalari Abduxofiz Jalilov, Asatillo va Nurilla Nazrullaevlardir.

Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabining yirik namoyondalari Sulaymon Xo'jaev, Maqsul qosimov va Ortiq Fayzullaevlardir. Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabining boshqa maktablardan farqi shundaki, o'ymasining ko'p qavatlilik, o'rtacha chuqurlikda o'yilib, islamiy, geometrik, ramziy naqshlar ko'proq ishlatilishidadir.

qo'qon yog'och o'ymakorligi maktabi ham o'ziga xosligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Yirik ustalaridan Xaydar Najmiddinov va qodirjon Xaydarovlardir. Bu maktab o'ymakorligining mahobatlilik, yirikligi, o'ymalarining chuqurligi va ko'p qavatlilik bilan farqlanib turadi.

Sulaymon Xo'jaev 1866 yili toshkentdagi Suzukota mahallasida yashovchi usta va duradgor Nasrulloxo'ja oilasida dunyoga keldi (4-rasm). Yoshlik davrida

Sulaymon otasiga yordam berar, lekin ko'nglida yog'och o'ymakorligini o'rganishga bo'lgan istak tobora kuchayib borardi. U 17 yoshida usta Iskandar Mirzayoqubov ustaxonasida, so'ngra 1981 yildan esa o'sha davrdagi yog'och o'ymakorligining pargori ustalaridan biri Toshpo'lat Ayubxo'jaevga shogirdlikka tushib yog'och o'ymakorligining sir-asrorlarini o'rgandi.

“Sulaymon ustozini hurmat qilar, qiyinchiliklarni sabr-chidam hamda o'ta mehnatsevarligi bilan engib haqiqiy usta bo'lishga astoydil harakat qilardi. Keksa ustoz Toshpo'lat Ayubxo'jaev vafot etgach, uning san'atini davom ettirdi. Ustozdan estalik bo'lib qolgan asboblari yordamida Sulaymon o'zi mustaqil juda ko'p duradgorlik ishlari derazalar, eshiklar, darpardalar yasadi” (S.S.Bulatov “o'zbek xalq amaliy bezak san'ati”, T., “Mehnat”, 1991, 230-bet).

Usta S.Xo'jaev 1913 yilda Sankt-Peturburg shahrida bo'lib o'tgan Butunrossiya kasblari ko'rgazmasida naqshlangan kursichasi va qush qafasi bilan ishtirok etib, ana shu ajoyib ishlari uchun “Za poleznie trudi” bronza medali va diplom bilan taqdirlandi. Bundan tashqari Sulaymon Xo'jaev juda ko'plab ko'rgazmalarda o'zining ijod namunalari bilan ishtirok etdi. 1923 yilda Rossiya qishloq xo'jaligi hunarmandchilik ko'rgazmasida, 1927 yilda xalqlar san'ati ko'rgazmasida qatnashib 1-darajali diplom bilan taqdirlandi. 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan san'at va texnika ko'rgazmasida qatnashib yuksak baho oldi.

Usta Sulaymon Xo'jaev o'zbekiston xalq ustalari ichida birinchi bo'lib 1932 yilda Mehnat qahramoni unvonini oldi. Yog'och o'ymakorligining Tashkent maktabi, namoyondalaridan biri, pargori ustasi S.Xo'jaev 81 yoshida 1947 yilda vafot etdi.

Toshkent yog'ochi o'ymakorligi maktabining nomoyondalaridan yana biri Maqsud qosimovdir.

Maqsud qosimov 1905 yil Toshkent shahrida hunarmand oilasida tavallud topdi (7-rasm). Tog'asi Mirsoat Isamuhammedovdan duradgorlik sirlarini o'rgandi va 16 yoshidan duradgor bo'lib ishlay boshladi.

1935 yilda Toshkent shahrida hunarmandchilik o'quv-ishlab chiqarish kombinati ochildi. Maksud mazkur o'quv-ishlab chiqarish kombinatiga o'qishga kirib tez orada yog'ochga, ganchga, toshga metallga gul o'yish sirlarini o'rgandi.

Shu davrning ko'zga ko'ringan yog'och o'ymakorligi ustalaridan qo'qonlik Abdurazzoq Abduraxmonovdan islimiy, Toshkentlik Sulaymon Xo'jaevdan pargori naqshi va Toshkentlik Nasriddin Ziyaqorievdan panjara yasash sirlarini o'rgandi.

Maqsud qosimov keyinchalik Xalq xo'jaligi muzeyi (hozirgi Badiiy ko'rgazmalar direktsiyasi, 1933-34 yillar), Moskvadagi Butunittfoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida o'zbekiston, qirg'iziston va Tojikiston pavilonlarini (1937-40 yillar) jozibador qilib bezagan bo'lsa, 1940-42 yillarda qirg'izistonning Frunza (hozirgi Beshkek) shahridagi hunarmandchilik o'quv-ishlab chiqarish kambinatiga ishga taklif qilindi va nafis yog'och o'ymakorlik san'atidan yoshlarga saboq berdi.

M.qosimov 1943 yilda Muqimiy teatri uchun 3 ta eshikni , 1943-46 yillari Navoiy teatri qurilishida ishtirok etib, ganchkorlik ishlarini hamda o'rindiqlar suyanchig'ini o'yima naqshlar bilan bezadi. Maqsud qosimov o'ymakorlik ishlari bilan birga ma'moriy obidalarini ta'mirlash ishlarida ham ishtirok etdi. Jumladan, Povlovtsev uyi (hozirgi xalq amaliy san'at muzeyi) eshik va ustalarni qayta ta'mirladi.

hozirgi kunda usta Maqsud qosimovning yaratgan nafis asarlari Tashkent, Samarqand, Moskva, Sankt-Peterburg va boshqa chet el muzeylarida doimiy eksponat sifatida saqlanib kelinmoqda. Usta Maqsud qosimov 1965 yilda vafot etdi. Bugungi kunda uning ishini O.Fayzullaev, h.qosimov, h.Rixsiev, A.Shokirov kabi shogirdlari davom ettirib kelmoqdalar.

Yog'och o'ymakorligining yirik maktablaridan biri Xiva yog'och o'ymakorlik maktabi bo'lib, xivalik ustalarning ijodi ham o'ziga xosligi, betakrorligi, nafisligi bilan ajralib turadi. Ushbu maktabning namoyondalaridan biri Ota Polvondir (10-rasm).

Ota Polvonov 1867 yilda xivalik yog'och o'ymakor usta Polvon Abdusattorov oilasida dunyoga keldi. U bolalik davrlaridanoq yog'och o'ymakorligi san'atiga mehr

qo'ydi va dastlabki saboqni bobosi usta Abdusattordan, keyinchalik esa otasi usta Polvondan oldi. Xivadagi ko'pgina binolarning darvoza, eshik va ustunlarini bezashda qatnashdi.

1934 yilda O.Polvonov ko'hna Arkni ta'mirlash ishlarida ishtirok etib naqqosh Abdullo Boltaev tayyorlagan axta yordamida ustun va eshiklarni qayta ta'mirladi. Arkdan tashqari Toshhovli, Nurillaboy saroyi va boshqa qadimiy binolarni qayta ta'mirlash ishlarida ishtirok etdi.

Ota Polvonov va naqqosh Abdullo Boltaev hamkorligi ko'p muvaffaqiyatlarga olib keldi. 1937 yilda Parijda bo'lib o'tgan San'at ko'rgazmasida Ota Polvonning Abdullo Boltaev tayyorlagan naqsh andozasi asosida o'ta nafis, yuksak mahorat va did bilan ishlangan o'yma ustuni yuksak baholandi. 1940 yildan boshlanib 7 yil maboynida bunyod etilgan Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi katta akademik opera va balet teatri binosining Xiva zalida foyelari uchun eshiklarni jozibador va go'zal naqshu nigorlar bilan bezadi. 1952 yilda esa Urganch vakzali uchun 2 va 4 tabaqali eshiklarni, badiiy ko'rgazmalar direktsiyasi uchun eshik va ustunlarni yog'och o'ymakorligining Xiva uslubiga xos betakror naqsh kompozitsiyalari bilan bezadi.

Ota Polvonov umrining oxirigacha yog'och o'ymakorligining Xiva maktabi rivojiga beqiyos xissa qo'shdi. U 1972 yili 105 yoshida vafot etdi. O.Polvonov bezagan asori-atiqalar o'zining nafisligi o'ziga xosligi va go'zalligi bilan ajralib turadi. U o'zi egallagan san'at sir-asrorlarini yoshlarga o'rgatib keldi. Uning shogirdlaridan biri Safo Boqbekovdir.

Safo Boqbekov 1904 yilda xivalik yog'och o'ymakor usta Bog'bek Abdurahmonov oilasida tavallud topdi. U dastlabki yog'och o'ymakorligi san'ati sir-asrorlarini otasi B.Abdurahmonov, keyinchalik esa o'sha davrning mashhur yog'och o'ymakorligi ustasi Ota Polvonovdan o'rgandi. U ustoz O.Polvonov hamkorligida ko'plab yog'och o'ymakorligi ishlarini amalga oshirdi. Jumladan, Toshkent shahridagi Alisher Navoiy teatri va Urganch temir yo'l vakzalida hamkorlikda ish olib bordi.

S.Boqbekov 1970 yilda “o’zbekiston” teploxodi ichki bezaklari uchun 8 ta turli namoyonlar, 1974 yili Urganchdagi “Inturist” mehmonxonasining tantanalar zali uchun 2 ta devoriy namoyonni an’anaviy islamiy o’yma naqsh san’ati bilan bezadi. Ko’plab jamoat va turar joy binolari uchun o’yma eshiklar, ustunlar, darvozalar va uy-ro’zg’or buyumlaridan quticha, lavh, xontaxta, kursi va boshqa bir qator buyumlar tayyorladi. Xiva shahradagi ko’plab me’moriy obidalarni qayta ta’mirlesh ishlarida ishtirok etdi. o’z faoliyati davomida bir qator shogirdlar etishtirdi. Safo Boqbekov 1978 yili vafot etdi.

Respublikamizda keng-ko’lamda rivojlangan yog’och o’ymakorlik maktablaridan yana biri qo’qon yog’och o’ymakorlik maktabidir. o’yib bajarilgan san’at asarining monumentalligi, yirikligi, o’ymalarining chuqurligi, ko’p qavatlilik, o’yilgan yuzaning faqat yuziga to’qroq rang berib keyin moylash qo’qon maktabiga xos bo’lib, uning rivojida h.Najmiddinov, q.haydarov, B.Ahmedov va h.Umarovlarning xissasi beqiyosdir.

haydar Najmiddinov qo’qon shahrida 1850 yili usta Najmiddin oilasida dunyoga keldi (11-rasm). U yog’och o’ymakorligi sir-asrorlarini otasidan o’rgandi va qo’qon yog’och o’ymakorligi maktabining rivojlanishiga munosib hissa qo’shdi. h.Najmiddinov 1890 yillardan qo’qonda o’yma naqshli eshiklar va ustunlar yaratgan, binolarning sharafa, muqarnaslarini bezashda, musiqa asboblariga badiiy ishlov berishdagi mohirligi bilan shuhrat qozongan. U “Parang” (“ustasi parang”) laqabini olgan mohir usta edi. Yog’och o’ymakorligida qo’llaniladigan naqsh turining pargori usulidan keng ko’lamda foydalanib u yasagan uy-ro’zg’or buyumlaridan ko’p qirrali kursilar, lavh va qutichalarning o’ziga xosligi, jozibadorligi hamda go’zalligi bilan ajralib turadi.

haydar Najmiddinov yaratgan yog’och o’ymakorlik buyumlari bugungi kunda Xalq Amaliy san’ati, San’at va boshqa muzeylarda doimiy eksponat sifatida saqlanib kelinmoqda. U 1921 yilda vafot etdi. h.Najmiddinov o’zining yuksak mahorati va betakror san’ati sirlarini bir qator shogirdlariga o’rgatdi. qo’qon yog’och o’ymakorlik maktabining yirik vakillaridan biri qodirjon haydarov shular jumlasidandir.

qodirjon haydarov 1899 yili qo'qonlik atoqli naqqosh haydar Najmiddinov oilasida dunyoga keldi. U dastlabki yog'och o'ymakorligi san'atini otasidan o'rgandi. qodirjondagi bolalikdan san'atga bo'lgan ishtiyoq asta-sekin unga yog'och o'ymakorligi sir-asrorlarini qunt bilan o'rganishga, sabr-toqatli bo'lishga o'rgatdi. U o'zi mustaqil ravishda uy-ro'zg'or buyumlari, qutichalar, stol, kursi va xontaxtalarni nafis va bejirim qilib bezab el e'tiboriga tushdi. q.haydarov dastlab 1923 yilda Moskvada xalq xo'jaligi ko'rgazmasida xizmat qildi. U uy-ro'zg'or buyularini pargori naqshlari bilan nafis qilib bezagan bo'lsa, u mahobatli yog'och o'ymakorligida esa islmiy naqshlaridan foydalandi.

1925-29 yillarda qo'qondagi Narimonov nomidagi internatda to'garak rahbari, 1929-31 yillarda o'qishni davom ettirdi. 1933-54 yillarda "Yangi ma'dan" artelida duradgor, yog'och o'ymakori va 1954-57 yillarda esa qo'qon muzeyida ta'mirlovchi bo'lib ishladi. U o'zining faoliyati davomida ko'plab eshik, ustun, kursi, xontaxta, quticha va boshqa turli buyumlarni yog'och o'ymakorligi bilan go'zal va jozibador qilib bezab shuhrat qozondi.

Bugungi kunda qodirjon haydarov qoldirgan qo'qon tarixi muzeyidagi kravat, Toshkentdagi tarix (avvalgi Lenin markaziy muzeyining Toshkent filiali) muzeyining eshigi, Xalqlar do'stligi saroyining eshigi va boshqalar uning o'ymakorlik san'ati an'alarini yangi motivlari bilan boyitganini ko'rsatdi. qodirjon haydarov 1963 yildan o'zbekiston Xalq rassomi, 1970 yili Respublika Xamza mukofoti sovrindori, bir necha ordenlar sohibi bo'lgan. Yog'och o'ymakorligining islmiy va pargori ustasi, ajoyib san'at sohibi q.haydarov 1983 yil qo'qon shahrida vafot etdi.

"Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi boshqa maktablarga qaraganda o'ymalarining juda mayda o'yilishi, kompozitsiyasining murakkabligi, ya'ni geometrik, o'simliksimon va gulli garih kompozitsiyalari hamma zamin va releflarini laklashdan boshlanadi. Asosan chinor, dub, buk va terak yog'ochlari ishlatiladi". (S.S.Bulatov. "o'zbek xalq amaliy bezak san'ati". – T.: "Mehnat", 1991, 237 bet.)

Mazkur yog'och o'ymakorligi maktabning yirik namoyondalari Abduhoviz Jalilov va Nurilla Nazrullaevlardir.

Abduhoviz Jalilov (1869-1954) duradgorlik, yog'ochsozlik va yog'och o'ymakorligi san'ati ustasi nomi bilan xalq orasida tanilgan. U dastlab usta Ne'matdan hunar o'rgangan. Sinchli uy qurish, eshik va sandiqlarga bezak berish sir-asrorlarini puxta o'rgangan. A.Jalilov usta Fayzulla va usta Abduqodir Boqievlar bilan hamkorlikda ishlab, ulardan muqarnas va girih tuzishni o'rgangan. Kalantarov uyining murakkab shaklli shifti, Xo'ja Ahror masjidining shifti va Xo'ja Yusuf masjidini qurib, ulardagi duradgorlik, yog'ochsozlik va yog'och o'ymakorligi ishlarini bajargan.

Samarqand yog'och o'ymakorlik maktabining yirik vakillaridan biri Nurilla Nazrullaevdir. U 1870 yili samarqandlik usta Nazrulla oilasida tavallud topdi. N.Nazrullaev dastlabki yog'och o'ymakorlik sabog'ini otasidan o'rgandi. Keyinchalik o'zining tinimsiz mehnati, izlanishlari natijasida xalq orasida o'ymakor usta sifatida shuhrat qozondi. U eshik va darvozalarni nafis va yuksak mahorat bilan bezar ekan, naqshning islmiy va pargori usullaridan keng-ko'lamda foydalanda. Pardozning choka va pax turlarini qo'llab o'ziga xoslikka erishdi.

N.Nazrullaev Butunittifoq qishloq xo'jaligi ko'rgazmasining o'zbekiston paviloniga ikki tabaqali dilali eshikni o'yima naqshlar bilan bezadi va uning mazkur ishi yuksak baholandi. Nurilla Nazrullaev 1939 yilda vafot etdi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

ARTEL (ruscha) – biror kasb-hunar egalarining birgalashib, jamoa bo'lib ishlash uchun tuzilgan birlashmasi; birgalashib, jamoa bo'lib ishlovchilar tashkiloti.

GIRIH(arabcha) – murakkab handasiy shakllarning takrorlanishlaridan tashkil topgan naqsh turi; chigal, tugun (Naqsh asosini kvadrat, uchburchak, to'g'ri to'rtburchak va ko'pburchak shaklli taqsimlar tashkil etadi).

GUZAR (fors-tojikcha) – qishloq yoki mahallalarda odatda ko'chalarning kesishgan erida, chorrahalarda joylashgan, choyxonalari, qassobxona, baqqollik kabi do'konlari bo'lgan obod, gavjum va serqatnov joy.

GULLI GIRIH – islamiy va girih naqsh elementlaridan tashkil topgan naqsh turi.

ZAMIN (fors-tojikcha) – naqsh bezagining guldan tashqari tag qismi; asos.

IBODATXONA (arabcha+fors-tojikcha) -- ibodat qiladigan joy yoki uy, bino.

ISLIMIY – o'simliksimon naqsh turi.

KARVANSAROY (fors-tojikcha) – karvon to'xtab, tunab o'tadigan joy, saroy.

LAVh (arabcha) – kitobni qo'yib o'qish uchun yasalgan maxsus moslama, kursicha, taglik.

LOGARIFM (rus-grekcha) – asos deb ataladigan muayyan sonni darajaga ko'targanda berilgan sonni hosil qiladigan daraja ko'rsatkichi.

MADRASA (arabcha) – diniy oliy o'quv yurti.

MASJID (arabcha) – musulmonlar jamoa bo'lib namoz o'qiydigan joy, maschit, ibodatgoh.

MAqBARA (arabcha) – qabr ustiga qurilgan maxsus bino, turbat.

MONUMENTAL (ruscha - *monumentalniy*) – 1) hashamatliligi bilan katta taassurot qoldiradigan; ulkan, salobatli, muhtasham. 2) Asosli, chuqur mazmunli. 3) Ulug'vorlik bilan ajralib turuvchi va yuksak formalarda ifodalangan.

PAVILON (rus < frantsuzcha) – 1) Chakana savdo uchun mo'ljallab qurilgan usti berk engil bino, do'kon. 2) Binolarda ko'rgazma (vistavka) o'tkazish uchun joylashgan alohida bo'limi.

PARGOR (fors-tojikcha) – pargor, tsirkul.

PARGORI NAqSh – tsirkul yordamida chizilgan yoki chiziladigan naqsh.

RAVOQ (arabcha) – binoning ichki yoki oldidagi yarim doira qilib ishlangan qismlari; tepasi suyri, davra shaklida yasalgan tokcha, taxmon.

SARDOBA (fors-tojikcha) – usti berk hovuz suvdon (ba’zan esa binolar ostidagi tagxona ham sardoba deb yuritiladi).

TIM (fors-tojikcha) – usti yopiq bozor, baland tom bilan berkitilgan rasta.

O’YMA – sirtni o’yib, qirib yoki zarb berib ishlash.

O’YMAKOR – o’yib naqsh ishlovchi usta.

O’YMAKORLIK – o’yib naqsh solish kasbi.

HANDASA (arabcha) – geometriya; matematikaning fazoviy shakllari va ulardagi munosabatlarni o’rganadigan bo’limi.

HANDASIY (arabcha) – geometrik; handasa (geometriya)ga oid.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Yog’och o’ymakorligi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Temur va temuriylar davrida yog’och o’ymakorligi qay darajada rivojlandi?
3. Qaysi asrlarda arab yozuvi bezak-naqsh darajasiga ko’tarildi?
4. Yog’och o’ymakor ustalaridan kimlarni bilasiz?
5. qanday yog’och o’ymakorlik maktablari bor?
6. Yog’och o’ymakorlik maktablari nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?
7. o’ymakorlik deganda nimani tushunasiz?
8. Toshkent yog’och o’ymakorligi maktabi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
9. Samarqand yog’och o’ymakorligi maktabi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
10. Qo’qon yog’och o’ymakorligi maktabi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?
11. Xiva yog’och o’ymakorligi maktabi namoyondalaridan kimlarni bilasiz?

12. Mahobatli yog'och o'ymakorligi qaysi maktabga xos?
13. Sulaymon Xo'jaev haqida gapirib bering.
14. qaysi maktab vakillari o'yma yuzasini ranglaydilar?
15. qodirjon haydarov qaysi maktab namoyondalaridan va u haqida nimalarni bilasiz?
16. Ota Polvonov haqida gapirib bering.

ME'MORCHILIKDA YOG'OCH O'YMAKORLIGINING TUTGAN O'RNI

Millatdan avval, xususan tosh davrida insonlar Teshiktosh kabi g'orlarda asosan daraxt shoxlari va paxoldan ishlangan konussimon joylarda yashab kelganlar. Aholining bir qismi ko'chmanchilikdan o'troqlikka o'tgach, tosh, guvala, paxsa va sinchli uylar qurila boshlandi. Bronza davrida o'zbekiston hududining janubi – Sopoltepada murakkab me'morchilik ansambillari vujudga keldi. Ilk Temir davriga kelib esa to'g'ri to'rtburchak va aylana tarhli qal'achalar bunyod qilina boshlandi. Masalan, miloddan avvalgi uchinchi asrlarda bunyod etilgan inshootlardan qiziltepa va Bandixontepa binolari to'g'ri to'rtburchak tarhda qurilgan bo'lsa, Kuchuktepa va qo'yqirilgan qal'alar esa aylana tarhda murakkab etib bunyod etilgan.

Greк-Baqtriya va Kushon podsholiklari davrida qurilgan saroylar yanada hashamatli va yanada murakkab kompozitsiyaga ega bo'lgan bo'lib, markaziy zali yoki hovlisi turli maqsadlarga xizmat qiladigan ko'p sonli binolar bilan o'ralgan, bino fasadlarida ko'p sonli ustunli ayvonlarga tutash qilib qurilgan.

“Surxondaryo vohasida Yumaloqtepa qa'ridan topilgan (eramizning V-VI asrlariga oid) yog'och o'ymakorligi san'atining namunalari e'tiborga molikdir. Bundan bir yarim ming yilcha muqaddam mazkur joyda mahalliy hukmron hukmdorlik qilgan. Mutaxassislar bu joyda ulkan san'atga dahldor naqsh

o'ymakorligi san'atining ancha oldindan rivojlanganligini isbotlaydi" (Karimov X. "Usta qodir". –T., g'.g'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, 6-b.).

Ko'rinib turibdiki, o'rta Osiyoda, shu jumladan respublikamiz hududida ham IX-XI asrlarga kelib madaniyat yana o'sa boshladi. IX asrda Samarqandning o'zi mustaqil davlat bo'lib qolishi madaniyat va san'at rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu esa xalq madaniyatida yangi burilish yasashga olib keldi. Shu davrga kelib Abu Ali ibn Sino, Rudakiy, Firdavsiy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy kabi buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar, adabiyot va madaniyat arboblari etishib chiqdi. Bu kabi allomalarning o'tkir zehni Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Narpay tumani Tim qishlog'idagi Arab ota maqbarasi, Termizdagi qirqqiz saroyi, Navoiy tumanidagi Mirsaid Bahrom maqbarasi, Navoiy shahri yaqinidagi Sulton Saodat ansambli va Raboti Malik karvonsaroyi singari jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarini qurilishiga olib keldi. Shular va shu kabi asori-atiqalar o'sha davrlarda me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarilganligini, ular badiiy hunarmandlar tomonidan jozibador qilib bezatilganligini ko'rsatadi. Ilk o'rta asrlarda saroylar shahar qal'asidan tashqarida qurilgan bo'lsa, X asrlarga kelib shahar tarkibida qurila boshlandi. Buxoroda qal'a oldida, Urganchda shaharning bosh maydonida, Samarqandda esa Shahrisonda shunday saroylar bunyod etilgan. Saroy me'morchiligida esa yog'och konstrukturalaridan keng foydalanildi.

Madaniyat rivojlanib borar ekan, ajoyib me'morchilik yodgorliklari qad rostlab borar ekan, o'z-o'zidan bunday yodgorliklarni milliy naqshinkor bezaklar bilan bezashda, shu jumladan, darvoza, ustun va ravoqlari yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi. Bu esa yog'och o'ymakorligini tez sur'atlar bilan o'sib borishiga imkon yaratib boradi. Monumental me'morchilikda yog'och o'ymakorligi ana'naviy san'at turiga aylanib bordi. Kishini hayratga soluvchi va o'ta nafis, tabiiy qilib ishlangan yog'och o'ymakorligi namunasi XII asrga tegishli bo'lib, u Samarqanddagi Shohi-Zinda devori orasidan topilganligini so'zimiz isboti sifatida aytib o'tishimiz mumkin.

Shohi Zinda ansanbli Afrosiyob tepaligi janubida joylashgan qabristondagi maqbaralardan hamda masjid, minora va madrasadan iborat. Shohi Zinda – Tirik shoh ma’nosini anglatib, mazkur ansambl xalq orasida juda mashhur. qusam ibn Abbos maqbarasi Shohi Zinda ansanbli tarhiga kiruvchi eng qadimiy binolardan biri bo’lib, XI asrda bunyod etilgan. Shu davrda mazkur maqbara yonida masjid, minora, Tamg’och Bug’roxon madrasasi, Ziyoratxona va uning tagida chillaxona qad rostlagan.

Ansambl bir-biri bilan yo’lak orqali bog’langan uch guruh binolardan iborat:

I. quyi guruhdagi binolar: Ulug’bek o’g’li nomidan qurdirgan Abdulaziz chodog’i, unga shimoldan Davlat qushbegi madrasasi tutash, uning qarshisidagi ayvonli masjid naqshinkor qilib nafis bezaklar bilan bezatilgan. 40 bosqichli tik zinapoya o’rtalig’ining chap tomonidan ziyoratxona va qabristondan iborat qo’shgumbazli maqbara joylashgan.

II. o’rta guruhdagi binolar: Amirzoda maqbarasi, Tug’li Tekin maqbarasi, Shirinbeka oqo maqbarasi, uning qarshisidagi Amir Temurning boshqa singlisi Turkon oqo maqbarasi, Sakkiz qirrali maqbara, Ali Nasafiy maqbarasi kabi masjid va madrasalar mavjud.

III. Yuqori guruhdagi binolar: Ziyoratxona, uch qismdan iborat masjid, Xo’ja Ahmad maqbarasi, Tuman oqo kompleksi, yana 2 ta nomsiz maqbaraning kiraverish devorigina saqlanib qolgan xolos. Bundan tashqari Tamg’och Bug’roxon madrasasi, Amir Burunduq maqbarasi va boshqa masjid, madrasa, xonaqohlar kiradi.

Ansambl tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan. XIX-XX asr boshlarida ansamblning yana bir necha binolari barpo etilgan. XVIII asrda vayron bo’lgan zina o’rnida keyinchalik 40 pog’onali g’ishtin yangi zina qurilgan.

Fan va madaniyat, adabiyot va san’atning rivojlanib borishi buyuk sarkarda Amir Temur nomi bilan chambarchas bog’liqdir. U hukumronlik qilgan davrlarda me’morchilik bilan bir qatorda amaliy bezak san’ati ham yuksala bordi. U o’zi qurdirgan maqbara, masjid, madrasa, xonaqoh va timlarni yog’och o’ymakorligi, ganchkorlik, naqqoshlik va koshinkorlik bilan jozibador qilib bezatdi.

XVI asrning oxiriga kelib Samarqandda o'ziga xos me'morchilik uslubi shakllandi. Oqsaroy, Ko'k Gumbaz, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Gumbazi Saidon, Xazrat imom masjidi, Jahongir maqbarasi, Dor ut–tilovat, Dor us–siyosat va boshqa shular singari me'morchilik yodgorliklari o'zining monumentalligi, jozibardorligi, naqqoshlik va o'ymakorlik san'atining o'ziga xosligi bilan hamon diqqatga sazovardir.

Amir Temur davrida Samarqandni balandligi 8 metrgacha bo'lgan devor bilan aylantirildi. Shaharni kesib o'tadigan Buxoro – Farg'ona yo'lini kengaytirib savdo – rastalari, timlar qurirdi. U o'zi istilo qilgan o'lkalardagi eng mashhur me'mor va hunarmandlarni Samarqandga olib kelishi shaharda hunarmandlarning guzar va mahallalarini vujudga keltira boshladi. Bu esa san'atning yanada gurkirab rivojlanishiga, yirik-yirik shaharlarda arxitektura ansambllarini, Buxorodagi Labihovuz ansamblini vujudga kelishiga zamin yaratdi. Shu va shunaqa asori-atiqalar an'anaviy tarzda pishiq g'ishtdan bunyod etilgan, ansambllarning ichki va tashqi bezaklariga zo'r e'tibor berilib, san'atning keng-ko'lamda rivojlanib borayotgan koshin, ganch va yog'och o'ymakorliklari bilan jozibador qilib bezatildi.

Amir Temur o'zi qurdirgan imoratlarni o'zgacha bir mehr, o'zgacha bir ishtiyoq bilan qurdirganki, buni Samarqand va qashqadaryo vohasining bir-biridan ajratib turuvchi Turkiston tog' tizmalarida bunyod etilgan Oqsaroy me'morchilik yodgorligi misolida ko'rishimiz mumkin. Ushbu obida 20 yil davomida qurilgan bo'lib, ko'kka viqor bilan qad rostlab turibdi. Oqsaroy ikkita yirik ravoqdan iborat va ravoqlar 38 metrdan so'ng qubba shaklida birlashtirilgan. har ikki arkning oralig'i 22,5 metrni tashkil etadi.

XVI-XVII asrlarga kelib me'morchilikda inshootlarning ko'rinishlari yanada takomillashdi, monumental binolarning tarhi, qiyofasiga o'zgartirishlar kiritildi. hunarmandlarning artellari vujudga keldi. Shu davrlarda bunyod etilgan Mir Arab madrasasi, Chashmai Ayub, Xo'ja Zayniddin masjid–xonaqosi, Chorbakr minorasi, Sherdor madrasasi, Gavkushon minorasi, Buxoro va Toshkentda bunyod etilgan

Ko'kaldosh madrasalarida o'sha davr yog'och o'ymakorligining ajoyib namunalari o'z aksini topgan. (15,16,17,18-rasmlar).

Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasi XVI asrning II yarmida Abdulloxon II ning sarkardasi qulbobo Ko'kaldosh tashabbusi bilan bunyod etili. Madrasaning old peshtoq ravog'idagi eshikka girih va islmiy naqshlarida nafis va jozibador qilib yog'och o'ymakorligi san'ati bilan ishlov berilgan. hovlidagi peshtoqlar koshin va sirlangan g'isht bilan bezatilgan. hovli atrofida ikki qavatli 160 hujra va darsxona hamda masjid joylashgan. Tuzilishi jihatdan boshqa madrasalardan farqli o'laroq madrasaning ochiq ayvonli boloxonalari bo'lgan va ular turli naqshu nigorlar bilan nafis qilib bezatilgan.

Toshkent shahridagi Ko'kaldosh madrasasi ham XVI asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan bo'lib, Toshkent hokimi Ko'kaldosh qurdirgan madrasaning umumiy ko'rinishi janubga qarab qurilgan. Peshtog'i sirlangan g'isht va girih naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, ikki yoniga ikki qavatli xonalar tartib bilan joylashtirilgan. Darvozaxonaning chap tomonida darsxona, o'ng tomonida esa masjid joylashgan. Darsxona va masjid chortoq tarhli, poydevori va devorlari pishiq g'ishtdan, choklari ganch qorishmasi bilan pardoqlangan.

XVIII-XIX asrlarda monumental binolarning ayniqsa ichki qismini koshin, tosh, ganch, yog'och o'ymakorligi bilan bezash davom etdi. Shu davrlarda qo'qonda Madrasai Mir nomi bilan xalq orasida mashhur Norbo'tabiy madrasasi XVIII asrning oxirida bunyod etildi. Dahmai Shohon ansambli uch qismdan iborat: peshtoq, ikki ustunli ayvon – masjid, Norbo'tabiy va uning avlodlari dahmasidir. Uning yaqinida xonning onasi maqbarasi – Modarixon dahmasi saqlangan. Peshtoqli, gumbazli bu binolar sirlangan g'isht, koshin bilan bezatilgan.

qo'qon Jom'e masjidi XIX asr boshlarida bunyod etilgan bo'lib, Umarxon nomi bilan chambarchas bog'liq. Masjid ulkan honaqqoh va uch tomoni 98 ta yog'och ustunli keng ayvondan iborat bo'lib, ayvon shifti to'sinlari islmiy va girih naqshalari bilan, devorlari ganch o'ymakorligi bilan, izoralari "chaspak" uslubida bezatilgan. Ustunlariga go'zal va nafis naqshu nigorlar bilan o'yma bezak berilgan bo'lib, kursisi

marmardan ishlangan. Masjidning yonidagi minora konus shaklida bo'lib, tepasi olti qirrali qafasa – tuynuk va qubba bilan tugallangan. Yuqoriga aylanma zina orqali chiqiladi.

Xudoyorxon o'rdasida shaharning muhim arxitektura yodgorliklaridan, ko'p ustunli qilib qurilgan, bo'yama va o'yma naqshlar bilan jozibador qilib bezatilgan jom'e masjidi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida qurilgan. 1914 yilda esa Komil qozi madrasasi bunyod etildi.

XVIII-XX asrlarda yana bir qator asori-atiqalar qad rostladi. Namanganda Xo'jamning qabri, Buxoroda Boloxovuz masjidi, Xivada Olloqulixon karvonsaroyi va timi, Toshhovli, Nurillaboy saroyi, Pahlavon Mahmud maqbarasi, Buxoro yaqinida Sitorai Mohi hosa saroyi bunyod etildi. Saroy qurilishlarida xalq me'morchiligi kompozitsiya usullaridan foydalanildi. Bunda ichki hovli, xovuz, ko'p ustunli ayvon va sinchli imoratlardan tashkil topdi.

Xiva Juma masjidi XVIII asrning oxirlarida bunyod etilgan bo'lib, masjid va minoralardan iborat. Masjid tomi tekis, bir qavatli shifti o'yma naqshli. Ustunlar masjid qurilishiga moslab joylashtirilgan bo'lib, kaltaroqlariga tosh poy ustun o'rnatilgan. Devorlari ravoqlarga bo'linib, mehrob ishlangan. Mehrobning yuqorisi to'rsimon, o'yma zanjira va kundal naqshlari bilan bezatilgan. Masjidga 214 ta ustun o'rnatilgan bo'lib, Xorazm xalq o'ymakorligining boy ijodiy imkoniyatlaridan keng-koramda foydalanilgan, ustunlarga nafis naqshu nigorlar bilan ishlov berilgan.

XVIII-XIX asrlarda Buxoroda bunyod etilgan Xalifa Xudoydod majmuasi madrasa, masjid, sardoba va qabristondan iborat bo'lib, hovlisining uch tomoni bir qavatli hujralar bilan o'ralgan. Masjid to'g'ri to'rtburchak tarhda, gumbaz bilan qoplangan. Umumiy ko'rinishi ganch o'ymakorligi bilan, ustunlari esa o'yma naqshu nigorlar bilan jozibador va nafis qilib bezatilgan. Sardobaga ikki zinapoya orqali kiriladi. hovlining shimolidan qabristonga o'tiladi. Xalifa Xudoydod qabri yaqinida ikki ustunli, shifti bo'yama naqsh bilan bezatilgan ayvon bor.

XX asr boshlariga kelib qo'qonda yana bir majmua qad rostladi. Bu Xalifa Tillo majmuasi bo'lib, u ikki hovli, xovuzli bog', masjid va Xalifa Tillo dahmasi

joylashgan qabristondan iborat. Ular o'rtasida chegara sifatida ikki qator ustunli shiypon joylashgan. Xalifa Tillo dahmasi atrofi ravoqli to'sinlar bilan berkitilgan.

Do'sti xudo masjidi Alixon eshon buyurtmasiga asosan o'sha davrning etuk ustalaridan biri usta Yoqub boshchiligida qurilgan. Tarhi teng tomonli, ustunli xona hamda ikki tomoni ayvondan iborat. Ayvonning shiftidagi to'sinlari va ustunlari serhasham qilib, did bilan turli naqshu nigorlar bilan bezatilgan.

Buxorodagi Sitorai Mohi hosa saroy bog'i XIX-XX asrlarda bunyod etilib, mang'itlar sulolasining to'rt avlodiga, ya'ni Nasrulloxon, Muzaffarxon, Abdulahatxon, Amir Olimxonlarga mansub. Saroyning maydoni taxminan 6,7 ga teng bo'lib, eski saroy g'isht to'shalgan uch hovlidan va ko'pgina xonalardan iborat.

Amir Muzaffarxon mehmonxonasi o'zining kengligi, baland zali, ikki tomonidagi boloxonali ayvonlari, evropa uslubidagi eshik va derazalari bilan ajralib turadi.

Uch qismga bo'lingan to'rtburchak tarhli Abdulahatxon saroyining ikki xonasi bir-biriga qarama-qarshi joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan.

Eski saroy sharqidagi Amir Olimxonning bosh qarorgohi – yangi saroyga muhtasham ravoqli, ikki tabaqali darvoza orqali kiriladi. Ushbu ikki tabaqali darvoza yog'och o'ymakorligining o'sha davrdagi eng so'ngi bezak usullari bilan go'zal, ko'rkam va nafis qilib bezatilgan. Darvozaxonidan tashqari hovliga o'tilib, hovlining uch tomoni ayvon bilan o'ralgan. Darvozadan kirishning o'ng qo'l tomonida kichkina favvora bor. hovlining shimolida katta ayvon, g'arbida oqsaroy, janubida oynabandli ayvon, kutish xonasi va amirning qabulxonasi joylashgan.

Oqsaroy bezagida sharq va evropa me'morchiligi uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilgan. Bog' o'rtasida sakkiz xonali ko'shk bor. Umuman olganda Sitorai Mohi-Xosa saroy-bog'i zo'r mahorat va yuksak did bilan bunyod qilingan. Darvoza, eshik va ustunlarni bezashda yog'och o'ymakorligidan unumli foydalanilgan.

Amaliy bezak san'atning bir qator turlarida mahalliy uslublar shakllandi. Naqqoshlikda, ganch va yog'och o'ymakorligida islamiy naqshi rivoj topdi. Yog'och

o'ymakorligida o'ymalarni bajarishning yangidan-yangi uslublari bilan ustunlar, eshiklar, ravoqlar va boshqalar jozibador qilib bezatilgan. Asrimizning boshlariga kelib Xivadagi ko'xna Ark, Toshhovli, Nurillaboy, Buxoradagi Minorai Kalon, Ismoil Samoniy maqbarasi, Samarqanddagi Sherdor, Tillaqori madrasalari ta'mirlanadi, Ulug'bek madrasasining qulay boshlagan minorasi qayta tiklandi.

Samarqandda joylashgan mazkur uch madrasa Registon maydonida qurilgan bir butun me'moriy yodgorliklar kompleksini tashkil qiladi. har uch madrasaga alohida ikki tabaqali darvozalardan kirilib, o'zga xos yog'och o'ymakorligi san'ati bilan jozibador qilib bezatilgan. Xonaga kirish eshiklari, jumladan Sherdor madrasasidagi 54 ta hujra bo'lib, deyarli barcha eshik va ravoqlari yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan.

Samarqand shahrida bunyod etilgan me'moriy obidalardan yana biri hazrati Xizir masjidi bo'lib, u XIX asr o'rtalarida qurilgan. hazrati Xizir masjidi afsonaviy o'lmas shayx hazrati Xizir nomi bilan chambarchas bog'liq. Bino qadimiy masjid poydevori ustiga qurilgan bo'lib, bosh ko'rinishidagi tik zinapoyadan darvozaxonaga chiqib, uncha katta bo'lmagan xonaga o'tiladi. Chapdagi ravoqli peshayvon jozibador naqshlar bilan serhasham qilib bezatilgan. Old tomonida yog'och o'ymakorligi bilan bezatilgan 5 ta ustnli ayvon bo'lib, undan xonaqohga eshik ochilgan. Xonaqohning ikki yonida hujralar bor.

Keyinchalik binoga, ya'ni 1899 yillarda qo'shimcha ayvon va 1919 yilda darvozaxona qurilib ajoyib naqshu nigoralari bilan bezatilgan.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

ANSAMBL (ruscha < frantsuzcha) - o'zaro mos va uyg'un qismlarning birikuvidan hosil bo'lgan bir butun narsa.

ARK (fors-tojikcha) – xon turadigan joy, xon saroyi.

BOLOXONA (fors-tojikcha) – mahalliy tipdagi imoratning ikkinchi qavati va shu ikkinchi qavatdagi uy.

GUMBAZ (fors-tojikcha) – qubba shaklidagi tom; qubba taxlitidagi narsa.

DAHMA (fors-tojikcha) – qabr ustiga o'rnatilgan yodgorlik, sag'ana, maqbara.

IZORA – devorning tokcha bilan bino sahni orasidagi pastki qismi, shu qismiga ishlanadigan bezak.

KOSHIN (fors-tojikcha) – devorlar sirtini qoplash uchun ishlatiladigan sirkor bezak material turi.

KUNDAL – 1. Zar ip qo'shib bo'rttirib to'qilgan qimmatbaho shoyi mato. 2. Me'morchilikda devorga bo'rttirib ishlanadigan bezak turi.

KO'ShK (ko'chik) (fors-tojikcha) – baland, bahavo qilib solingan, to'rt ustunli, tomi qubballi engil qurilma; imorat, saroy, qasr.

MAJMUA (arabcha) – ma'lum me'moriy reja asosida o'zaro mutanosib qurilgan binolar, ansambl.

MINORA – odatda masjid tarkibida quriladigan baland, g'o'la shaklidagi inshoot.

PESHTOQ (fors-tojikcha) – madrasa, masjid kabi hashamatli binolarning kirish qismidagi usti baland ko'tarilgan ravoqli serhasham qismi.

POYDEVOR (fors-tojikcha) – 1. Bino, inshoot yoki ularning ayrim qismi ostigatayanch uchun quriladigan mustahkam asos, fundament. 2. Zamin; negiz, baza.

TABAQA (arabcha) – darvoza, eshik va deraza kabilarning ochilib-yopiladigan har bir bo'lagi.

TUYNUK – eski tipdagi mahalliy uylarning devoridan yoki tepasidan yorug'lik kirib turishi uchun qoldirilgan teshik; to'rtburchak va doira shaklida bino devori yoki shiftidagi maxsus ishlangan teshik.

TO'SIN – imoratning va umuman har qanday qurilma va inshootning tepasiga ko'ndalang solingan baqquvat xari; bolor.

FASAD (italyancha - *fassiata*) – bino, inshootning tashqi, ya'ni old, orqa, yon, hovli, bog' va ko'cha tomonidan ko'rinishi.

XONAQOH (fors-tojikcha) – gumbazli katta bino, xona; masjidning keng va katta xonasi.

O'RDA – turk-mo'g'il davlatlari hukmdorlarining qarorgohi, poytaxti; saroy.

QAL'A (arabcha) – dushman hujumiga qarshi mustahkam devor va handaq bilan o'ralgan, mudofaa vositalari, istehkomlar bilan ta'minlangan shahar.

QAFASA – minora tepasidagi ko'shksimon qurilma, maxsus xona.

QUBBA (arabcha) – gumbazsimon tom turi.

HUJRA (arabcha) – bir va bir necha kishiga mo'ljallangan kichkina yotoqxona.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Tarh deganda nimani tushunasiz?
2. Temir davrida qanday tarhli qal'alar bunyod etilgan?
3. To'g'ri to'rtburchak tarhdagi qal'alar qaysi davrlarda buyod etilgan?
4. Aylana tarhdagi qal'alarchi?
5. IX-XI asrlarda qanday asori-atiqalar barpo etilgan?
6. Ismoil Samoniy, Arab Ota, Mirsaid Bahrom maqbaralari, Qirqqiz saroyi, Sulton Saodat ansambli va Raboti Malik karvon saroyi Kaysi asrlarda bunyod etilgan?
7. Ko'kaldosh madrasasi qaysi shaharda?
8. Qo'qonda qanday obidalar barpo etilgan?

9. XIX-XX asrlarda qaysi yodgorliklar bunyod etilgan?
10. Xivada qanday yodgorliklar bor?
11. Shohi Zinda ansambli haqida nimalarni bilasiz?
12. Registon me'moriy yodgorligi qayerda joylashgan va qaysi madrasalardan iborat? Ular haqida gapirib bering.
13. Sitorai Mohi Xosa saroyi qayerda va qaysi asrda qurilgan?
14. Hazrati Xizir masjidi haqida nimalarni bilasiz?
15. Qaysi me'morchilik obidasida 214 ta ustun o'rnatilgan va u haqida gapirib bering?

Yoo'OCh O'YMAKORLIGI USTAXONALARINI JIHOZLASH VA TEXNIKA HAVFSIZLIGI

I. Yoo'OCh O'YMAKORLIGI USTAXONALARINI REJALASH TIRISH VA JIHOZLASH.

Kishining ruhiy holati o'zi bajarayotgan ishida, yumushida o'z aksini topmasdan qolmaydi. Kishi ruhiyatini ko'tarishda esa xonaning jihozlanishi, qulayligi, ozoda va orastaligi muhim ahamiyatga ega. Yog'och o'ymakorligi ustaxonasini jihozlashda duradgorlik ustaxonalarini jihozlashning umumiy qoidalaridan kelib chiqqan holda qisman bo'lsada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir asbob-uskunalar, xomashyolar, ko'rgazmali qurollar, talabalarning tayyor ishlari va dastgohlar tartib bilan o'z joyiga qo'yilmog'i lozim.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonasi binoning birinchi qavatiga joylashishi, unga yorug'lik yaxshi tushib turadigan bo'lishi lozim. Ustaxonaning yarim podval yoki podvalga joylashishi gigienik nuqtai nazardan qat'iyan ma'n qilindi. Ustaxona

uchun qo'yiladigan maxsus talablardan biri unga tabiiy yorug'lik yaxshi tushishining ta'minlanishi, xonaning isitilishi va tabiiy shomollatishga qulay bo'lmog'i zarur. Eng muhimi ustaxonada havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish kerak.

Zamonaviy o'quv ustaxonalari materiallar, yarim tayyor va tayyor buyumlar, shuningdek asbob-uskunalar va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'lmog'i lozim. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamollatadigan bo'lishi, normal tabiiy va sun'iy yoritkichlarga ega bo'lishi, havo bosimi qishda 14° - 16° S, yozda esa 20° S dan oshmasligi kerak.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonasining devorlari silliq bo'lib, yorqin bo'yoqlar bilan, shifti esa oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bularning barchasi xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatidan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar xona jihozlarining, ishlanayotgan buyumlarning turli qismlari bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonalaridagi shovqin-suron va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan, eng ratsional mehnat va hunar usullaridan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin.

O'ymakorlik ustaxonalarida asbob-uskunalarin joylashtirish vaqtida yong'inga qarshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va gigienik talablarga rioya qilish zarur, ya'ni ustaxona asbob-uskunalar va yordamchi jihozlar bilan to'ldirib yuborilmasligi kerak. Har bir ustaxonada meditsina aptechkalari bo'lishi shart. Agar biror talaba havfsizlik qoidalariga rioya qilmagan holda jarohatlansa unga zudlik bilanbirinchi yordam ko'rsatilishi, qon ketayotgan bo'lsa uni to'xtatish uchun jarohatlangan joyning yuqori qismidan bog'lab qo'yish va tezda yaqin oradagi tibbiy yordam yordam ko'rsatish bo'limiga olib borish zarur.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarida dastgohlar va ularning orasidagi o'tish yo'llari belgilangan normativlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlarning oxirgi qatori bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa 0,5 metr bo'lishi kerak.

O'ymakorlik ustaxonalarida bevosita talaba va o'qituvchi foydalanadigan maydon 50-60 m² bo'lsa, har bir talabaning ish o'rni bir-biridan 60 sm, qatorlar oralig'i 1 metrdan uzoqlikda bo'lsa yanada harakatlanish qulay bo'ladi.

Ustaxona uchun qo'yiladigan maxsus talablardan biri ham shundan iboratki, xonaga tabiiy yorug'lik yaxshi tushishiga alohida e'tibor berish lozim. Agarda buning iloji bo'lmasa kunduzgi yorug'lik lampalari yoki stol lampalari bilan ta'minlashni taqazo etadi. Bundan tashqari yog'och o'ymakorligi ustaxonalarini isitilishi va shamollatilishiga ham e'tibor qaratish kerak.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarida yong'in havfsizligiga alohida e'tibor berish lozim. Chunki yog'ochdan chiqqan qirindilar va payraxalar tez yonadi. Shuning uchun elektr isitkich asboblari va elektr plitalariga maxsus belgilangan joy bo'lishi shart. Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarida ishni to'g'ri tashkil qilishda, albatta o't o'chirish inventarlari bilan jihozlangan bo'lishni talab etadi.

Ustaxonada qo'l yuvish, shuningdek ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi maksadga muvofiq bo'ladi.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarining maydonidan oqilona va unumli foydalanish, ularning toza bo'lishi, asbob-uskunalarining to'g'ri va o'z joyida turishini ta'minlash, estetika talablariga rioya qilish hamda namunali tartib – bularning hammasi talabalarni intizomlilikka va barcha asbob-uskunalarini, ko'rgazmali qurollarni, jihozlarni, dastgohlarni ehtiyot qilishga, o'zgaralar mehnatini qadrlash ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Shu va shu kabilarni amalga oshirishda o'qituvchining o'zi talabalarga o'rnak bo'lishi lozim. Buning uchun o'qituvchining ish o'rni tashqi ko'rinishi va tashkil etilishi jihatidan namunali bo'lishi kerak. Ko'rsatiladigan ko'rgazmali qurollar talabalarga yaxshiroq ko'rinishi uchun o'qituvchining ish o'rniga taalluqli bo'lgan barcha narsalar yuqoriroq joyda turishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Narsalarni ko'rsatib turadigan dastgoh talabalarga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu esa ularning ko'rsatilayotgan ish usullarini yaxshiroq idrok qilishlarini ta'minlaydi.

Ko'rgazmali qurollar uchun mo'ljallangan burchakda plakatlar, jadvallar, chizmalar, asbob-uskunalar, buyumlar, hajmdor qo'llanmalar namunali tartibda va sistemali ravishda saqlanishi kerak. Mavjud ustaxonalarining ko'pchiligi yuqorida aytib o'tilgan talablarga to'liq javob bera olmasligini hisobga olib yog'och o'ymakorligi yoki mehnat o'qituvchisi bu talablarni bilishi va ularni so'zsiz bajarilishiga harakat qilishi zarur.

II. O'YMAKORLIKASBOB-USKUNALARI VA ULARNI

IShChI HOLATGA TAYYoRLASH.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarida talaba turli yumushlarni bajarishiga to'g'ri keladi. Jumladan, chizmachilik, naqqoshlik, duradgorlik, o'ymakorlik va hakkazo ishlarni tashkil etishda jarohatsiz faoliyat ko'rsatishga erishmoq uchun avvalo asbob-uskunalarini ishchi holatini ko'zdan kechirib chiqmoqlikni taqazo etadi. "Men bu moslamada ishlamoqdaman" deb ikkinchi moslamaga e'tiborsizlik turli ko'ngilsiz holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Faoliyatni boshlashdan oldin albatta maxsus ish kiyimini kiyib olish zarur. Turli asboblar bilan ishlashda, masalan, o'ymani bajarish uchun iskana va bolg'ani (yog'och to'qmoq, kiyankani) ushlar qoidalariga amal qilgan holda, ya'ni iskanani bo'shroq, bolg'ani esa qattiqroq siqib ushlar zarur.

Yog'och o'ymakorligida taxtachalarni o'ymaga tayyorlab olingach unga moslab axta (ulgi, nusxa) sini va xokani tayyorlab olinadi. Naqshning har bir elementini, qismini, turini, guruhini o'yishda "Oddiydan murakkabga, osondan qiyinga" tamoyiliga rioya qilib borish lozim. Naqshlarning qanaqa guruhga mansubligi, tayyorlanadigan buyumning katta yoki kichikligiga qarab, dastlab naqshning yarim gajak, gajak, gullari, barglari, novdalari va bandlari baliq sirtli iskana bilan kesiladi. Naqshlar atrofi to'liq kesib bo'lingach, maxsus uchi egik iskana

bilan naqshning zamini o'yilib chuqurlashtiriladi. Tekislashda esa to'g'ri iskanalar ishlatiladi.

O'ymani bajarish davomida har bir iskanani ehtiyotkorlik bilan o'z o'rnida va o'rinli ishlatishni o'rganish lozim. Bu esa o'yilayotgan yuzani sifatli, ko'rkam va jozibador chiqishiga zamin yaratadi. Iskanalarni ishlatib bo'lgach noto'g'ri joyga qo'yish, bir-biriga urintirish asbobni tezda o'tmas bo'lishiga olib keladi va o'ymani sifatiga putur etkazadi.

Ish jarayonida ba'zi bir asboblar o'tmaslashib qoladi. Bunday hollarda albatta asboblarni o'tkirlab olish kerak. Chunki o'tmas asbob bilan bajarilgan o'ymakorlik ishlari sifatsiz chiqadi, ko'ngildagidek bo'lmaydi.

O'tmaslashib qolgan o'ymakorlik asboblarini o'tkirlash uchun charxlar va qayroq tosh kerak bo'ladi. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalarni charxlash elektrik charxlarda yoki qo'l charxlari yordamida amalga oshiriladi. Elektrik charxlar yordamida o'tkirlashda o'ziga xos texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur.

O'ymakorlik asboblarini qo'lda qayroq toshlar yordamida o'tkirlash uchun har xil qayroq toshlari ishlatiladi. Yana shuni ham ta'kidlash joizki, kesuvchi asbob-uskunalarni qayroq toshlarda o'tkirlash hamisha ijobiy natija beravermaydi. Chunki, asbob tig'ini qayroq toshga ishqalash jarayonida kuchli ishqalanish hosil bo'ladi va tig' qizishi natijasida tig' kuyada, undan suv qochadi. Asbobni ishlatish vaqtida tig' ozgina ehtiyotsizlik natijasida yoki o'yilayotgan buyum yuzasidagi kichkina ko'zga tegishi oqibatida tig' o'tmaslashadi, qo'polroq hatti-harakat tufayli sinishi, iskanani ishdan chiqarishi ham mumkin.

Asbob-uskunalarni elektrik charxlar yordamida bo'lsin yoki qo'l charxlari yordamida bo'lsin, usta iskanani charxlash vaqtida o'ng oyog'ini charxning to'g'risiga, chap oyog'ini bir oz yon tomonga qo'ygant holda o'ng qo'li bilan iskana dastasidan ushlab, chap qo'l barmoqlari bilan iskananing tig'ini charxga bir me'yorda bosib charxlanadi. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, agarda iskanalar qo'l charxlari yordamida charxlanadigan bo'lsa charx toshlarini aylantiruvchi shogird charx

toshlarini bir me'yorda aylantirmog'i lozim. Iskanalar elektrik charxlar yordamida charxlanadigan bo'lsa o'rtacha tezlikda aylanadigan elektr motorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar elektr motorining aylanish quvvati yuqori bo'lsa charxlanayotgan asbob-uskunalarni kuydirib tezda yaroqsiz holga keltirishi mumkin.

Charxlangan iskananing qirovini to'kish uchun nova shaklidagi o'rtasi ariqchali va yonlari qirrali turli xil mayin qumli yoki tosh qayroqlar yordamida qirovidan tozalanadi. Yana shunga alohida e'tibor berish kerakki, iskanalarning qirovini to'kish vaqtida iskana tig'ini qayroq toshning uzunasiga bir maromda surtish kerak. Agar qayroq toshlar suvda namlanib ishlatilsa tig'dagi qirov tez to'kiladi.

O'tkirlangan asbobning qay darajada o'tkir bo'lganligi yoki bo'lmaganligini qirovi to'kilgan asbobning tig'ini bosh barmoq tirnog'ining yuziga tegizib ko'rib aniqlanadi. Tig' qirradi tirnoq yuziga qadalsa unda asbob o'tkirlangan bo'ladi. Agarda asbob tig'i tirnoq yuzidan sirg'alib ketsa u holda asbob hali o'tkirlanmagan bo'ladi.

O'ymakorlik ishlarining qay darajada sifatli, jozibador va ko'rkam chiqishi hamda ishning samaradorligi o'yuuvchi asboblarga bog'liq ekan, demak asboblarni saqlashga ham alohida e'tibor berish kerak. O'tkirlangan iskanalarni maxsus tayyorlangan qutichalarga yoki g'iloflarga ehtiyotkorlik bilan terib, tig'ini bir-biriga tegmaydigan qilib joylash lozim. Agar quticha yoki g'ilof bo'lmasa biron-bir mato orasiga qo'yib o'ralgan holda ehtiyotlab saqlash kerak.

III. DASTGOHLAR VA ULARNI IShChI

HOLATGA TAYYoRLASh.

Yog'och o'ymakorligi duradgorlik hunari bilan bevosita va bilvosita uzviy chambarchas bog'liqdir. O'ymakorlikda yog'och materiallarni o'ymaga tayyorlashda duradgorlik va boshqa sohalarga oid dastgohlardan foydalaniladi. O'ymaga

tayyorlanayotgan materiallarning qay darajada sifatli chiqishida dastgohlarni qulay joylashganligiga, ish o'rnining to'g'ri tashkil etilganligiga ham bog'liq.

Ish o'rni deganda ustaxonaning bir talaba tomonidan o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, ya'ni dastgohlar va moslamalarning maqsadga muvofiq joylashgan maydonchasi tushuniladi.

Ish o'rnining talaba ish vaqtida o'z gavdasini ancha qulay tutib turadigan, ortiqcha harakatlar qilmaydigan darajada tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu talablarning buzilishi esa o'z o'rnida natijalarning kamayishiga, tayyorlanmalarning sifatiga, to'g'ri mehnat malakalarining sust tarkib topishiga, ba'zi hollarda esa kasb kasalliklarini keltirib chiqarishga olib kelishi mumkin.

Duradgorlik va boshqa sohalarga xos dastgohlar turli vazifalarni sifatli va muvaffaqiyat bilan yuqori saviyada bajarishga imkon beradigan va mustahkam joylashtirilgan ish konstruksiyalaridan iborat bo'lishi lozim. Masalan, bir o'rinli duradgorlik dastgohi 750-780 mm balandlikda, slesarlik dastgohlari esa 800-850 mm balandlikda o'rnatilishi va u yog'ochdan yoki metallardan tayyorlangan bo'lishi lozim. Dastgoh o'rnatiladigan moslama taxtadan ishlanadi, ustiga qalinligi 1,5-2 mm qalinlikdagi po'lat tunuka qoplanadi. Dastgoh qulay o'rindiqqa ega bo'lishi, undan talaba mashq bajarish davomida va dam olish vaqtida foydalanishi, yozuvlar, eskizlar tuzish uchun dastgoh ustiga suriluvchi moslama o'rnatilgan bo'lishini talab etadi.

Yog'ochga ishlov berish va o'ymani bajarish bo'yicha har bir o'quv ustaxonasi kamida 25 ish o'rniga mo'ljallangan bo'lishi zarur. Ustaxonalarda jihozlarning asosiy qismini tashkil etuvchi duradgorlik va boshqa o'rgatilayotgan kasb-hunar dastgohlaridan tashqari, dastgoh jihozlarining boshqa turlari ham mavjud bo'lishi kerak. Jumladan, duradgorlik ustaxonasida 1-2 tadan slesarlik va vertikal parmalash dastgohi, bitta kichik gabaritli, ko'ndalang randalash frezer (shering) dastgohi, bitta ikki tomonlama jilvir qayroq va nuqtaviy payvandlash uchun kichik gabaritli elektr payvandlash apparati bo'lishi zarur. Shunga o'xshab har soha va kasb-hunarlar bo'yicha o'ziga xos asbob-uskunalar bo'lishini taqazo etadi.

Asbob-uskunalardan va dastgohlardan jilvir qayroq, parmalash dastgohlari o'qituvchining ish o'rniga yaqinroq joylashtirilishi hamda turli ko'ngilsiz xodisalarning oldini olish maqsadiga qo'shimcha elektr to'kini ulash va uzish uchun maxsus moslamaga ega bo'lishi kerak.

Tokarlik, frezerlik dastgohlari va jilvir qayroq maxsus himoya vositalari bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Slesarlik dastgohlari himoya qiluvchi to'rlar, alohida o'rindiqlik va turli asbob xillariga ega bo'lgan maxsus moslama bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Dastgohlarda ishlashda esa uni yurgazishdan oldin barcha simlar, uzellarning izolyatsiyasi butunligi ko'zdan kechiriladi. Agar ba'zi simlarning izolyatsiyasi ochilib qolgan, dastgoh erga ulanmagan bo'lsa, tayyorlanma o'rnatiladigan moslama mustahkam mahkamlanmagan bo'lsa dastgohni yurgazish qat'iy ma'n etiladi. Topilgan kamchiliklar zaruriy mutaxassisni yoki ustani chaqirib tuzatilgandan so'nggina ishlashga ruhsat beriladi. Agarda arralash, randalash va teshishga to'g'ri kelib qolsa tayyorlanmani o'rnatmasdan dastgoh salt holatda turgan vaqtda yurgazib ko'rishdan oldin keskichlar mustahkamligini va keskirligini tekshirib ko'rish zarur.

Dastgoh yurib turgan vaqtda tayyorlanmani o'lchab ko'rish, dastgohdan olish va qaytarib qo'yish mumkin emas. Faqatgina bu ishlarni dastgohni o'chirgandan so'nggina bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dastgohda ishlash jarayonida oyoq tagida taxta panjaraning mavjudligi va dastgohda himoya vositalarining butunligiga e'tibor berish lozim.

Ish o'rnining tartibli, ozoda va toza saqlash xom-ashyolarni, taxta, g'o'la, payraha, qirindi va chiqindilar yig'ishda qo'lqop, hokandoz va supurgi bilan ishlash zarur. Taxtalarni tilishda, yo'nishda, randalashda, arralashda qirindi va chiqindilarni bir joyga to'plab qo'ymaslik, vaqti-vaqti bilan qirindi va chiqindilarni maxsus idishlar yordamida belgilangan joylarga chiqarib tashlash lozim. Shuningdek, ishlash jarayonida yong'in havfsizligi qoidalariga rioya qilish zarur. Dastgohlarda ishlash uchun mavjud qoidalarni o'zlashtirgan va rioya qiladigan talabalargagina maxsus daftarga imzo chekkandan keyin ruhsat etiladi.

TAYaNCh TUSHUNChALAR:

AXTA – naqsh yoki rasmni qog'ozga chizib, chiziq yo'llari igna bilan teshilib tayyorlangan andaza; nusxa, ulgi.

BOLG'A – duradgorlik, o'ymakorlik, zargarlik va hakkazolarda ishlatiladigan yog'och dastali asbob.

VERTIKAL (ruscha < lotincha) – 1). Tik chiziq.

2). Pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga tik yo'nalgan.

GABARIT (ruscha < frantsuzcha) – vagon, mashina, inshoot va shu kabilarning sirtqi, eng chekka o'lchami.

GIGIENA (ruscha < grekcha) – meditsinaning inson organizmiga tashqi muhitning turli faktorlari ta'sirini o'rganadigan va shu asosda sog'liqni saqlash choralari hamda qoidalarini ishlab chiqaradigan bo'limi.

GIGIENIK (ruscha - *gigienicheskiy*) – gigienaga oid, gigiena qoidalariga asoslangan.

DASTGOH (fors-tojikcha) – duradgorlik qurilmasi, stanok.

DURADGOR (fors-tojikcha) – yog'ochdan imorat va boshqa har xil buyum yasovchi hunarmand, yog'och ustasi; najjor.

DURADGORLIK – yog'ochsozlik hunari.

JILVIR – buyumlarning sirtini silliqlab, sayqal, jilo berib pardoqlash uchun moslab tayyorlanib yuzasi qum bilan qoplangan pardoq qog'ozi.

IZOLYaTsiYa (ruscha < frantsuzcha) – energiya manbaini, energiya o'tkazuvchi sim, truba va shu kabilarni yoki xona, asbob va shu kabilarni elektr, issiq, nam va shu kabilarni o'tkazmaydigan material bilan o'rab, qoplab qo'yish.

KONSTRUKTsIYA (ruscha-lotinch) – inshoot, mexanizm, asar va shu kabilarning tuzilishi, qismlarning o'zaro joylashuvi.

NORMA (ruscha < lotinch) – 1). Rasmiylashtirilgan qonun-qoida.

2). Biror narsaning, ishning aniq belgilangan o'lchami, miqdori me'yor.

NORMATIV (ruscha) – korxonada faoliyatining tannarx, mehnat unumdorligi va shu kabilarda bo'yicha norma ko'rsatkichlari majmui.

PARMA (fors-tojikcha) – aylanma harakat qilib, tig'i bilan narsalarni teshadigan asbob.

PODVAL (ruscha) – binoning ostidagi, er yuzasidan past joylashgan xona yoki xonalardan iborat qismi; erto'la.

RATsIONAL (ruscha - *ratsionalniy*) – maqsadga muvofiq, to'g'ri, ma'qul.

SALT – 1). Yuksiz, beyuk, engil-elpi.

2). Nagruzkasiz, bekorga.

SALT HOLAT – dastgohning yurgazilmasdan oldingi tinch holati.

SLESAR (ruscha) – metall buyumlarni qo'lda ishlash, yasash va tuzatish bo'yicha mutaxassis ishchi; chilangar.

TIG' – pichoq, ustara, iskana, tesha va boshqa asboblarni charx yoki qayroq tosh yordamida o'tkirlangan qirras.

FIZIOLOGIK (ruscha - *fiziologicheskiy*) – fiziologiyaga oid.

FIZIOLOGIYA (ruscha < grekcha) – tirik organizmda yuz berib turadigan jarayonlar hamda uning hayotiy funksiyalari haqidagi fan.

FON (ruscha < frantsuzcha) – umumiy rang, ko'rinish, orqa ko'rinish, zamin.

FREZER (arabcha) – aylanma harakat qilib metall va yog'och ashyolarga ishlov beradigan ko'p tishli kesuvchi asbob.

XOKA (fors-tojikcha) – maxsus tayyorlangan kukun. (Naqsh yoki tasvirni axtadan bezatiladigan yuzaga o'tkazishda foydalanilib yuqqa latta yoki ikki qavat

dokaga maydalangan pista ko'mir yoki bo'r kukuni solinib xaltacha holida tugilgan bo'ladi).

ChARX (fors-tojikcha) – kesuvchi asboblarning tig'ini o'tkirlaydigan, qayraydigan asbob.

QAYROQ – pichoq, ustara, iskana, tesha va boshqa asboblarni qayrab, o'tkir qiladigan tosh.

QIROV - o'tkirlangan asbob tig'ida qoladigan metall parchalari (u odatda qayroq toshning uzinasiga bir maromda surtish yo'li bilan to'kiladi).

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarini jihozlashda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarini bezashda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
3. Ustaxonada har bir talaba uchun qancha maydon bo'lsa maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz?
4. O'rnatilgan dastgohlarning qator oralig'idagi masofa qancha bo'lishi kerak?
5. Ustaxonaning havo bosimi qishda qancha bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi?
6. Ustaxonaning havo bosimi yozda qancha bo'lmog'i lozim?
7. Har bir talabaning ish o'rni bir-biridan qancha uzoqlikda bo'lishi kerak?
8. Dastgohni yurgazishdan oldin nimalarni ko'zdan kechirib chiqish zarur?
9. Ustaxonada tabiiy yorug'lik etarli bo'lmagan hollarda qanday yoritkichlardan foydalanish kerak?
10. Dastgoh yurib turganda nimalar ta'qiqlanadi?

11. Dastgoh to'xtab turgandagi holati qanday holat deyiladi va shu holatda nimalarni ko'zdan kechirishga ruhsat beriladi?

12. O'ymani bajarishda qaysi naqsh elementlarini kesishdan boshlash kerak?

13. Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarida ro'y berishi mumkin bo'lgan har xil ko'ngilsiz xodisalarni oldini olish, shaxsiy gigienagi rioya qilish maqsadida ustaxona nimalar bilan ta'minlangan va shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi zarur?

14. Asboblarni charxlash va uni qirovini to'kish qanday amalga oshiriladi?

15. O'ymakorlik ustaxonalarida duradgorlik dastgohlari bilan birga yana qanday dastgohlarning bo'lishi talab etiladi?

16. Dastgohlarni ishchi holatga tayyorlashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

YO'G'och O'YMAKORLIGIDA ISHLATILADIGAN MATERIALLAR, ASBOB-USKUNALAR VA UNING TURLARI.

I. YO'G'och MATERIALLAR VA UNING TURLARI

qadimdan har xil yog'och materiallardan turli maqsadda foydalanib kelingan. Duradgorlik, yog'ochsozlik, mebelsozlik, qurilish, kemasozlik va boshqa qator kasb-sohalarda yog'ochlardan keng ko'lamda shu sohaga mos keladigan yog'ochlar saralanib, undan ajoyib san'at asarlari, inshootlar, me'moriy obidalar bunyod etilgan. Yog'och o'ymakorligida ham o'ymakor ustalar yog'ochni o'yishdan oldin uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganib chiqqanlaridan so'nggina yog'ochni o'yib naqsh ishlaganlar.

Yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida o'ymakorlikda foydalaniladigan yog'och materiallari, ularning turlari, fizikaviy va kimyoviy xususiyatlari, zahiralari va boshqalarni bilish talabalar uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Yog'och materiallari turli jinsdagi daraxtlardan olinadigan xom-ashyo hisoblanadi. Chunki, binokorlikda, qurilishda, mebelsozlikda va yog'och o'ymakorligida asosiy xom-ashyo sifatida ishlatiladigan yog'ochlar turli daraxtlar tanasidan olinadi. Daraxt tanasi o'zak, yog'ochlik, shoxlar, tolalar va po'stloqlardan tuzilgan. Yog'och xom-ashyosi quyidagi guruhlarga bo'linadi:

a) tabiiy xom-ashyo;

b) turli buzilishlarga, chirishlarga qarshi antiseptik moddalar shimdirilgan yog'och xom-ashyosi;

v) presslangan yog'och xom-ashyosi;

g) elimlangan yog'och xom-ashyosi;

d) qatlam-qatlam yog'och xom-ashyosi;

e) qatlamli presslangan yog'och xom-ashyosi;

yo) plastik yog'och xom-ashyosi (maydalangan qipiq, payraxa va qirindilarni organik va mineral bog'lovchilar bilan elimlib, qayta ishlab tayyorlanadi).

Yog'och o'ymakorligida asosan 1-guruhga kiruvchi, ya'ni, tabiiy yog'och xodalaridan, g'o'lalaridan olinadigan taxtalar xom-ashyo sifatida ishlatiladi. Yog'och materiallari tabiiy guliga, rangiga, tovlanishiga va hidiga qarab aniqlanadi.

Daraxtlar bo'yicha qarab 3 guruhga bo'linadi:

1. 35 metrdan baland - chinor, terak, qora qayin, qarag'ay;

2. 25 metrdan 35 metrgacha - qayrag'och, yong'oq, oq qayin, tol, qatrang'i;

3. 25 metrgacha - zarang, chetan, shumurt kabi mevali daraxtlarga hamda butalarga bo'linadi.

o'zbekistonda yog'ochlarning yumshoq, qattiq va juda qattiq xodalari olinadigan nina bargli va yaproq bargli turlari mavjud.

Nina bargli daraxtlardan olinadigan yog'ochlar qurilishda, duradgorlikda, jumladan, yog'och o'ymakorligida ham asosiy material sifatida ko'proq ishlatiladi. Chunki, nina bargli daraxtlar tarkibida smolali moddalari ko'proq bo'lganligi uchun u tez chirib ketmasligi, namga chidamliligi, bargli daraxtlarga qaraganda ko'pligi va

engilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasining to'g'riligi, silliqdigi, ulardan olinadigan xodalarning kam butoqligi bilan o'ymakor ustalarga ko'proq qo'l keladi. Yog'och o'ymakor ustalar o'z asarlarini har tomonlama go'zal va jozibador chiqishi uchun eng yaxshi yong'oq, qayrag'och, chinor, tut, archa, terak, o'rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a'lo navlarini ishlatadilar. hozirgi kunda mahalliy daraxtlardan olingan materiallar bilan bir qatorda boshqa joylardan keltirilgan shamshod, eman, qarag'ay, arg'uvon, shumtol, zirk kabi boshqa daraxt yog'ochlari ham ishlatilmoqda.

Yog'och o'ymakor ustalar o'zlari yaratayotgan buyumlariga qarab yog'och materiallarining xususiyatlari, daraxtlarning turlari, rangi, ishlov berilishining oson-qiyinligi va ishlov berilgandan keyin buyumlarning sifatli chiqishi va saqlanishini bilishlari uchun yog'och xom-ashyolari olinadigan daraxtlarni o'rganishlariga to'g'ri keladi.

ARChA (ruscha - mojjevelnik) – o'zbekistonning tog'li joylarida o'sadigan daraxtlardan biri bo'lib, u 1000 yoshgacha yashaydi. Po'stlog'i qalin, rangi kulrang, tanasining tusi qizg'ish-pushti bo'lib tovlanadi. Serbutoq, kam smolali, puxta namga chidamsiz igna bargli daraxt. Undan qog'oz sanoatida, mebellar va boshqa narsalar yasashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakorligida qadimdan qo'llanib kelingan.

ARg'UVON (ruscha - lipa) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, kam yoriluvchan, yog'ochi yumshoq, oqish tusli bo'ladi. Uning yillik xalqalarini aniqlash qiyin. Arg'uvon kam chatnaydi, tovlanmaydi, kesish oson. hidsiz bo'lganligi uchun yog'och idishlar, bochkalar, sabzi taxtalari, chizmachilik taxtalari yasaladi. Yogoch o'ymakorligida arg'uvonning sakson-to'qson yilligi ishlatiladi.

BAqATERAK – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i silliq, rangi oq-ko'kish, tanasi to'g'ri bo'lmay sershox bo'ladi. Baqaterakning yog'ochi oqish tusli bo'lib, namga chidamsiz daraxt hisoblanadi. U qurilish ishlarida, o'ymakorlik, duradgorlik buyumlarini tayyorlashda ishlatiladi. Undan eshiklar tayyorlashda va panjara to'qishda keng qo'llaniladi.

YoNg'Oq (ruscha - grecheskiy orex) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uning po'stlog'i ko'kimtir, qalin, silliq, yog'ochi qizg'ish kul rang tusli, qattiq va og'ir,

qimmatbaho yog'och. Uning tanasini pastki qismida po'stlog'ining chatnog'i bor. Yong'oqning tabiiy guli chiroyli, ishlov berish qiyin bo'lsa-da yaxshi o'yiladi va yaxshi pardoatlanadi. Uning tarkibida yog' va yod moddasining mavjudligi yong'oqdan yasalgan buyumlarga o'zgacha chiroy va joziba baxsh etadi. Undan qimmatbaho mebellar tayyorlashda va yog'och o'ymakorligida keng-ko'lamda ishlatiladi.

ZARANG (ruscha - klyon) – qattiq yog'och turiga kirib, u qoramtir qizg'ish rangli, zich, puxta, mexanik xossalari jihatidan emandan ustun turadi. Tabiiy gullari chiroyli bo'lib, o'zgacha bir chiroy kasb etadi. Yillik halqalari bir oz bilinadi, ishlov berilishi bir oz qiyin, yaxshi o'yiladi va pardoatlanadi. Zarangning qush ko'ziga o'xshash tabiiy gullarining chiroyi boshqa yog'ochlardan ajratib turadi. Yog'och o'ymakor ustalari uning qush ko'ziga o'xshash gullarini hisobga olib qush ko'zi deb ham aytadilar. Yog'och o'ymakorligida, mebelsozlikda zarang xom-ashyolaridan tayyorlangan buyumlar qimmatbaho hisoblanadi. U mashinasozlik korxonalarida ham ishlatiladi.

ZIRK (ruscha - olxa) – uning ikki turi mavjud bo'lib, oq zirk va qora zirk deb yuritiladi. Oq zirkning po'stlog'i tiniq hamda silliq bo'ladi. qora zirkning po'stlog'i qoramtir tusda bo'lib, qalin, chatnagan bo'ladi. Zirk nanga chidamlik, bo'yoqni yaxshi oladi, yog'ochi oqish, ochiq havoda tez qizarib ketadi. Yumshoq yillik halqlari ko'zga tez va yaqqol tashlanadi. o'yilishi va pardoatlanishi qiyin. Undan arzon mebellar va fanerlar tayyorlashda ishlatiladi, chunki unga tez qurt tushadi.

MIRZATERAK (ruscha - topol) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, po'stlog'i sarg'ish, kam chatnagan va silliq bo'ladi. U kam shoxli, tanasi tik va to'g'ri, yog'ochi oq tusli, nanga chidamsiz bo'ladi. Mirzaterak o'ymakorlikda va yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi.

NOK (ruscha - grusha) – bargli, mevali, qalin po'stloqli, chatnagan bo'ladi. Nokning yog'ochi to'q jigarrang, mo'rt, qattiq, yillik halqalari bilinar-bilinmas. Uning xodalaridan gul bosadigan qoliplar, randalangan fonerlar va qimmatbaho mebellar tayyorlanadi. o'ymakorlikda ishlatiladi.

Oq qAYIN (ruscha - beryoza) – yaproq bargli daraxt turiga kirib, uncha qalin bo'lmagan oqish po'stlog'i palaxsa-palaxsa yorilgan bo'ladi. Uning yog'ochi qattiq, oqish tusli, yog'ochiga ishlov berish qiyin, yillik halqalari bilinar-bilinmas, namga chidamsiz, o'yilganda o'ta sifatsiz chiqadi, lekin yaxshi pardoatlanadi. Tanasida smola va yog'ning yo'qligi sababli tolalari qovushoq emas. Asosan oq qayindan fanerlar, mebellar, egri chizikli yog'och detallar va boshqalar tayyorlashda ishlatiladi. U yog'och o'ymakorligida kam ishlatilib duradgorlik va qurilishda keng ishlatiladi.

Oq qARAg'AY (ruscha - pixta) – po'stlog'i yupqa, silliq, kulrang tusda, yumshoq, engil, oson ishlanadi, biroz qoramtir dog'li, yog'ochi oqish tusda bo'ladi. U mayda ko'zli, kam yog' va kam smolali, hidi yo'q, namga chidamsiz daraxtlar sirasiga kiradi. Oq qarag'ay ko'proq cholg'u asboblarini yasashda, asosan qurilishlarda ishlatiladi. Yog'och o'ymakorligida qisman ishlatiladi.

TILOg'OCh (ruscha - listvennitsa) – igna barglilar turiga kiruvchi ushbu daraxt o'ta og'ir, yog'ochi qattiq, qoramtir-sarg'ish rangli bo'lib, chiroyli ko'rinishga ega. Tilog'och namga chidamli, qarag'ay daraxtiga qaraganda 30% mustaxkam. U ortiqcha yog'li va smolali, o'yilishi biroz qiyinroq bo'lsa-da, chiroyli pardoatlanadi. Po'stlog'i qalin, yillik halqalari aniq ko'rinadi, yog'ochi mayin qatlamli. Tilog'och ortiqcha yog'li va smolali bo'lganligi uchun tez chirishning oldini oladi, issiqda o'yima yuzasidan smolasi qo'yilib oqib chiqadi va o'ymaning sifatini buzadi. Shu va shu kabi tomonlari uni yog'och o'ymakorligida kam qo'llashga olib keladi. U asosan qurilishda ishlatiladi.

Tog' TERAGI (ruscha - osina) – yaproq bargli daraxt, po'stlog'ining rangi sarg'imtir, yuqqaroq, tanasininig pastki qismlarida chatnog'i bo'ladi. Tog' teragi yumshoq yog'ochlar turiga kiradi, yog'ochiga ishlov berish oson, engil, tanasi oqish-sarg'imtir tusda, namga chidamsiz, yillik halqalari aniq ko'rinadi. Undan turli-tuman o'yinchoqlar, idishlar, gugurt qutilari va donalari, faner, har xil buyumlar tayyorlanadi. qurilishda, eshik va romlar yasashda foydalanish mumkin. Yog'och o'ymakorligida namga chidamsizligi va juda tez chiriganligi uchun kam ishlatiladi.

ChINOR (ruscha - platan) – yaproq barglilar turiga kiruvchi ushbu daraxtning po'stlog'i qizg'ish-sariq tusli, tanasining rangi qizg'ish-qoramtir, ko'p shoxli, mustahkam va qattiq, pishiq-puxta, yupqa, silliq. Chinordan olingan yog'och materiallariga ishlov berish qiyin, yog'ochida tabiiy atlassimon gullari bor, loklanganda o'zgacha bir chiroy va joziba baxsh etadi. Yog'och tolalari betartib bo'lganligi bois o'ymakor ustadan mahorat va sinchkovlikni talab etadi. o'yilganda o'yma sifatli va pardozi nafis chiqadi. Chinordan qimmatbaho mebellar va randalangan fanerlar tayyorlanadi. Yog'och o'ymakorligida keng-ko'lamda ishlatiladi.

ShUMTOL (ruscha - yasen) – yaproq bargli, kam yoriluvchan, qovushoq yog'ochli, och qizg'ish rangli, mustahkam, puxta, pishiq, tabiiy guli chiroyli va egiluvchan daraxt. Uning yog'ochiga ishlov berish qiyin, silliq randalanadi va pardozlanadi. Yillik tolalari aniq ko'rinadi, bug'langanda esa yaxshi egiluvchan bo'ladi. Shumtolning yog'ochidan olingan materiallar faner tayyorlashda, vagonsozlikda, samolyotsozlikda, kemasozlikda qo'llaniladi. Uning yog'ochidan har xil asbob dastalari, sport buyumlari tayyorlanadi. Yog'och o'ymakorligida keng foydalaniladi.

o'RIK (ruscha - uryuk) – yaproq bargli daraxt. Mevali, tanasi qoramtir qizg'ish, qattiq va mustahkam. Uning yog'ochidan har xil mayda buyumlar, lauh, qutichalar tayyorlashda va inkrustatsiya ishlashda foydalaniladi. Yog'och o'ymakorligida keng ishlatiladi.

qARAg'AY (ruscha - sosna) - ignabarglilar turiga kiruvchi ushbu daraxtning po'stlog'i qalin, to'q jiggarang tusda bo'ladi. Uning yog'ochi puxta, engil, smolali, oq-qizg'ish, namga chidamli daraxt. qarag'ay tik va to'g'ri o'sadi, uning balandligi 30-40 metrgacha, yoshi 120-150 yilgacha bo'ladi. Uning yillik halqalari aniq ko'rinib o'ziga xos ko'rinishga ega. qarag'ay yumshoq yog'och bo'lib, uni yorish, arralash, randalash, elimlash, bo'yash, loklash, ishlov berish oson. U kemasozlikda, qurilishda, mebel ishlab chiqarishda va duradgorlikda ishlatiladi. Yog'och o'ymakorligida monumental ishlarda keng ko'lamda ishlatiladi.

qORA qAYIN (ruscha - buk) – yaproq barglilar turiga kiruvchan ushbu daraxtning tanasi sarg'ish-qizg'imtir tusli, tovlanadigan tiniq, yog'ochi og'ir, qattiq, qovushoq bo'lsa-da namga chidamsiz. Uning xodalarini radial qirqimi bo'yicha chiroyli, tabiiy gulli, yillik halqalari yirikroq va aniq ko'rinadi. qora qayin egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun fanerlar, mebellar yasashda, chizmachilik asboblari tayyorlashda qo'l keladi. qattiq va mustahkam bo'lganligi uchun yog'och mix, parket polini ishlashda keng-ko'lamda foydalaniladi. Islimiy naqshlar qora qayin yog'ochidan juda nafis va chiroyli chiqadi. qora qayin yog'och o'ymakorligida keng ko'lamda ishlatilib, asosan 100-105 yoshga kirganlaridan foydalaniladi. Bu yog'ochdan yasalgan buyumlar pardozlanib loklanganda ajib bir chiroy baxsh etadi.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan turli xom-ashyolar o'zining pishiqligi, nuqsonsizligi, qurt emaganligi, rangining tiniqligi, mustahkamligi, loklansa yanada go'zal tovlanishi, ko'p yillar davomida yorilmasligi, buralmasligi, namga chidamliligi, pardozlanishi, o'yishda qo'porilmasligi va shunga o'xshash o'ziga xos hususiyatlarini hisobga olgan holda yasalayotgan buyumga mos keladigan materiallardan tanlash alohida ahamiyatga ega. Yog'och xom-ashyosidagi tabiiy go'zallik, chiroy yasalgan buyumga o'zgacha bir joziba bag'ishlaydi. Shu va shu kabi sifatlarni inobatga olgan ustalar yog'och xom-ashyosiga buyum yasashdan avvalroq ishlov berib, yillar davomida tayyorlab kelganlar.

qadimda ota-bobolarimiz yog'och xom-ashyolarini tabiiy holda quritish, turli buzilishlardan saqlash maqsadida turli tadbirlarni qo'llaganlar. Chunonchi, yog'och xom-ashyosi kesilib xoda holiga keltirilgach. uning po'stidan tozalab, kesilgan tomoniga yog'li qog'oz mahsulotidan elimlaganlar va suvli hovzaga tashlab 3-5 yil saqlaganlar. So'ngra suvdan olib quyosh nuri tushmaydigan qorong'i joyda 5-10 yil quritilgan. Yog'och xom-ashyosida tabiiy go'zallik hosil qilish uchun xodalar qurigandan so'ng taxta holiga keltirilib uni samon ostiga ko'milgan. Samonning qizishi natijasida yog'och xom-ashyosida tabiiy ranglar va gullar hosil bo'lgan. Shu va shu kabi usullarda tayyorlangan yog'och xom-ashyolaridan yasalgan buyumlarda

hosil bo'lgan tabiiy ranglar va gullar loklangandan so'ng o'zgacha bir go'zallik, chiroy va joziba kasb etadi.

II. YoG'OCh O'YMAKORLIGIDA ISHLATILADIGAN ASBOB-USKUNALAR VA UNING TURLARI.

Yog'och o'ymakorligida asosiy ish quroli iskanalar bo'lib, ular tuzilishi va bajaradigan vazifalari jihatidan turlicha bo'ladi. Iskanalar ikki turga bo'linib y o ' n u v c h i iskanalar va o ' y u v c h i iskanalardan iborat (22-rasm). Yo'nuvchi iskanalar qo'l kuchi bilan yo'nib ishlanadigan, randa bilan ishlashning imkoniyati bo'lmagan joylarga ishlov berishda foydalaniladi. o'yuvchi iskanalar esa tashqi kuch ta'siri ostida ishlatiladi, ya'ni bolg'a bilan urib ishlatilib, bu iskanalar yordamida yog'ochlarni teshishda, uychalar hosil qilishda, quloqchalar ochishda, asosan o'yma bezaklarni bajarishda foydalaniladi.

Yo'nuvchi iskanalar bilan o'yuvchi iskanalar bir-biridan tashqi ko'rinishi jihatidan, ya'ni dastalarining bir yoki ikki tomonidan halqasi bo'lishi, o'tkirlik burchaklari bilan farq qiladi. Yo'nuvchi iskanalarga tashqi kuch ta'sir etmaydigan bo'lganligi uchun faqat dastasining paski tomonida halqacha qo'yiladi hamda o'tkirlik burchagining kichik bo'lishi bilan ajralib turadi. Chunki, uning yo'nuvchi pichog'i yupqa bo'ladi. o'yuvchi iskanalarning esa kesuvchi pichog'ining qalinligi, tashqi kuch ta'sirida dastasining yorilib, titilib ketmasligini oldini olish, uzoqroq ishlashini ta'minlash maqsadida ichki tomoniga temir halqachalar quyiladi.

Iskanalarning dastasi pishiq yog'ochlar, ya'ni qora qayin, qayrag'och, zarang, yong'oq, o'rik, shumtol va boshqa daraxt yog'ochlaridan tayyorlanadi. Iskanalar yog'och to'qmoq bilan urib ishlanadi. Shuning uchun ham iskanalarning dastasi pishiq yog'ochdan yoki plastmassadan tayyorlanmog'i lozim. Plastmassali dastalar tashqi kuchga ta'sirli, yorilishga chidamli bo'lib, bolg'a bilan urganda yorilib ketmaydi.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalar maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki ustalarning o'zlari yasaganlar. Xozirda yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalar metalsozlik korxonalarida tayyorlanadi. Yo'nuvchi va o'yuvchi iskanalarni charxlashga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Iskanalar bir tomonga qarab, o'ziga xos o'tkir burchak ostida charxlanishi lozim.

Yo'nuvchi va o'yuvchi iskanalarning bir necha xillari bo'lib, ular quyidagilardan iborat: oddiy to'g'ri iskana, zamin iskana, nova iskana, baliq sirti iskana, kovza iskana, kurakcha iskana, morpech iskana, chekma iskana, chuv iskana, qing'ir iskana va boshqalarni tashkil etadi. Iskanalar o'zining tuzilishi va ko'rinishiga qarab turlicha vazifalarni bajaradi.

Oddiy to'g'ri iskana – to'g'ri sterjen kesgichli bo'lib, tig'ining eniga qarab kichkina, o'rtacha va katta bo'ladi. Oddiy to'g'ri iskana tig'ining eni 1,7 mm dan 30 mm gacha bo'ladi. Mazkur iskana yo'nishda va o'yishda ishlatilib, kupincha girih, guli girih naqshlarini kesishda va zaminini o'yishda, tekislashda ishlatiladi.

Kurakcha iskana – kesadigan tig'ining uchi bir tomonga qiya holatda bo'lib, u kurakcha ko'rinishda bo'ladi. Kurakcha iskanalar katta-kichikligiga qarab turlicha bo'ladi. Kurakcha iskanalar ensiz zanjira, hoshiya naqshlarini o'yishda, zaminsiz o'ymani bajarishda ishlatiladi. Yo'nuvchi va o'yuvchi bu asbob bilan ishlashda iskananing sterjenini o'ng qo'lda, dastasini chap qo'lda ushlab, tasvir yoki naqsh chizig'ini ustidan kerakli chuqurlikda sanchgan holda o'ymakor usta o'zi tomonga tortib kesib boradi.

Zamin iskana – o'ymaning zaminini o'yib olishda ishlatiladi. Zamin iskananing eni 2 mm dan 10 mm gacha bo'ladi.

Baliq sirti iskana – tig'i botiq, kamalaksimon ko'tarilgan, baliq qovurg'asi shaklida bo'ladi. Ushbu iskana baliq tangalari ko'rinishidagi o'ymalarni amalga oshirishda ishlatilib, o'ymaga o'zgacha ko'rk baxsh etadi. Baliq sirti iskana keskichining eni 4 mm dan 19 mm gacha, katta-kichikligiga qarab uning kichik, o'rtacha va katta turlari bo'ladi.

Morpech iskana – o‘ymaning chetlaridagi hoshiya, zanjira, yarim doiralar va nuqtalarni chiqarishda qo‘llaniladi.

Chekma iskana – o‘yilgan naqsh zaminini patir yuzasiga o‘xshatib chekmalab o‘yib chiqishda ishlatiladi. U o‘yilgan naqshlarni aniq ko‘rinishi, zaminini bir tekisda chiqishi va o‘ziga xos badiiy ko‘rinishini ta‘minlash uchun ishlatiladi. Ishlatish joyiga qarab bir tishli, uch tishli, besh tishli, o‘n olti tishli chekma iskanalar bo‘ladi.

Chekma qalam – o‘yima naqshning zaminini chakichlab chiqish uchun ishlatiladigan asbob. Bu asbob yog‘och banddan va uzun temir stejendan iborat. Chakichlar bir qatorli, ikki qatorli va uch qatorli bo‘lib, har bir qatorida 2, 3, 4, 5 va hakkazo bo‘rtma tishli bo‘lishi mumkin. Chekma qalamda chakichlangan naqsh aniq, mayin va yanada nafis ko‘rinishga ega bo‘ladi.

III. Yog‘Och o‘YMAKORLIGIDA ISHLATILADIGAN YoRDAMChI ASBOBLAR.

Yog‘och o‘ymakorligida buyumlarni o‘yib bezashda asosiy asbob-uskuna, ya‘ni iskanalardan tashqari yordamchi asboblari ham kerak bo‘ladi. qalam, tsirkul, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, jilvir qog‘ozi, knopka, duradgorlik dastgohlari, bolg‘a, elim va boshqalar shular jumlasidandir.

qALAM (arabcha) – o‘rtasiga ingichka, uzun ko‘mir, grafit, qo‘rg‘oshin, quruq bo‘yoqdan qilingan qotishma joylangan cho‘p shaklidagi yozuv asbob. qalam asosan yozish, rasm solish hamda chizmachilik uchun ishlatiladi. o‘rta Osiyoda hattotlar siyoh bilan yoziladigan qamishlardan foydalanganlar. Chex olimi Y.Graxmut maydalangan grafit va gil aralashmasidan yozuv sterjenlar tayyorlashni taklif qilib, ishlab chiqarishga asos solgan. Yog‘och qalamlar ishlash joyi va hususiyatiga qarab grafitli, rangli va boshqalarga bo‘linadi, shuningdek ular joyiga qarab ishlatilishi bilan ham ajralib turadi. Grafit qattiq va yumshoqligiga qarab uch turga bo‘linadi. qattiq qatlamlar T, 2T, 3T, N, 2N, 3N; yumshoq qalamlar M, 2M,

3M, 4M yoki V, 2V, 3V; o'rtacha yumshoqlikdagi qalamlar TM, NV, g' harflari bilan belgilanadi.

ChIZG'ICH (ruscha - lineyka) – to'g'ri chiziq chizish uchun ishlatiladigan silliq asbob bo'lib, o'quv va idora ishlarini bajarishda foydalaniladi. Chizg'ich o'lchash yoki hisoblash uchun ishlatiladigan santimetr va millimetrlarga bo'lingan bo'ladi.

PARGOR (ruscha - tsirkul) – bir uchi sharnirli biriktirilgan ikki yoqli chizmachilik asbobi bo'lib, bir uchida qalam sterjen, ikkinchi uchida nina sterjen o'rnatilgan bo'ladi. Bu asbob o'lchash, aylana va yo'lar chizish uchun ishlatiladi.

O'ChIRG'ICH (ruscha - rezina) – yozilgan yoki chizilgan narsani o'chirish uchun ishlatiladigan maxsus rezina bo'lagi. U naqsh kompozatsiyalar chizishda ortiqcha chiziqlarni o'chirish uchun qo'llaniladi. qalamda chizilgan chiziqlarni yumshoq oq yoki ko'k o'chirg'ichda, siyoh yoki tush bilan chizilgan chiziqlarni esa tarkibida maydalangan qumi bo'lgan qizil o'chirg'ichda o'chiriladi.

KNOPKA (ruscha - gollandcha) – keng qalpoqchali, bosma mixcha bo'lib, qog'oz, mato va shu kabilarni qattiq narsaga mahkam qadab qo'yish uchun ishlatiladi.

JILVIR QOG'OZ – buyumlarning sirtini silliqlash, sayqallash, jilolash uchun ishlatilib qayroq qum qoplagan qog'oz yoki mato hisoblanadi. Shuningdek, tabiiy va sun'iy abraziv materiallar, ya'ni tog' jinslari kvarts, qum, korund, shisha, gemotit va boshqalarni maydalab mato yoki qog'ozga yopishtirib tayyorlangan maxsus material. Jilvir qog'ozlari mayda yoki yirik donali bo'ladi. Jilvir donachalariga qarab 12, 16, 20, 24, 36, 60 va hakazo nomerli bo'ladi.

Ma'lumki, yog'och o'ymakorligida yog'ochlarning ishlov berishga tayyorlashda turli elimlardan foydalaniladi.

Elim (fors - tojikcha) – suyuqlangan yuqori molekulyar anorganik va organik moddalar yoki ularning eritmalari bo'lib, turli materiallarni bir-biriga yopishtirish uchun ishlatiladi.

Elimlar tabiiy, sun'iy hamda rezina elimlarga bo'linadi.

Tabiiy elimlar – hayvonlar (suyak, sut, teri, pay va boshqa) va o'simliklar (daraxtlar shiralari, kraxmal qipiqlarni qayta ishlash natijasida) mahsulotlaridan olinadi. Namlikka ancha chidamsiz.

Sun'iy elimlar (smolalar) – polimerlar emultatsiyasi, shuningdek, erituvchi qo'shilgan va qo'shilmagan smolalar birikmalaridan iboratdir. Turli materiallar, shisha, plastmassa, metall, chinni, penoplast, suyak, qog'oz va boshqalarni biriktirishda keng ko'lamda ishlatiladi. Issiq, sovuq, namlik, ishqalanish, egilish, bukilish va siljish kuchlanishlariga yaxshi chidaydi.

Rezina (kauchukli) elimlar – o'z o'rnida tabiiy va sintetik yo'l bilan olinadigan turlarga bo'linadi. Ushbu elimlarning tabiiy yo'l bilan olinadigani kauchuk daraxti smolasidan, sintetik yo'l bilan olinadigani esa rezinali birikmalarning erituvchilarda (benzin, kerosin, spirt) erigan ko'rinishidir. Turli jinsdagi materiallarni, masalan, yog'ochni tsementga, metallni shishaga, gazlamani plastmassaga biriktirishda ishlatiladi.

Yog'ochsozlikda, duradgorlikda, o'ymakorlikda ko'pincha hayvon elimlaridan kazeinli elimlar ishlatiladi. Namlikka chidamli kazein (lot-kasgeis-pishloq) – murakkab oqsil bo'lib, kimyoda fosfoproteid tuzilishini namoyon qiladi. Sutning ivishi jarayonida uning tarkibidagi kazeinogendan hosil bo'ladi. Tuzli, ishqorli muhitda eriydi.

Yog'och o'ymakorligida taxtalarni o'ymakorlikka tayyorlashda bir-biriga biriktirilib, o'yiladigan buyumning asosi tayyorlab olinadi. Taxtalarning o'yiladigan yuza qatlami silliqlanib, tobga keltiriladi. Avvaliga mayda tishli arrada arralanadi, keyin esa mayin burrada arralanadi. Tekis qilib randalanadi va bir-biriga tekkizib, mayda tirqishlari yo'qligiga ishonch hosil qilinadi, shundan so'nggina taxtalar birlashtirilib, pardoatlanadi. Pardoatlanishda mayda qumli jilvir qog'oz, baxmal bilan artiladi. Shundan so'ng elimlash jarayoni amalga oshiriladi va taxtalar biriktiriladi. Yopishtirilayotgan yuza oralig'ida qirindi yoki bo'shliq qolmaganligiga ishonch hosil qilish uchun bir-biriga bir necha martalab ishqalab yuboriladi.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

ABRAZIV (ruscha < frantsuzcha) – metal, oyna, yog’och va shu kabilarning yuzini silliqlash, jilolash, pardoqlash, shuningdek asboblarni charxlash uchun ishlatiladigan mayda zarrali juda qattiq modda.

ANTISEPTIK (ruscha - *antisepticheskiy*) – antiseptikaga oid, zararsiz, yuqumsiz qiladigan.

ANTISEPTIKA (ruscha < grekcha) – mikroblarni o’ldiradigan kimyoviy moddalar vositasida zararsiz, yuqumsiz qilish.

ASBOB (arabcha) – ish quroli moslama; duradgorlik, o’ymakorlik, kandakorlik, chilangarlik va boshqalarda biror ish bajarishda foydalaniladi.

GIL (fors - tojikcha) – 1). Chinni buyumlar yasash uchun ishlatiladigan oq loy, kaolin.

2). Umuman loy, tuproq.

GRAFIT (ruscha < grekcha) – 1). Uglerodning bir turi, to’q kulrang yoki qora tusli mineral (qalam va o’tga chidamli buyumlar yasash uchun ishlatiladi).

2). qalamning shu mineraldan yasalgan yozadigan qismi.

INKRUSTATsIYa – naqsh, quroq naqsh, terma naqsh, qadama naqsh.

ISKANA (fors - tojikcha) – yog’och taxtani o’yish, yo’nish, teshish uchun qo’llaniladigan, uchi yapaloq o’tkir po’lat tig’li asbob.

KAOLIN (ruscha < xitoycha) – chinni ishlab chiqarish va boshqa sanoat tarmoqlarida ishlatiladigan o’tga chidamli cho’ziluvchan oq loy.

MINERAL (ruscha < frantsuzcha) – er tarkibi qobig’ida uchraydigan tabiiy kimyoviy birikma yoki element.

MODDA (arabcha) – jismlarni tashkil qilgan narsa.

ORGANIK (ruscha) – 1). Uzviy biror narsaning ajralmas bir qismi, u bilan chambarchas bog'langan.

2). Uglerod birikmalari, moda.

OShIq-MOSHIq (arabcha) – eshik, deraza kabi narsalarni o'rnatish va ularni ochilib-yopilishi uchun xizmat qiladigan metall buyum.

PAYRAXA – yog'ochni chopganda, randalaganda hosil bo'ladigan palaxsa chiqindi.

PARDOZ (fors-tojikcha) – narsalar sirtini bo'yash, silliqlash va shu kabi yo'llar bilan ularni chiroyli, ko'rkam qilish va shunday ishlovning o'zi; buyum sirtiga oxirgi ishlov berish.

PLASTIK (ruscha - *plasticheskiy*) – 1). Plastikaga, o'ymakorlikka, xaykaltaroshlikka oid.

2). Bosim ostida har qanday shaklga kira oladigan va bosim to'xtagach shu shaklini saqlab qoladigan.

PLSTIKA (ruscha < grekcha) – san'atda hajmli shakllar yaratishda uyg'unlik, ifodalilik; ta'sirchanlik.

PRESS (ruscha < lotincha) – materialni bosim bilan (bosib, siqib) ishlaydigan mashina, iskanja.

PRESSLANGAN – press bilan ishlov berilgan, bosib joylangan, taxlangan, iskanjalangan.

RADIAL (ruscha) – radius bo'ylab kesilgan, yo'nalgan, tarqalgan.

RANDA (fors - tojikcha) – yog'och va taxtalarni tekis qilib yo'nish, silliqlash uchun ishlatiladigan o'rtasiga po'lat tig' o'rnatilgan dastali duradgorlik asbobi.

SARROV (fors - tojikcha) – binoning ikki yon devoriga, to'sinlar ostidan solinadigan yog'och.

STERJEN (ruscha) – metall va boshqa materiallardan tayyorlangan tayoqcha detal.

Tig' (fors - tojikcha) – pichoq, ustara, iskana, tesha va boshqa asboblarni charx yoki qayroq tosh yordamida o'tkirlangan qirrasasi.

FOSFOPROTEID – murakkab oqsillar, ularning tarkibiga oqsil polipeptid zanjiridagi aminokislota qoldiqlariga birikkan fosforil guruh. Fosforil guruh odatda fosfoproteid molekulalariga SERIN va TREONIN aminokislotalari qoldiqlari orqali birikkan bo'ladi.

XODA (fors - tojikcha) – katta daraxtlarning butoqlari, shox-shabballari kesib tashlangan poyasi, tanasi; uzun yog'och.

XOMASHYo (fors – tojikcha + arabcha) – sanoatda qayta ishlanadigan dastlabki material.

ChATNAGAN – darz ketgan, yorilgan.

qATLAM – ma'lum qalinlikdagi yoyiq narsalar qavati.

qATLAM – **qATLAM** – bir necha qatlamdan iborat bo'lgan.

qIPIq – yog'och, temir kabi narsalarni arralaganda yoki egovlaganda hosil bo'ladigan mayda zarrachalar.

qIRINDI – yo'nish, randalash natijasida hosil bo'ladigan yupqa lenta yoki qipiq shaklidagi chiqit.

qOVUSHOq – yuqori qovushqoqlik xossasiga ega bo'lgan; qovushqoq, yopishqoq.

g'o'LA (fors - tojikcha) – xodadan kesib olingan bo'lak.

MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UChUN SAVOLLAR:

1. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan yog'ochlar daraxtlarning qaysi qismidan olinadi?
2. Daraxt tanasi qanday qismlarga bo'linadi?

3. Yog'och xom-ashyosi qanday guruhlarga bo'linadi?
4. o'ymakorlikda qaysi yog'och xom-ashyosidan foydalaniladi?
5. Daraxtlar bo'yiga qarab necha guruhga bo'linadi?
6. Yog'och o'ymakorligida qaysi daraxtlardan olingan yog'ochlardan foydalaniladi?
7. Daraxtlarning qanday turlari mavjud?
8. Iskanalar necha turga bo'linadi?
9. qanday iskanalarga yo'nuvchi iskanalar deyiladi?
10. qanday iskanalarga o'yuvchi iskanalar deyiladi?
11. Iskanalar bajaradigan vazifalariga qarab qanday xillarga bo'linadi?
12. o'yma naqshning zamini qaysi iskana yordamida tekislanadi?
13. Chekma iskananing vazifasi nimalardan iborat?
14. Iskanalarning dastasi qanday materiallardan tayyorlangani maqsadga muvofiq bo'ladi?
15. Yog'och o'ymakorligida qanday yordamchi asboblari ishlatiladi?
16. Elimning qanday turlari mavjud?
17. o'ymakorlikda elimning qaysi turlaridan foydalaniladi?
18. Yog'ochni o'ymaga tayyorlash uchun bir-biriga yopishtirishda nimalarga e'tibor berish kerak?

ZANJIRA NAQSH KOMPOZITSIYA SI TUZISH VA O'YISH

Yog'och buyumlarini bezashda, u kichik hajmdagi uy-ro'zg'or buyumlari bo'ladimi yoki monumental yog'och o'ymakorligi bo'ladimi kompozitsiyada asosiy naqsh bilan rutani ingichka hoshiya naqsh bog'lab turadi. Bu naqshlarni zanjira naqshi deyiladi.

Zanjira oddiy shakllarni takrorlanishidan hosil bo'ladigan zanjirsimon naqshdir. Zanjirani o'yishda zaminsiz o'yma qo'llanilib, uni o'yishdan maqsad

iskanani qo'lda to'g'ri ushlab va ko'zda chamalab to'g'ri chiziq, tekisliklarni bir tekisda, bir hilda o'yishni o'rganishdan iborat. Ko'p hollarda handasiy bo'lib kelgan ushbu naqshni yog'och o'ymakorligining alifbosi deyish ham mumkin. Chunki, uni o'yish jarayonida yog'och materiallar, uning yumshoq yoki qattiqligi, tolalarining yo'nalishi, iskanalardan amalda foydalana olishni o'rgatadi.

Zanjira naqshi nafaqat yog'och o'ymakorligida, balki ganchkorlikda, tosh, marmar va boshqa metall o'ymakorliklarida, naqqoshlikda, zardo'zlikda, kulolchilikda, kashtado'zlikda ham keng tarqalgan. Zanjiraning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular qaysi maqsadda va qay o'rinda foydalanilayotganidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Zanjira naqshlari chizilish xarakteriga va tuzilishiga qarab nomlanadi. Masalan: raftorsimon zanjira naqshidan tashkil topgan bo'lsa "Zanjirai raftor", o'simliksimon naqsh elementlaridan tashkil topgan bo'lsa "Islimiy zanjira", aylana shaklidagi zanjira naqshini "Aylanma zanjira", ari ini shakliga o'xshatib o'yilgan zanjira naqshlarini "Ari zanjira", gul shaklida o'yilgan ensiz, zaminsiz hoshiya naqshlarini "Gul zanjira", lola shaklidan tashkil topgan ensiz hoshiya naqshlarini "Lola zanjira", g'isht shaklini eslatuvchi zanjira naqshlarini "g'isht zanjira", uchburchak shakllardan tashkil topgan bo'lsa "Uchburchak zanjira", elpig'ich shaklidagi zanjira naqshini "Elpig'ich zanjira", qor tasviri aks etgan zanjira naqshi bo'lsa "qor zanjira", to'lqinsimon shakllardan tashkil topgan bo'lsa "To'lqin zanjira", barg ko'rinishidagi zanjira naqshlariga "Bargi zanjira" va hokkazo nomlar bilan ataladi.

har qanday amaliy san'at asarlariga nazar solmaylik, albatta atrofidagi ramkaga ko'zimiz tushadi. Agarda ramka bo'lmasa naqsh kompozitsiyasida yoki buyumda nimadir etishmayotgandek bo'ladi va naqsh kompozitsiyasidagi kamchilik ko'zga tashlanadi. Odatda o'ymakor ustalar ramka o'rnida zanjira naqshlaridan foydalanadilar. o'yima chetiga zanjira tanlashda alohida e'tibor bilan tanlashni taqazo etadi. Chunki, yirik tanlansa naqsh kompozitsiyasini ko'rimsiz qilib qo'yadi yoki mayda tanlansa zanjira oddiy chiziqqa o'xshab ko'rinib qolishi mumkin.

Zanjira naqshini tanlashda o'yma naqsh kompozitsiyasining mazmuni va turidan kelib chiqqan holda tanlash zarur. Xalq ustalarining ijodiga murojaat qiladigan bo'lsak toshkentlik o'ymakor usta Maqsud qosimov yo'l ichidagi islmiy naqsh kompozitsiyalariga "g'ildirak zanjira" dan, go'zal va jozibador qilib yasalgan va islmiy naqsh kompozitsiyalari bilan bezatilgan kursi, quti, portsigar va tosh oyna uchun yasagan tagliklarida esa "Bargi zanjira", "To'lqin zanjira", "Uchburchak zanjira", "To'rtburchak zanjira" va boshqa turlaridan foydalangan.

Zanjira sodda bo'lsa-da jozibali ko'rinishga ega. Xandasiy shakllar o'yilganda yorug', soya va yarim soyalar o'ziga xos nafis ko'rinishga ega bo'lib, kishida ajoyib taassurot hosil qiladi. Zanjiradagi yorug', soya va yarim soyalar juda chiroyli ko'rinadi, did bilan o'yilgan zanjira naqshlari kishi ko'ziga huddi harakat qilayotgandek bo'lib ko'rinadi.

Zanjira naqshi ham ko'pincha handasiy bo'lib, geometrik shakllardan tashkil topadi. Bunga misol qilib uchburchak zanjira, to'rtburchak zanjira, beshburchak zanjira, oltiburchak zanjira, elpig'ich zanjira, qo'sh elpig'ich zanjira, aylana zanjira, g'ishtin zanjira, g'ildirak zanjira va hakkazolarni keltirishimiz mumkin. handasiy zanjira naqshlarini tuzishning o'ziga xos jihatlari bo'lib, naqqosh-ustadan geometriya, matematika, chizmachilik, chizma geometriya, perspektiva kabi fanlarni bilish talab etiladi.

Oddiy zanjira naqsh kompozitsiyasini chizish uchun avvvlo 4 sm dan parallel to'g'ri chiziq chiziladi va 2 sm dan teng bo'laklarga bo'lib chiqiladi (23-rasm). hosil bo'lgan har bir to'g'ri burchakdan diogonal chiziq tortiladi va ushbu chiziq to'lqinsimon ko'rinishda davom ettiriladi. Keyingi bosqichda esa tutashtiruvchi to'g'ri chiziq tortilmagan har bir markazdan dastlabki tortilgan parallel chiziq tomonidan 1 sm dan o'lchab belgilanadi va ushbu nuqtadan markazni tutashtiruvchi to'g'ri chiziq chiziladi. Yordamchi chiziqlarni o'chirib chiqqandan so'ng oddiy zanjira naqshi hosil bo'lganini ko'ramiz.

Naqshni chizish davomida har bir o'lcham aniq olinishiga e'tibor qaratish lozim. Did bilan bajarilgan har qanday ish kishining ruhini ko'taradi, kayfiyatini

chog' qiladi. Kishining bajarayotgan ishidan ko'ngli to'lgan taqdiridagina ishida sifat bo'ladi, unum bo'ladi. Zero naqsh go'zallik timsolidir.

har qanday amaliy san'at asarlarini olib qaramaylik ularda albatta ramka bo'lishligini yuqorida ko'rib o'tgan edik. Agarda yaratilgan san'at asarlarida ramka bo'lmasa nimadir etishmayotgandek tuyulaveradi. Amaliy san'at tur va janrlarining qay birini olib ko'rmaylik har biri o'ziga xos tarzda, shu san'at turida foydalaniladigan xom-ashyolardan, naqsh kompozitsiyasining turidan kelib chiqqan holda zanjira naqshlari qo'llaniladi. Masalan, zardo'zlik va kashtachilikda zanjiraga o'xshagan uncha murakkab bo'lmagan geometrik va o'simliksimon elementlardan tashkil topgan guldor ensiz hoshiya naqshini ko'rishimiz mumkin.

Zargarlikda zanjira naqshlari qilsimon simlardan ishlansa, misgarlikda mis idishlarga nim zanjira, qubba zanjira, islami zanjira va boshqa zanjira turlari o'yib ishlanadi. Kulolchilikda esa lagan, kosa, ko'za, xum va shu kabi idishlarga rohi zanjira, tumorcha zanjira, zulma zanjira, qanot zanjira, zuluk zanjira, koptok zanjira, kulcha zanjira, gandum zanjira, jingalak zanjira, ilmoq zanjira, g'ildirak zanjira, bargi zanjira, zanjirai taroq, qo'chqorak zanjira, kapalak zanjira, zanjirai tarbuz palla, zanjirai islami chorbarg kabi zanjiralar bilan jilo berilgan.

Ganch o'ymakorligi san'atida esa har bir o'ymani bajarishda o'ymakor ustalar masalan, namoyon, tokcha, izora va boshqalarni uzoqdan yoki yaqindan yaxshi ko'rinishini hisobga olgan holda ishlaganlar. Shu bois yaratilgan ganch o'ymakorligi asarlari jozibador ko'rinishga ega bo'lib kishi ruhiyatiga engillik bag'ishlaydi. Shu o'rinda zanjira naqsh kompozitsiyasi katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Zanjira uzoqdan umumiy ramka ko'rinishiga ega bo'lib, namoyon, tokcha, taxmon va boshqalarni go'zal va nafis ko'rinishiga zamin yaratadi. Shuning uchun zanjira naqshini tanlashda adashmaslik va o'ymaga mos zanjira turini tanlay bilish zarur.

Zanjiraning eni ganch o'ymakorligida 8 sm gacha bo'lishi mumkin. Zanjiralar tuzilishi va mazmuniga qarab amaliy san'atning boshqa tur va janrlaridagidek har xil nomlanadi. Masalan, g'ishtin zanjira, yakka zanjira, parsul zanjira, qo'sh zanjira, gul

zanjira, aylanma zanjira, elpig'ich zanjira va boshqalar shular jumlasidandir. Zanjirani o'yishda amaliy san'atning qaysi tur va janrida bo'lmasin ishlatilayotgan xom-ashyolarning kimyoviy va fizikaviy xossalarini inobatga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunonchi, yog'och o'ymakorligida o'ymani bajarishda o'ymaga mos yog'och material tanlash muhim ahamiyatga ega. o'ymakorlikda ishlatiladigan yog'och qanchalik mustaxkam, pishiq, puxta, namga chidamli, tarkibida yog' yoki smolalar mavjud bo'lsa, u juda ham qulay xom-ashyo hisoblanadi. Masalan, yong'oq, o'rik, tut, chinor, archa, mirzaterak, shumtol, qarag'ay, qora qayin daraxtlari tanasidan olingan yog'och xom-ashyolari shular jumlasidandir. har qanday qattiq va mustaxkam daraxtlardan olingan yog'och xom-ashyosi ham o'ymakorlikda qo'l kelavermaydi. Masalan, oq qayinni olaylik. Oq qayin kattiq, chiroyli va yaxshi pardoqlanadi, lekin uning tarkibida yog' yoki smolaning yo'qligi sababli tolalari qovushoq emas. Bu esa o'ymani kesganda yoki iskanani bolg'a bilan urganda chiziqlar paydo bo'ladi, yoriladi. Natijada o'ymaning sifatiga putur etadi, darz ketadi va ko'chib tushadi.

Zanjira naqshini o'yish uchun eng qulay material terak daraxtlaridan olingan taxtachalarga ishlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Zanjira ishlash uchun taxtacha tayyorlangach, unga oddiy zanjira naqsh kompozitsiyasi chizib chiqiladi. Taxtachani maxsus moslamaga maxkam qilib o'rnatilgach to'g'ri iskana va kurakcha iskanalar yordamida o'yma bajariladi.

Zanjira naqshida ma'lumki zaminsiz o'yma bajariladi. Kurakcha iskanani taxtachaga sanchib o'ymakor usta o'zi tomonga tortgan holda kesib chiqadi. Kesish jarayonida taxtacha tolalarining yo'nalishiga ham e'tibor berish kerak. o'ymani amalga oshirishda iskanani qo'lda ushlab muhim ahamiyatga ega. o'ng qo'l bilan iskana sterjenidan, chap qo'l bilan dastasidan ushlab kerak.

Zanjira naqshining barcha kesiladigan qismi bajarilib, so'ng o'yish bajariladi. Zaminsiz o'yma chuqurligini faqat ko'z bilan chamalab, qirralarini bir tekisda, to'g'ri

chiqarishga harakat qilish kerak. Chunki, to'g'ri va tekis chiqishi zanjirani sifatli, chiroyli va jozibador chiqishini ta'minlaydi.

Oddiy zanjira naqshini chizish va o'yish bosqichlariga amal qilgan holda boshqa, ya'ni tumorcha zanjira, zuluk zanjira, rohi zanjira. Zanjirai taroq, qo'chqorak zanjira, zanjirai tarbuz palla, kapalak zanjiralarni chizish va o'yib chiqish mumkin.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

DASTA (fors - tojikcha) – turli asboblarning qo'l bilan ushlanadigan qismi; sop.

ZAMINSIZ o'YMA – alohida ajratilgan zamini bo'lmagan o'ymakorlik pardozi.

ZANJIR (fors - tojikcha) – 1). Tartib bilan bir-biriga o'tkazilgan metal halqalar tizmasi.

2). Biror narsaning uzluksiz, chambarchas bog'lanib ketgan tizmasi.

ZANJIRA – uzluksiz bog'lanib ketgan naqsh turi.

ZARDo'ZLIK (fors - tojikcha) – zar ip bilan gul tikish kasbi.

KAShTADo'ZLIK (fors - tojikcha) – kashtachilik, kashta tikish kasbi.

KULOLChILIK – kulollik, loydan har xil sopol buyumlar yasash kasbi.

NAqSh (arabcha) – o'yib yoki bo'yoq bilan ishlangan gul, bezak.

PORTSIGAR (ruscha < frantsuzcha) – sigara yoki papiros solib yuradigan quticha, papiros quti.

RAMKA (ruscha) – 1). Portret, rasm va shu kabilar solinadigan to'rt burchakli moslama.

2). hoshiya.

RAFTOR (fors - tojikcha) – 1). hatti-harakat, yurish-turish, qadam olish.

2). Bir yoki ikki tomonga to'liqsimon o'sgan naqsh.

RUTA - hoshiya naqsh.

ShAKL (arabcha) - 1). Biror predmetning tashqi ko'rinishi, sirtqi qiyofasi, formasi.

2). Ma'lum formadagi narsa, figura.

3). Jismning holati, ko'rinishi.

4) Narsaning ichki mazmunidan qat'iy nazar tashqi ko'rinishi, ifodalanishi.

ELEMENT (ruscha < lotincha) – bir butunni tashkil etgan murakkab narsaning yoki hodisaning tarkibiy qismi.

hOSHIIYa (arabcha) – narsaning rangi guli bilan asosiy qismidan ajralib turadigan cheti, zihi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. qanday naqshlarga zanjira naqshlar deyiladi?
2. Zanjirani o'yishda qanday o'yma bajariladi?
3. Zanjirani o'yishda qaysi iskanalardan foydalaniladi?
4. Zanjira naqshining qanday nomlarini bilasiz?
5. Amaliy san'atning yana qaysi turlarida zanjira naqshlari ishlatiladi?
6. Zaminsiz o'yma deganda nimani tushunasiz?
7. qanday naqsh elementlaridan tuzilgan naqshlarga islmiy zanjira deyiladi?
8. Zanjirani o'yishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
9. Zanjira naqsh kompozitsiyalarini nomlashda nimalarga e'tibor qaratiladi?

10. Zanjira naqshini qaysi daraxt tanalaridan olingan yog'och xom-ashyolarga o'ygan maqul?
11. Zanjirani o'yishda daslab qanday ish bajariladi?
12. Zanjirani o'yishda iskana qanday ushlansa o'ymani sifatli chiqishiga yordam beradi?

ME'MORIY OBIDALAR, ZAMONAVIY INSHOOTLAR, MUZEYLAR VA XALQ USTALARI IJODXONALARIGA SAYOHAT

Amaliy san'at mashg'ulotlarida, jumladan yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlarida ijodiy faoliyatni tashkil etish, ruhiyatni estetik tarbiyalash elementlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Yog'och o'ymakorligi san'atini puxta va mukammal egallashga harakat qilgan har bir shaxs o'z ustida tinimsiz izlanishi va ishlashi zarur. Shu sohaning etuk mutaxassisi bo'lish uchun xalq ustalari ijodidan xabardor bo'lish, ularni yaqindan bilish, naqsh kompozitsiyalarini tahlil qilish, yod olish va tasvirlash, ya'ni nusxa ko'chirish ijodkorlik qobiliyatini, kuzatuvchanlikni, mulohazakorlikni, sermushohadalikni, fikrlashni va nafis tuyg'ularnikishi ruhiyatida taraqqiy ettiradi, amaliy san'atga, go'zallikka, xayotga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, tabiat, olam, jamiyat, inson go'zalligini his eta oladigan qalbi ham, xayoti ham go'zal insonga aylantirib boradi.

Bunday hislatlarni shakllantirish uchun esa talabalar bilan birga ko'proq me'moriy obidalar, muzeylar, zamonaviy inshootlar va xalq ustalari ijodxonalariga sayohat uyushtirib borish talab etiladi. Sayoxat uyushtirilib borilayotgan ob'ektga avvalo qanday maqsad va vazifalar bilan tashrif buyurilayotganini aniqlab olish zarur. Ya'ni qaysi ob'ektga boriladi, qay maqsadda va qay maqsadlarni amalga oshirishga e'tibor qaratish lozim. Bunday sayohatlarni o'tkazish 3 bosqichli jarayonda kuzatiladi.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik ko'rish bosqichi bo'lib, bu bosqichda sayohatning rejasini tuzish, maqsad va vazifalarini belgilash ko'zda tutilgan. Sayohat davomida kuzatilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan ob'ektlar, yuriladigan yo'llar taxminan belgilab olinadi, yuritiladigan hujjatlar tayyorlanadi. Sayohat davomida o'tkaziladigan tadbirlar, uyushtiriladigan suhbatlar, nusxa ko'chirish, fotosuratlar olish uchun zaruriy ashyolar va jihozlar tayyorlanadi. Havfsizlik qoidalari, tashrif buyurilayotgan tashkilot yoki muassasadagi tartib-intizom bilan tanishtiriladi, yo'l-yo'riqlar o'tkaziladi.

Ikkinchi bosqich – asosiy bosqich bo'lib, bu bosqichda belgilangan kuzatish ob'ektiga bevosita tashrif buyuriladi, ularning ta'rifi, tarixi, o'ziga xos xususiyatlari bilan atroflicha tanishiladi. Muzeylar, tarixiy me'morchilik obidalari va zamonaviy inshootlar batafsil o'rganilib chiqiladi. Har bir jihoz, namunalar haqidagi fikrlar maxsus daftarlarga qayd etib boriladi. Yog'och o'ymakorligi san'atini nodir namunalarining tarhlari imkon darajasida chizib olinadi. Agar lozim bo'lsa, ba'zi hollarda bunday zaruriy namunalarning fotosuratlari olinadi. Fotosuratlarni olishda ko'proq namunalarni bajarish jarayoni, naqsh guruhlarining bir-biriga uyg'unlashtirilib borilishi va birlashtirilishiga e'tibor berilsa, sayohatdan so'ng tashkil qilinadigan to'plamlar, albomlar uchun yaxshigina ma'lumot bo'lib xizmat qiladi. Sayohat davomida turli xil namunalar fotosuratlarini, tasvirlarini chizib olishdan tashqari, muzey va me'moriy obidalar xodimlari, agar imkon bo'lgan joylarda esa amaliy san'at, yog'och o'ymakorligi ustalari, shogirdlari, olimlar, shu sohaning jonkuyarlari va boshqalar bilan suhbatlar, uchrashuvlar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday hollarda ustalarning ustaxonalari, manzilgohlari va hakkazo ma'lumotlar yozib olinishi zarur.

Uchinchi bosqich – yakuniy bosqich bo'lib, bu bosqichda kuzatilgan ob'ektlar, namunalar to'g'risida to'plangan ma'lumotlar tahlil qilinib o'rganib chiqiladi. Sayohat davomida jamlangan tasvirlar, fotosuratlar va chizmalardan albomlar, to'plamlar, stendlar va plakatlar tayyorlanadi. Har bir to'plamning yaratilish tarixi, ta'rifi batafsil yoritilib mavzuli ko'rgazmalar tayyorlanadi. Ko'rgazmadagi namunalar tasnifi, tayyorlash uslublarining o'ziga xosligi ta'riflanadi. Har bir sayohat

natijalari tahlil qilinadi, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va erishilgan yutuqlar muhokama qilinadi.

Yana shunga ham alohida ahamiyat berish joizki, sayohatga borilgan ob'ektda chizib olingan naqsh elementlari, nusxalar ustida ko'proq ishlash talab etiladi. Shundagina yangidan-yangi naqsh elementlari va naqsh kompozitsiyalari yaratish imkoniyati paydo bo'ladi. Buning uchun sayohatga borilgan har bir ob'ektnisinchiklab, qunt bilan o'rganib chiqish talab etiladi.

Albatta, naqsh kompozitsiyalarini tomosha qilish, elementlarini chizib olish bilan chegaralanib qolmay, balki xalq ustalari ijodidan nusxa ko'chirish ham muhim ahamiyatga ega. Kompozitsiyadan nusxa ko'chirilayotganda naqsh kompozitsiyasining xarakterli tomonlariga e'tibor qaratish lozim.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

INShOOT (arabcha) – turli maqsadlar uchun qurilgan binolar va ularning uskuna jihozlari.

ME'MOR (arabcha) – binokor, arxitektor.

ME'MORChILIK – arxitektura.

MUASSASA (arabcha) – xo'jalik, savdo-sotiq ishlari va shu kabilarning biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta'lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi, belgili shart va ma'muriyatga ega bo'lgan tashkilot.

MUZEY (ruscha < grekcha) – san'at, texnika, tabiat namunalari, tarixiy va ilmiy-tabiiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni yig'ish, saqlash, o'rganish va xalqqa namoyish qilish bilan shug'ullanadigan muassasa.

NAMUNA (fors-tojikcha) – 1. Bir turdagi narsalarning shu narsalar haqida tasavvurbera oladigan bir nusxasi, bo'lagi, donasi.

2. O'rnak bo'la oladigan, ibrat olsa, ergashsa arziydigan shaxs yoki narsa; ibrat, o'rnak.

OBIDA I (arabcha) – toat-ibodatni kanda qilmaydigan, xudojo'y, taqvodor ayol.

OBIDA II (arabcha) – 1. Qabr ustiga o'rnatilgan yodgorlik.

2. Arxeologik yodgorlik, uzoq o'tmishdan moddiy yodgorlik.

OB'EKT (ruscha < latincha) – 1. Bizdan tashqarida va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq, voqelik, moddiy dunyo, mavjudod.

2. Kishi faoliyati, diqqat-e'tibori qaratilgan xodisa, predmet, shaxs.

4. Xo'jalik yoki mudofaa ahamiyati bo'lgan korxonalar, qurilish, ayrim uchastka va shu kabilar.

SAYOHAT (arabcha) – dam olish, xordiq chiqarish yoki dunyoni ko'rish, o'rganish maqsadida qilingan safar.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Shahrimizda qanday me'moriy obidalar bor?
2. Shahrimizda qanday zamonaviy inshootlar bor?
3. Muzei nima?
4. Sayohat uyushtirishdan oldin nimalarga ahamiyat berish zarur?
5. Me'moriy obidalar, muzeilar, zamonaviy inshootlar va xalq ustalari ijodxonalariga sayohat uyushtirish necha bosqichda amalga oshirilishi lozim?
6. Birinchi bosqich qanday bosqich va bu bosqichda qanday tadbirlar amalga oshiriladi?
7. Ikkinchi bosqich qanday bosqich va bunda nimalarga ahamiyat berish kerak?
8. Uchinchi bosqichda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
9. Sayohat uyushtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad nimalardan iborat?

Yog'Och o'YMAKORLIGIGA OID NAqSh ELEMENTLARI VA ULARNI ChIZISH

I. o'YMAKORLIKKA OID NAqSh ELEMENTLARI

Amaliy san'atning qator turlarini, u bo'yab ishlanadimi, o'yib ishlanadimi yoki zarb berib ishlanadimi bundan qat'iy nazar asosini naqshlar tashkil qiladi. Naqsh chizishni yaxshi bilmasdan turib, qanchalik mahorat bilan o'ymakorlik ishlari amalga oshirilmasin u baribir xalq orasida "usta" degan muqaddas nomga ega bo'la olmaydi.

Naqshlar bilan qaysi bino, inshoot yoki buyum bezatilmasin, u o'ziga xos uslubni va texnologiyani talab qiladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz naqsh turlarini puxta o'rganganlari uchun hayotdagi shodlikni ham, g'am-kulfatni ham jonli chiziqlar, rang-barang naqshlar orqali bera olganlar.

Amaliy san'atning naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi va boshqa turlarini egallashga intilgan har qanday kishi avvalo naqsh chizishni o'rganishi zarur. Naqsh – elementlarning ma'lum tartibda takrorlanishidan tashkil topgan bezak turi. Elementlar naqsh ishlashning alifbosi hisoblanadi.

Demak, naqsh chizishni o'rganishdan oldin elementlarni chizishni, qanday nomlanishini va qaerlarda ishlatilishini bilish muhim ahamiyatga ega. Barg, gul, novda, marg'ula, bofta, shukufta (shkuft), tanob bog'lam va sirtmoq kabi naqsh elementlari mavjud bo'lib, ular tuzilishi, xarakteri va hususiyatlaridan kelib chiqib nomlanadi (27,28,29-rasmlar).

BARG – o'simliksimon naqsh elementi bo'lib, naqqoshlar tomonidan tabiatdagi o'simlik bargini stillashtirib, olingan tasviri, badiiy ifodasidir (rasm, a,b.). Barg naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi va husn beruvchi elementlar sirasiga kirib, ular tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Yog'och o'ymakorligiga oid naqsh kompozitsiyasida barglar o'ta nozik, nafis, go'zal va jozibador bo'lishi bilan birga silliq va egiluvchan ko'rinishda tasvirlanadi. Ko'p hollarda oddiy barglar

ko'ndalang, ya'ni gorizontol holatda tasvirlansa, murakkab barglar esa yarim old, ya'ni yarim burilgan holatida tasvirlanadi. Oddiy barglarga tol barga, bodom bargi, anor bargi, hurmo bargi, nok bargi, qalampir bargi, uch barg va boshqalar kirsa, murakkab barglarga esa ko'p barg, shchobarg, sadbarg va boshqalar kirib, ular qatlam-qatlam shobarg tarzida uchraydi. Murakkab barglar ko'proq Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi nomoyondalari tomonidan qo'llanilib kelinadi. Naqsh kompozitsiyalarida yuqorida nomlari keltirilgan barg elementlaridan tashqari yana ko'plab turlarini uchratishimiz mumkin.

GUL – usta-naqqoshlar tomonidan nabotot olamining eng sara gullarini stillashtirilgan holdagi tasviri, badiiy shaklidir. Gullarning behisob turlari mavjud bo'lib, u ko'p hollarda naqsh kompozitsiyasining markazida joylashgan bo'ladi. Gullar ham barg elementlari singari ba'zan to'ldiruvchi va husn beruvchi sifatida tasvirlanadi. Gullar har xil tuzilishga ega bo'lganligi tufayli ular o'ziga xos atamalar bilan nomlanadi. Gullarning oddiy va murakkab turlari bor. Oddiy gullarga oygul, lola gul, paxta gul, no'xot gul va boshqalar kirsa, murakkab gullarga esa pista gul, ko'p bargli gul, gultojixo'roz, atirgul va hakkazolar kiradi.

BAND – o'simliksimon naqsh elementlaridan biri bo'lib, u naqqoshlikda barg va gullarning novdasi hisoblanadi. Yog'och o'ymakorligiga oid naqsh kompozitsiyalarida band tabiatdagi daraxtlar yoki o'simliklarning novdasini stillashtirib olingan tasviridir. Boshqa naqsh elementlari singari bandning ham kompozitsiyada qo'llanishining o'ziga xos qonun qoidalari bor. Naqsh kompozitsiyasida band aniq bir o'lchamdagi yo'g'onlikda bo'lishi, gul va barglarga nisbatan saqlanishi, u gullar, barglar, tanoblar va boshqalarning tagidan o'tishi bandlarning o'ziga xosligiga misol bo'la oladi. o'ymakor-naqqoshlar banddan kompozitsiyada o'ziga xos uslubda foydalanadilar. Shuning uchun ham naqsh kompozitsiyalari bir-biridan farq qiladi. Masalan, Xiva yog'och o'ymakorligi maktabi vakillari o'z kompozitsiyalarida bandlarni kam kurtakli va barg elementlaridan deyarli foydalanmaydilar. Navdalarning o'zini spiralsimon tarzda bir-biriga to'qib ketadilar va hakoza.

MARg'ULA – o'simliksimon naqsh elementlaridan biri bo'lib, qo'sh chiziqli gajakdan hosil bo'ladi. Marg'ula naqqoshlik, ganchkorlik, misgarlik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi va boshqa amaliy san'at turlarida ishlatiladi. U ayrim novda va tanob shakllarining tugallanishini bildiradi. Agar novda bilan marg'ula tasvirlangan bo'lsa, u marg'ulali novda, agarda bir novdani uchida ikkita marg'ula hosil bo'lgan bo'lsa, uni qo'sh marg'ula deb yuritiladi. Marg'ula yog'och o'ymakorligiga oid naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi element sifatida qo'llaniladi.

g'UNChA – tabiatdagi nabotot olamining hali ochilib ulgurmagan gullarini o'ymakor-naqqosh tomonidan stillashtirib olingan tasviri bo'lib, naqsh kompozitsiyasida to'ldiruvchi element hisoblanadi.

BOFTA – o'simliksimon va murakkab naqsh elementlari bo'lib, tanob, mehrob, patnus va savat ko'rinishidagi hoshiyalarni yurak shaklidagi elementlar bilan bog'laydi. To'qima va to'qilgan shakllardan tashkil topgan bofta, naqsh kompozitsiyalarida bog'lovchi elementlar sifatida foydalaniladi.

ShUKUFTA – novda va tanoblarni bog'lovchi o'simliksimon naqsh bo'lagi. Shukufta qisqacha "shkuft" deb atalib, u naqsh kompozitsiyasida bog'lovchi va to'ldiruvchi element sifatida ham xizmat qiladi. Shukufta tuzilishi jihatidan turlicha bo'lib, u ba'zan kichik sodda ko'rinishda bo'lsa, ba'zan ancha takomillashgan ko'rinishchda, ba'zan ikki tomondan kelayotgan shukufta qo'shib madohil yoki shunga o'xshash shaklni hosil qilsa, ba'zan asosiy shakl yasovchi elementlarni kurtak va gajak ko'rinishlarida o'zaro bog'laydi.

BOg'LAM VA SIRTMOq - o'simliksimon naqsh elementlaridan biri bo'lib, boftaning oddiy turdagi ko'rinishidir. Ikki novda yoki tanobni uchinchisi sirtmoqsimon egib o'ziga bog'lashini sirtmoq deyiladi. Sirtmoqlar bir-biri bilan chalkashib o'tadi va umumiy ko'rinishi xuddi sakkiz raqamini eslatib yuboradi.

TANOB - arabcha chilvir, arqon degan ma'noni anglatadi. Murakkab naqsh kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va naqshga shakl beuvchi chiziq tanob deyiladi. Markaziy Osiyo xalqlari naqshlarida bir xil yo'g'onlikdagi chiziq bo'lib, o'ymakor-naqqosh ustalarimiz tabiat manzarasida uchraydigan anhorning shartli

tasviri deb olganlar. o'ymakor-naqqosh usta naqsh kompozitsiyasini chizishdan oldin birinchi navbatda tanob tortib, keyin novdalarni chizadi, so'ngra novdalarni yo'nalishiga moslab to'ldiruvchi va bog'lovchi naqsh elementlaridan gullar, barglar, marg'ulalar, shukuftalar, sirtmoqlar va boshqalarni joylashtirib naqsh kompozitsiyasi hosil qilinadi. Ustalar naqsh kompozitsiyasi chizishda tanobni birinchi o'ringa qo'yadilar. Tanob ustidan hech qachon novda, gul yoki barg bosib o'tmaydi. Tanob xilma-xil bo'lib, bir kompozitsiyada boshlanganicha uzluksiz davom etadi, ba'zi hollarda ikki nuqtadan boshlanib bir-biriga qarab yo'naladi va bir-biriga chirmashib tugallanadi. Ba'zi hollarda esa tanob bir nuqtadan boshlanib ikki tomonga yo'nalib taqsim chetiga borib tugallanadi. Ba'zan egri, to'g'ri yoki aralash chiziqlardan tashkil topgan bo'lishi ham mumkin. Agar kompozitsiyada kesib o'tuvchi tanoblar ikki xil pardozi usulida bajarishga mo'ljallangan bo'lsa, albatta tanoblar bir-biri bilan chirmashgan holda tasvirlanishi lozim. Agarda naqsh kompozitsiyasi qo'sh tanobli bo'lsa-yu, tanoblar bir xil pardozi usulida bajarilsa naqsh kompozitsiyasidagi joziba yo'qoladi va u ko'rimsiz chiqadi.

II. o'YMAKORLIKKA OID NAQSH ELEMENTLARINI CHIZISH.

Yog'och o'ymakorligi hunarini puxta o'rganish uchun albatta mustaqil ravishda kompozitsiya tuzishni bilish lozim. Naqsh kompozitsiyasi tuzish uchun esa dastlab yog'och o'ymakorligiga oid naqsh elementlarini chizib o'rganishdan boshlanadi.

o'simliksimon naqsh elementlarini o'rganish, ma'lum qonun-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Buning uchun katak daftar, chizg'ich (to'g'ri va uchburchakli), o'rtacha yumshoqlikdagi qora qalamlar, oq o'chirg'ich va boshqa yordamchi asboblari kerak bo'ladi. Odatda o'simliksimon naqsh elementlarini chizish, ularni guruhlarga bo'lib olingan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Masalan, dastlab barg elementlarini, gul, band, marg'ula, sirtmoq elementlarini osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon chizib mashq qilish lozim (30, 31, 32-rasmlar).

Chizishdan avval katak daftarlarni chizg'ich va qora qalam yordamida qalamni engil yurgizgan holda sxematik kataklar chizib, shu kataklar ichiga naqsh elementlarini chizishdan boshlaymiz. (... rasm, a,b.). Daftarning har bir betiga bitta naqsh elementini qayta-qayta chizib mashq qilinadi. Chizish davomida, simmetriya va asimmetriya qonun-qoidalariga e'tibor qaratish lozim.

Naqsh elementlarini chizish uchun oddiy qora qalam, ya'ni yumshoq V, 2V, 3V yoki M, 2M, 3M, 4M; shuningdek o'rtacha yumshoqlikdagi TM, NV, va o' harflari bilan belgilangan qalamlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Naqsh elementlarini chizishni mashq qilishda qalamning sifatisidan foydalanishga harakat qilish, qalamning sifatli yoki sifatisizini ajrata bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki, amaliy san'atning qaysi tur va janrlari bilan shug'ullanmasin naqqosh uchun qanchalik mo'yqalam, yog'och va ganch o'ymakor ustalari uchun esa o'yuvchi va yo'nuvchi iskanalar qanchalik muhim bo'lsa oddiy qora qalam ham shunchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Chunki, amaliy san'at ustasi naqsh kompozitsiyasini yaratishda qalam asosiy ish quroliga aylanadi. O'ymakor-naqqosh har bir chiziq tortganida, chizayotgan chizig'i sifatli, ravon va tiniq chiqsa usta shunchalik zavqlanadi, ruhi tetiklashadi. O'zi amalga oshirayotgan ishdan ko'ngli to'lib, ilhomlanadi, yangidan-yangi naqsh elementlarini, kompozitsiyalarini yaratadi, kashf etadi. Oddiy qora kalamlar o'ymakor-naqqoshning asosiy ish qurollaridan biri ekan, xo'sh qalamlarning sifatli yoki sifatisiz ekanini qayerdan ajratib olish mumkin?

Ma'lumki, bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda turli tuman o'quv qurollarini, shu jumladan oddiy qalamlarning ko'plab markalarini savdo do'konlarida, rastalarida uchratishimiz mumkin. Qalamni sotib olishdan avval uning markasiga e'tibor berish zarur. Rossiya (Tomsk) ning "KONSTRUKTOR", Germaniyaning "GLOBE NO. 555 222", Chexiyaning "HARDTMUTH "KOH-I-NOOR" 1500" hamda "POLF" va boshqa markali ko'plab qalam turlarini uchratishimiz mumkin. Agarda markasiga qarab sifatli qalamni ajratib olish imkoni yo'q bo'lsa, oddiy toza oq qog'ozni teks stol ustiga qo'yib qalamni bir xil kuchlanishda ohista yurgizib ko'riladi. Qalam qoldirgan chiziq atrofida xira iz

qoldirsa yoki qalam grafiti to'kilib qolsa u sifatsiz qalam hisoblanadi. Bordi-yu siz tortgan chizig'ingiz bir xil yo'g'onlikda, chiziq atrofida hech qanday iz qoldirmasa yoki qalam grafiti to'kilib qolmasa u sifatli qalam hisoblanadi.

Naqsh kompozitsiyasining sifatli, chiroyli va jozibador chiqishi uchun qalam bilan bir qatorda o'chirg'ich va chizg'ichlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qalamda chizilgan chiziqlarni o'chirish uchun yumshoq oq o'chirg'ichdan foydalanish qulay. Chunki, qalam izlari mayin va yumshoq oq o'chirg'ichlardan o'chirilgandan so'ng qog'ozda dog' qoldirmaydi. Tarkibiga qum qo'shilgan ko'k dag'al o'chirg'ichdan foydalanish to'g'ri bo'lmaydi. Dag'al o'chirg'ichdan o'chirilganda qog'oz sathida dog' qoldirish bilan birga uning sifatini buzadi, qayta chizish jarayonida ish sifatiga putur etadi.

Chizg'ichlardan foydalanishda esa albatta yog'och chizg'ichlarni ishlatish zarur. Chunki, yog'och chizg'ichlar qog'oz sathida surilganda yog'ni, namlikni o'ziga singdirib oladi va bir teksda ishning sifatli chiqishini ta'minlaydi. Metall, shisha, plastmassa va boshqa shu kabi materiallardan yasalgan chizg'ichlar qog'oz sathiga ishqalanishi natijasida qiziydi va tarkibidan yog' va namlik chiqarib qog'ozga surkalaydi, har xil dog'lar hosil qiladi. Oqibatda naqsh kompozitsiyasining sifati buziladi, kishi ruhiyatiga ta'sir etib, bajarayotgan ishidan ko'ngli qoladi, mehnati samarasiz bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, kishi o'z faoliyatida e'tiborliroq, tashkilotchi va tadbirkor bo'lmasa, u erda loqaydlik yuzaga keladi. Natijada kishi ongida befarqlik shakllanadi va bora-bora u kishi ruhiyatini sindiradi, xarakterida dangasalikni vujudga keltiradi. Amaliy sanatning u yoki bu turi bilan shug'ullanish, chizish, naqsh kompozitsiyasi tuzish asablarni tinchlantiradi, inson ruhiyatini tarbiyalaydi. Shu bois inson o'z ustida ishlashi, tinimsiz izlanishda bo'lishi lozim. Har bir narsani qunt bilan o'rganishga va bajarishga harakat qilish zarur.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek bir xil o'lchamda sxematik kataklar chizilishining boisi shundaki, naqsh elementlarini chizish davomida nisbatni saqlay bilishga, yo'l qo'yilgan xatolarni keyinchalik takrorlamaslikka harakat qilish

natijasida go'zallika, noziklikka erishishga o'rgatadi. Naqsh elementlarini chizishda ,,,-rasmlarda tasvirlanganidek ketma-ketlikda, strelka yo'nalishi bo'ylab chizishni mashq qilamiz. Dastlab barg, gul, g'uncha, kurtak, tirqoq va boshqa elementlarni chizish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Naqsh elementi chizib olingan sxematik kataklardan tashqariga chiqib ketmasligi, elementning uchi yoki ayrim joylari urinma tarzida o'tib ketishiga ahamiyat berish kerak. Chunki, bu takror va takror chizish davomidan birinchidan qo'lni bir xilda chizishga o'rgatsa, ikkinchidan oq qog'ozga chizish jarayonida ko'z bilan chamalab bir xil nisbatni saqlagan holda chizishga o'rgatadi.

Naqsh elementlarini chizish davomida chiziqlarning ingichka, to'g'ri, ravon va toza chizish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat naqsh chizish sirlarini puxta egallaganingizdan, balki ruhiyatingizni ham ko'taradi, ko'nglingizga taskin beradi, sizni yana va yana yangi orzular sari undaydi, eng muhimi asabingizni tinchlantiradi, dam olasiz. qachonki oddiy qora qalam bilan chizilgan chiziqlarga go'zallik, joziba va jon baxsh eta olsangizgina o'z kasbingizni ustasiga aylanasiz.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

ASIMMETRIYA (ruscha < grekcha) – simmetriya yo'qligi yoki buzilganligi; simmetriyasizlik.

BAND (fors - tojikcha) – 1). Bir narsaning ushlanadigan qismi; dasta, tutqich.

2). Yaproq va mevalarning novdaga birlashtiradigan ingichka qismi.

GUL (fors - tojikcha) – 1). Ziynat uchun ekiladigan yoki o'zi o'sadigan o'simliklar, chechak.

2). Biror narsaga chizib, tikib, bosib yoki o'yib tushirilgan bezak, naqsh.

KOMPOZITsIYA (ruscha < lotincha) – 1). Adabiy asar, san'at asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va o'zaro munosabati.

2). Tarkibiy qismlari ma'no jihatidan o'zaro bog'lanib birlik tashkil etgan badiiy asar, musiqa yoki tasviriy san'at asari.

NABOTOT (arabcha) – o'simliklar dunyosi, o'simliklar.

SIMMETRIYA (ruscha < grekcha) – biror narsaning ma'lum nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan qarama-qarshi tomonda joylashgan qismlari o'rtasidagi mutanosiblik, o'xshashlik, moslik, uyg'unlik.

SPIRAL (ruscha < grekcha) – vint shaklidagi uzluksiz burama sim.

STIL (ruscha < frantsuzcha) – 1). Uslub.

2). Biror ish-harakat uslubi.

STILIZATSIYA – qayta ishlash; tabiatdagi gul, barg, novda, qush, hayvon, odam va boshqalarni naqqosh tomonidan qayta ishlab tasvirlanishi.

SXEMA (ruscha < grekcha) – biror ishni tashkil etish, amalga oshirish tartibini o'z ichiga olgan reja, chizma.

SXEMATIK (ruscha - *sxematischeskiy*) – 1). Sxema ravishidagi, sxemadan iborat bo'lgan.

2). Umumiy tarzdagi, sodda.

TANOB (arabcha) – ingichka arqon, chilvir yoki kanop, ip, rishta.

TEXNOLOGIYA (ruscha < grekcha) – ishlab chiqarishning biror sohasida ishlov berish yoki qayta ishlashda qo'llanadigan operatsiyalar majmui.

USLUB (arabcha) – 1). Ijodkorning o'ziga xos ishlash yo'li, usuli; stil.

2). Ishlash, boshqarishda o'ziga xos yo'l, usul.

g'UNChA (fors - tojikcha) – hali ochilmagan, gul barglari, hali yozilmagan gul.

MAVZUNI MUSTAXKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Yog'och o'ymakorligiga oid qanday naqsh elementlarini bilasiz?
2. Barg qanday naqsh elementi va uning qanday turlari mavjud?
3. Gul qanday naqsh elementiga mansub va uning qanday turlari bor?
4. Band nima va u qaerlarda qo'llaniladi?
5. Marg'ula nima?
6. g'uncha qanday elementlar tarkibiga kiradi?
7. Bofta haqida nimalarni bilasiz?
8. Shukufta nima?
9. Bofta bilan shukuftaning qanday farqi bor?
10. Bog'lam va sirtmoq nima?
11. Tanob nima va u qaerlarda foydalaniladi?
12. Naqsh elementlarini chizishda nimadan boshlash kerak va nimalarga ahamiyat berish lozim?

Yog'OCh o'YMAKORLIGIGA OID Yo'L IChIDAGI ODDIY NAqSh NAMUNALARINI ChIZISH VA o'YISH.

I. ODDIY ISLIMI NAqSh NAMUNALARINI ChIZISH.

Ma'lumki, har qanday naqsh kompozitsiyasi oddiy yoki murakkab bo'lishidan qat'iy nazar naqsh elementlarining o'zaro birlashuvidan, joylashchuvidan hosil bo'ladi. o'ziga xos qonuniyatlar asosida tuzilgan va chizilgan naqsh kompozitsiyasi azal-azaldan biror narsa va voqe'likning ramzi tariqasida tasvirlanib kelingan. Naqsh kompozitsiyalari odatdagi nabobot va hayvonot olamining o'ymakor-naqqosh tomonidan stillashtirib tasvirlagan ko'rinishidagi mujassamotidir.

har bir naqsh kompozitsiyasi o'zining tuzilishi mazmuni yoki xarakterli elementi bilan bog'langan holda nomlanadi. Masalan: 1-gulning nomi "Oddiy islimi".

Chunki u oddiy bodom ko'rinishidagi elementning ma'lum masofada ritmik takrorlanishidan hosil bo'ladi. 2-gulning nomi esa "Islimiy bofta" deb nomlanishining boisi shundaki, u bog'lovchi elementlardan biri bo'lgan boftaning bir xil masofada doimiy ravishda ritmik takrorlanib kelishi natijasida bir butun kompozitsiyasini tashkil qiladi. 8-gul misolida ko'radigan bo'lsak, u "Islimiy yakraftor" deb nomlanadi. Usimliksimon naqsh turiga kirganligi uchun islimiy va bir yoki ikki tomonga to'lqinga o'xshash o'sgan novdasimon naqsh bo'lganligi uchun raftor, yakraftor deyilishining sababi esa, undagi to'lqinsimon o'sgan novda bitta bo'lganligi uchun "Islimiy yakraftor" deb nomlangan.

Yog'och o'ymakorligiga oid yo'l ichidagi oddiy naqsh namunalari 16 ta bo'lib, shundan 9 tasi islimiy, qolgan 7 tasi pargori gullar hisoblanadi. Ular nafaqat nomlanishi, balki chizilishi, tuzilishi, o'yilishi va pardoatlanishi jihatidan ham bir-biridan farqlanadi. Dastlab, islimiy naqsh namunalarini, ya'ni 1-gul, oddiy islimiy 2-gul, islimiy bofta; 3-gul, islimiy shobarg; 4-gul, islimiy bargli bodom; 5-gul, bargli islimiy; 6-gul, islimiy marg'ulali bofta; 7-gul, islimiy shoh; 8-gul islimiy yakraftor va 9-gul, islimiy qalapir naqsh namunalarini chizishning barcha qonun qoidalari va bosqichlari bilan tanishib chiqamiz.

Islimiy naqsh namunalarini chizish uchun o'rta yumshoqlikdagi qora qalam, chizg'ich, o'chirg'ich va rasm daftari kerak bo'ladi. Rasm daftariga to'g'ri komponovkani qilish, yordamchi chiziqlarni qalamni bosmasdan aniq o'lchamda engil chizish lozim. Dastlab, birinchi gul oddiy islimiy naqsh namunasini qalamda rasm daftariga chizish jarayonida ritm va simmetriya qonun qoidalariga rioya qilgan holda bosqichma-bosqich namunadagi rasmda ko'rsatilganidek chiziladi. Demak: 1-gul, oddiy islimiy (33-rasm).

1-ish. Yordamchi markaziy o'q chizig'i chiziladi. So'ngra o'q chizig'i 1,5 sm bo'lgan umumiy 3 sm ni, 1,6 sm bo'lgan umumiy 3,2 sm ni, hoshiya uchun esa 2,1 sm bo'lgan umumiy 4,2 sm ni tashkil qiluvchi parallel chiziqlar o'tkazamiz va ularni 3 sm dan teng bo'laklarga bo'linadi. Yana shunga ahamiyat berish kerakki, teng

bo'laklarga bo'linganda 0,5 sm ni tashkil qiluvchi hoshiyadan tashqari 18 sm dan kam bo'lmagan holda rasm daftariga joylashtirish lozim.

2-ish. har bir kvadrat - 3 sm ni 1,5 sm dan teng bo'laklarga bo'lib chiqamiz.

3-ish. har bir kvadrat ichiga diogonal chiziqlar o'tkaziladi.

4-ish. Kvadratni teng bo'lakka bo'luvchi yordamchi chiziqdan o'tkazilgan diogonalga urinma tarzida chorak aylana chizib chiqiladi.

5-ish. Yuqorida chizilgan chorak aylanani teskari holatida namunada ko'rsatilgan rasmdagidek qilib chiziladi.

6-ish. Ikkala bodom bargini yuqori va pastki qismidan kurtaklar chiqariladi.

7-ish. o'yma zamini "chakichlab" chiqiladi.

Islimiy naqsh namunalarining qolgan (2-9 gul) larini ham shu singari bosqichlarda namunadagi rasmlarga qarab bosqichma-bosqich chizib chiqiladi. (34-41 rasmlar). har bir naqsh namunasini puxta va mukammal o'rganib olish uchun 5-6 martadan takrorlab chizib mashq qilish zarur. Naqsh namunalarini qay darajada puxta bilishingiz keyingi qiladigan ishlaringizda va ijodingizda muhim ahamiyat kasb etadi. Naqshlarni chizish jarayonida har bir chiziqning ravonligiga, nafisligiga va chiroyli chiqishiga e'tibor bergan holda chizish lozim.

II. ODDIY PARGORI NAQSH NAMUNALARINI CHIZISH

Pargori naqshi boshqa naqshlardan o'ziga xosligi bilan tubdan farq qiladi. Undagi naqsh elementlari, tuzilishi, o'yilishi va pardoatlanishi alohida ahamiyatga ega. Pargori naqshi asosan uy-ro'zg'or buyumlarini badiiy jihatdan go'zal va jozibador qilib bezashda qo'llanilgan. Xo'sh, pargori nima? U qanday ma'noni anglatadi? kabi savollar qiziqtirishi tabiiy.

Pargor fors-tojikcha soʻzdan olingan boʻlib, pargor, yaʼni tsirkul demakdir. Pargori naqshlari esa tsirkul yordamida chiziladigan naqsh hisoblanadi. Pargori naqsh kompozitsiyalari ham oʻzining tuzilish mazmuni yoki eng xarakterli tomonlari bilan bogʻlangan holda nomlanadi. Masalan, 10-gul “Kuvacha pargori” deb ataladi. Chunki, u suv, sut va shu kabi suyuqliklarni solish uchun ishlatiladigan boʻgʻzi siqiqroq uzun sopol idish, yaʼni koʻza shaklidagi elementlarning aylana koʻrinishida maʼlum masofada ritmik takrorlanishidan hosil boʻladi. Naqsh turi esa pargori. Shu sababli 10-gulni “Kuvacha pargori” deyiladi.

Pargori naqsh namunalarining qolgan oltitasi ham oʻziga xos tarzda nomlangan, yaʼni 2-gul “Oddiy pargori”, 12-gul “Chor bargli pargori”, 13-gul “Aylanma pargori”, 14-gul “Kosh pargori”, 15-gul “Oy pargori”, 16-gul “Pargori chor bezon” deb nomlanadi. Pargori naqsh namunalarini oʻziga xos qonun-qoidalari asosida va boqichma-bosqich chizishning murakkab jihatlariga eʼtibor qaratishni talab etadi. Chunki, pargori naqshlari mazmun va maʼno jihatidan har tamonlama ulanib, bir-biri bilan uzviy bogʻlangan holda bir butun kompozitsiyani tashkil qilishi mumkin. pargori naqsh namunalarini chizishda ushbu tomonlarini eʼtibordan chetda qoldirmagan holda chizish lozim.

Eʼtibor bergan boʻlsangiz, islmiy naqsh namunalarini chizish davomida gullar bilan hoshiya (ramka) oʻrtasida 1 mm masofa tashlab chizgan edik. Pargori naqshlarida esa gullar hoshiya bilan qoʻshilgan holda chiziladi. Buning boisi, pargori naqshlari yuqorida aytib oʻtilganidek, har tamonlama ulanib, yaʼni toʻrt tomonidan uzviy bogʻlangan holda davom etib ketishidadir. Shunday qilib, pargori naqsh namunalarini chizish bilan tanishib chiqamiz.

10-gul kuvacha pargori (42-rasm).

1-ish. Yordamchi markaziy oʻq chizigʻi chiziladi va oʻq chizigʻiga 2,5 sm boʻlgan umumiy 5 sm ni, hoshiya uchun esa 3 sm boʻlgan umumiy 6 sm ni tashkil qiluvchi parallel chiziqlar oʻtkazamiz va ularni 5 sm dan teng boʻlaklarga boʻlib chiqamiz. Soʻngra har bir kvadrat (5 sm) ni oʻz oʻrnida 2,5 sm dan teng boʻlaklarga boʻlib chiqamiz. Chizish davomida shunga ahamiyat qaratish lozimki, naqsh

namunasini 20 sm dan kam bo'lmashligiga e'tibor berish hamda rasm daftariga joylashtirishda kompanovka qonun-qoidalariga amal qilgan holda qora qalamni bosmasdan engil chizish lozim.

2-ish. har bir kvadrat ichiga diogonal chiziqlari o'tkazamiz.

3-ish. Rasmda ko'rsatilganidek diogonal chiziq'larga parallel va bir xil yo'g'onlikda to'g'ri chiziq, ya'ni band chiziladi.

4-ish. Baddan markaz tomon kuvacha shaklini hosil qiluvchi chiziqlar tortiladi.

5-ish. Kuvacha shakliga o'xshash chiziqlar ichidan bir xil yo'g'onlikni tashkil qiluvchi chiziqlar tortiladi.

6-ish. Kuvacha shaklining to'rttasi birlashtiruvchi markazdan va kuvacha shakli bilan band tutashgan markazdan diometri 1 mm ni tashkil qiluvchi aylana chiziladi.

7-ish. o'yma zamini "chakichlab" chiqiladi.

Pargori naqsh namunalarining qolgan (11-16 gul) larini ham shu singari bosqichlarda namunadagi rasmlarga qarab bosqichma-bosqich chizib chiqiladi (43-48 rasmlar). 5-6 marotaba takrorlab chizish jarayonida pargori naqshlarini jozibasini va go'zalligini xis qilishingiz barobarida, uni puxta va mukammal bilib olishingizda ham qo'l keladi.

III. ODDIY ISLIMIY NAQSH NAMUNALARINI o'YISH.

Ustalar orasida "Usta usta emas, asbobi usta" degan hazilnoma naql bor. haqiqatan ham ishning asosiy qismi turli asbob-uskunalar yordamida amalga oshiriladi. Bu isbot talab etmaydigan haqiqat. Yana ustalarimiz "Asbobing soz bo'lsa, mashaqatning oz bo'lur", "Ishni asbob qiladi, ustasi lof uradi" kabi matallarni bejizga aytmaydilar. Ishning nechog'lik sifatli va ko'rkam chiqishida ustaning mahorati barobarida asbobning sozligiga ham bog'liq.

Musiqqa san'atida bir notaning o'rnida ikkinchi bir notada kuy chalib bo'lmaganidek, chalgan taqdirida ham uning tasirchanlik kuchini yo'qotish va tinglovchini musiqaga bo'lgan mehrini susaytirgani kabi yog'och o'ymakorlik san'atida ham har bir iskananing o'z o'zni, o'zi bajaradigan vazifasi bor. Iskananing sozligi va ustaning mahorati mujassam bo'lgan taqdiridagina kishini hayratga soluvchi ajoyib san'at asarlari yaratish mumkin. Buning uchun hunar o'rganuvchi tolibdan ko'p mashq va mehnat talab etiladi.

o'ymani bajarish uchun 1 ta iskanalar to'plami, yog'och taxtachalar, qora qalam, chizg'ich, o'chirg'ich, jilvir qog'ozi, shaffof qog'oz va boshqalarni xozirlab olish zarur. o'ymani sifatli chiqishida iskanalar bilan bir qatorda yog'och materiallarning sifatiga ham bog'liq. o'ymakorlikda ishlatiladigan yog'och materiallari qattiq, pishiq, puxta, namga va chirishlarga chidamli hamda kam butoq, silliq, to'g'ri va yorilmagan bo'lishi talab etiladi. Dastlab taxtachani kerakli o'lchamda kesib, randalab olingandan so'ng, avval yirikroq, so'ngra esa mayin jilvir qog'ozida jilvirlab tekislanadi. o'yishda yong'oq, o'rik, qora qayin, mirzaterak kabi yog'och materiallari juda qo'l keladi.

Tekislangan yuzaga avvaldan tayyorlab qo'yilgan axta yordamida naksh namunasi tushirilib qora qalamda chizib chiqiladi (49-57 rasmlar). So'ngra naqshning har bir elementini, qismini, turini va guruhini o'yishda "Oddiydan murakabga, osondan qiyinga" tamoyiliga rioya qilgan holda amalga oshirish lozim. Naqshlarning qanaqa guruhlarga mansubligi, o'ymaning yirik yoki maydaligiga qarab, dastlab yarim gajak, gajak, novdalari, tanoblari baliq sirtli iskana bilan kesib chiqiladi. hoshiyaning chetlari esa kurakcha iskana yordamida kesiladi. Naqsh atrofi to'liq kesib bo'lingach, maxsus uchi egik iskana bilan naqshning zamini o'yilib chuqurlashtiriladi. Uyma zaminining tekislashda esa to'g'ri iskanalardan foydalaniladi. Islimiy naqshlari 0,5 sm dan 1 sm gacha bo'lgan chuqurlikda o'yib, so'ngra chakichlanadi.

o'yma to'liq bajarib bo'lingach, naqsh turiga mos pardozi turi tanlanadi. Biz o'yayotgan 9 ta yo'l ichidagi oddiy islamiy naqsh namunasi deyarli pardozi

murakkab turlari uchramaydi, faqatgina chizma pardozi bilan chegaralaniladi. o'yish sir-asrorini o'rganayotgan tolibga dastlab o'yishni puxta egallab olishi, so'ngra pardozi pax (yoyma), choka (yorma), lo'la va tabaqa turlaridan bemalol foydalanishlari mumkin.

IV. ODDIY PARGORI NAQSH NAMUNALARINI O'YISH.

Pargori naqshi islamiy naqshiga qaraganda ancha murakkab bo'lib, ustadan ancha ko'p mehnat, sabr-toqat va chidamni talab etadi. Pargori naqshini o'yishda avvalgi ustalarimiz axtani o'yiladigan yuzaga qo'yib, ustidan qalam, tsirkul va chizg'ich yordamida chizib o'yishar yoki axtani o'yiladigan yuzaga qo'yishgandan so'ng, axta ustidan kurakcha iskana yoki keskich bilan kesib yuzaga tushirishar va o'yishar edi. Bu esa o'ziga xos qiyinchilik olib kelar va o'ymani sifatiga putur etkazardi.

Uymakor ustalar bugungi kunda axtani igna bilan teshib, xoka yordamida o'yiladigan yuzaga tushirib, so'ng qora qalamda chizib chiqidilar. Bu o'ymaning sifatli, jozibador va ko'rkam chiqishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Yog'och o'yimakorligiga oid yo'l ichidagi oddiy pargori naqsh namunalarini o'yishda islamiy naqshlarini o'yganimiz singari amalga oshiriladi. Yog'och materiallardan yong'oq, o'rik, olma, qora qayin, mirzaterak va shumtol kabilar o'zining sifatli bilan ajralib turadi. Ushbu daraxtlardan olingan taxtachalarni kerakli o'lchamda kesib, randalab jilvirlanadi.

Tekislangan yuzaga axta va xoka yordamida naqsh namunasini tushirilib qora qalamda chizib chiqiladi (58-64 rasmlar). o'yish jarayoni islamiy naqshlarini o'yish bosqichi singari amalga oshirilib, dastlab yarim gajak, gajak va bandlari kesib chiqiladi. Pargori naqshini o'yishda asosan 5 xil asbob ishlatiladi. Naqsh atrofni kesib chiqishda nova iskana, baliq sirti iskana va to'g'ri iskana ishlatilsa, zaminini o'yib tekislashda zamin iskana ishlatiladi.

Pargori naqshlarining zaminini chakichlashda chekma iskanalarga nisbatan chekma qalamlar ko'proq ishlatiladi. Chakishlash jarayonida chekma qalam tig'ini o'ymaga tik ushlagan holda urib chiqilsa, bir xil ko'rinishga ega bo'ladi, nafisligi va jozibadorligi oshadi. Odatda pargori naqshlari 1,5 mm dan 3 mm gacha o'yiladi. Bu pargori naqshining o'ziga xos tomonlaridan biri hisoblanadi.

Uymani bajarish davomida har bir iskanani ehtiyotkorlik bilan o'z o'rnida va o'rinli ishlatishni o'rganish lozim. Bu esa o'yilayotgan yuzaning sifatli, ko'rkam va jozibador chiqishiga olib keladi. Iskanalarni ishlatib bo'lgach noto'g'ri joyga qo'yish, bir-biriga urintirish asbobni tezda o'tmas bo'lishiga olib keladi va o'yma sifatiga putur etkazadi. Iskanalarni maxsus tayyorlangan qutichalarda yoki yumshoq latta materialga o'ragan holda saqlash kerak.

Iskanalarning sifatli saqlanishi va uzoq muddat ishlashini ta'minlash uchun o'yish jarayonida iskana tig'ini kir yuvish sovuniga vaqti-vaqti bilan botirib turish zarur. Kir sovunida mavjud bo'lgan yog' iskanani taxtachaga urgan vaqitda birinchidan tishlashib qolmasligini ta'minlasa, ikkinchidan naqsh elementlarini ko'chib ketishini oldini oladi va sifatli chiqishini ta'minlaydi.

T A Y a N C h T U S h U N C h A L A R:

DIAGONAL (ruscha < lotincha) – kvadrat yoki ko'pburchakning qo'shni bo'lmagan ikki burchagini yoki ko'p burchakning ikki uchini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq.

DIAMETR (ruscha < grekcha) – aylana yoki sharning markazidan o'tib, uning ikki nuqtasini birlashtiruvchi to'g'ri chiziq.

KVADRAT (ruscha < lotincha) – teng tomonli to'g'ri burchak.

KUVA – bo'g'zi siqiqroq uzun sapol idish (suv, sut va shu kabi suyuqliklar solish uchun ishlatiladi).

PARALLEL (ruscha < lotincha) – 1). Bir tekislikda yotgan va o'zaro sira kesishmaydigan; muvoziy, yondosh.

2). Bir tomonga qarab yo'nalgan va bir-biridan deyarli teng uzoqlikda yonmayon joylashgan.

3). o'zaro yondosh chiziqlarning har biri.

RAFTOR (fors - tojikcha) – hatti-harakat, yurish-turish, qadam olish.

RITM (ruscha < grekcha) – biror xodisa yoki ish-harakat elementlarining ma'lum tartibda va ma'lum vaqt oralig'ida o'lchovli ravishda bir tekis takrorlanib turishi va shunday takroriylikning o'zi.

TOLIB (arabcha) – 1). Talabi bo'lgan, talabgor.

2). Madrasa o'quvchisi; o'quvchi.

TsIRKUL (ruscha < lotincha) – aylana, doira chizishga, chiziqlar uzunligini o'lchashga xizmat qiladigan asbob, pargor.

ChORAK (fors - tojikcha) – to'rt dan bir ulush; teng to'rt bo'lakning har biri.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN

SAVOLLAR:

1. Naqsh elementlarini qaysi guruhlarga ajratish mumkin?
2. Naqsh nimalarning birlashuvidan tashkil topadi?
3. Yog'och o'ymakorligiga oid oddiy naqsh namunalarining soni nechta?
4. Yog'och o'ymakorligiga oid oddiy naqsh namunalari qanday naqsh turlaridan tashkil topgan?
5. o'ymakorlikka oid oddiy islamiy naqsh namunalarining soni nechta?
6. o'ymakorlikka oid oddiy pargori naqsh namunalarining soni nechta?
7. 16 ta naqsh namunalarining nomini bilasizmi?
8. Naqsh namunalarini chizish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?
9. o'ymani bajarishda avval qanday ishlar amalga oshiriladi?

10. Chakishlashda ishlatiladigan qanday asboblarning nomini bilasiz?
11. o'yma zamini qaysi iskana yordamida o'yiladi va tekislanadi?
12. o'yish bosqichlari qanday amalga oshiriladi?

ZAMONAVIY INSHOOTLAR VA ULARDAGI Yoo'OCh O'YMAKORLIGI

Vatanimiz Mustaqillikka erishgandan so'ng har jabhada ijobiy o'zgarishlar, yuksalishlar sari borayotganimiz quvonarli holdir. Milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, ota-bobolarimiz qolidirgan boy merosni qadriga etish va ulardan o'z hayotimizda, faoliyatimizda unumli foydalanish, ularning ruhi har doim bizga madadkor ekanligini dildan his qilib turish bugungi biz erishgan va erishayotgan yutuqlarimizning garovi ekanligini qayd etib o'tishimiz joiz bo'lmasa kerak. Chunki bugungi kunga kelib hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bir qator xayrli ishlarni ta'kidlab o'tish kishi ruhiyatida faxrlanish tuyg'usini uyg'otadi.

1997 yil 29 avgust kuni Oliy Majlisning navbatdan tashqari IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Jonun va "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi", shuningdek, "Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi kabi Farmonlari yoshlarni milliy iftixor, milliy g'urur tuyg'ulari bilan tarbiyalashga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda nafaqat ta'lim, savdo-sotiq, fan va texnika balki milliy hunarmandchiligimizda ham salmoqli yutuqlarga erishmoqdamiz. Milliy hunarmandchiligimiz hattoki davlat siyosati darajasigacha ko'tarilib, nga alohida e'tibor bilan yondashilayotgani bugungi kunda sir emas.

Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan obidalar, asori-atiqalarni qayta ta'mirlash, ularga qaytadan jon, joziba va go'zallik baxsh etish, qolaversa bizdan

uzoqlashtirilgan, umuman begonaga aylantirib qo'yishga qilingan harakatlar oralig'idagi pardalar ko'tarilib haqiqat yana qayta qaddini rosladi. Yana o'z yurtiga Alpomish, Al-Buxoriy, Al-Farg'oniy, Amir Temur va yana ko'plab bizning bobokalonlarimiz qaytishdi. Ularning ruhi poklarini shod qilish, qolaversa keyingi avlodlarga etkazish maqsadida qurilgan betimsol yodgorliklar, asori-atiqalar fikrimizning yorqin misolidir.

Ma'lumki, o'tmishda halq o'rtasida amaliy san'at turlari bo'ladimi, kosibchilik yoki hunarmandchilik bo'ladimi barchasi "ustoz-shogird" an'analari asosiga qurilgan. Ushbu an'analar otadan-bolaga, boladan-otaga o'tib rivojlanib keldi va xalq san'atining u yoki bu turli hozirgi kunda ham uning rivojiga munosib xissa qo'shib kelmoqda. Bugungi kundagi rivojlanish va taraqqiyot zarurati bois zamonaviy kasb-hunar maktablari, litseylari, kollejlari ko'rinishda sohalar bo'yicha professional ustalar tayyorlamoqda. XX asrning 90 yillariga kelib tarqoq holda ijod bilan shug'ullanayotgan professional ustalarning ko'pligi qismi birlashtirilib turli markaz va uyushmalar qoshida o'z ijodiy izlanishlarini olib bormoqdalar.

Shu yillarda Respublika maxsus ijodiy-ishlab chiqarish "Usto" birlashmasi, "Musavvir" va "Hunarmand" ilmiy-ishlab chiqarish markazlarining tashkil topishi ayni muddao bo'ldi. Chunki, "Usto" birlashmasi a'zolari Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yirik-yirik inshootlar va qurilishlarda o'z ijodlari bilan ishtirok etib, binolarni badiiy jihatdan bezak ishlari ruhiyatni ko'tarib kelishayotgan bo'lsalar, "Musavvir" va "Hunarmand" ilmiy-ishlab chiqarish markazlari a'zolari o'z ijod namunalari mazkur markaz orqali tarqatadilar. Shu tariqa markaz ustalarga metodik yordam ko'rsatadilar, ularning ijod namunalari omma orasida, shuningdek, Respublika va xorij davlatlarida bo'ladigan yirik ko'rgazmalarda, tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlaydi va targ'ib qiladi. Ushbu markazlar tufayli bugungi kunda qator ustalarimizning ijod namunalari xorij muzeylaridan va shaxsiy kolleksiyalardan o'rin olib kelmoqda.

Xozirgi kunda yog'och o'ymakorligi san'ati o'zining o'tmishdagi movqeini qayta tiklab, poytaxtimiz Toshkent shahrida va Respublikamiz viloyatlarida hamda Joraqalpog'iston Respublikasining boshqa yirik shaharlarida bunyod etilib

foydalanishga topshirilayotgan yoki qayta ta'mirdan chiqarilayotgan ko'plab diniy va dunyoviy xarakterdagi inshootlarda o'z aksini topib kelmoqda. "Usto" birlashmasi a'zolaritomonidan so'nggi yillarda ko'plab yirik ob'ektlarqurilib, binolarningeshigi, darvozasi va ustunlari yog'och o'ymakorligi san'atiningeng so'nggi yutuqlaridan keng-ko'lamda foydalanilgan holda go'zal va jozibador qilib bezatmoqdalar. Masalan, 1989-92 yillarda Rossiyaning Voronij va Moskva shaharlaridagi "O'zbekiston" va "Namangan" savdo majmualari; 1993 yilda O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining qabullar uyi, Bekobod shahridagi metallurgiya kombinatining oromgohi; 1994 yilda "Yunusobod tennis" korti, "Turkiston" kontsert zali va "Algoritm" zavodi; 1995 yilda O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi binosi; 1996 yilda Temuriylar tarixi Davlat muzeyi; 1997 yilda Oliy Majlisning yangi binosi, "Guliston" sport majmuasi; 1996-98 yillarda Toshkent shahar hokimligining yangi binosi, O'zbekiston Prezidenti Apparating Matbuot markazi; 1998-99 yillarda O'zbekiston Prezidentining "Oq saroy" qarorgohi, Davlat "Tsirk"i binosining eshigi, "Xotira va Jadrlash maydoni" majmuasi, "Sheraton-Toshkent" mehmonxonasi; 2000 yilda O'zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi binosi, O'zbekiston Respublikasining Hindiston, Germaniya, Malayziya (1993 yilda) davlatlaridagi elchixonalarining binolari, shuningdek, Toshkent shahri Saylgoh ko'chasidagi choyxona ayvoni, Samarqand shahridagi Imom al- Moturudiy majmuasini, Chelak tumanidagi Imom al-Buxoriy majmuasini, Bulung'ur tumanidagi Juma masjidini, Farg'ona viloyatidagi Ahmad al-Farg'oniy majmualari shular jumlasidandir.

Yuqoridagi inshootlarda yog'och o'ymakorligi asosida darvozalar, eshiklar, derazalar, ustunlar va peshtoqlar o'ziga xos kompozitsion echimga ega bo'lgan ajoyib asori-atiqalar bilan bezatilgan. Poytaxtimiz Toshkentdabunyod etilgan Oliy Majlisning yangi binosi uchun ishlangan eshiklar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bino eshigini ishlagan ustazoda, ya'ni N. Ibragimovning qizi M. Ibragimova yog'och o'ymakorligi san'atining o'ziga xos namunasini yaratishga erishgan. Oliy Majlis binosining eshigi uchun maxsus subtiropik zona Malayziyadan keltirilgan palma daraxti yog'och xom-ashyosidan tayyorlangan bo'lib, eshikka bezak berishda o'simliksimon (islimiy) va zanjira naqsh kompozitsiyalaridan foydalangan.

Samarqand shahridagi Registon maydonidan uncha uzoq bo'lmagan joyda Hazrat Imom al-Moturudiy Kabristonida bunyod etilgan maqbara o'ziga xosligi, yog'och o'ymakorligining zamonaviy motivlari bilan boyitilganligi alohida ahamiyatga molikdir. Maqbaraning ichkarisiga uchta ikki tabaqali eshik orqali kirilib, har bir eshik o'ziga xos tarzda go'zal did va mahorat bilan o'yma bezaklarda ishlov berilganligining guvohi bo'lamiz. Eshiklar uchun mahalliy materiallardan biri chinor tanlanib, eshiklarga uning tabiiy gullari o'zgacha bir joziba baxsh etib turibdi. Eshiklar yog'och o'ymakorligining Samarqand maktabiga xos uslubda bezatilgan bo'lib, bir qavatli o'yma va tabaqa pardoz turidan keng foydalanilgan.

Toshkent shahrida bunyod etilgan "Xotira va Jadrlash maydoni" kompleksi 1941-45 yillarda Germaniya bilan bo'lib o'tgan ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan vatandoshlarimiz, ularning yorqin xotirasini abadiylashtirish maqsadida bunyod etilgan ajoyib san'at namunasidir. Loyiha mualliflari barcha viloyatlarning o'ziga xosligini ko'rsatishga harakat qilganlar.

Ushbu majmua milliy hunarmandchiligimizning yog'och o'ymakorligi san'ati bilan bezatilgan bo'lib, bir-biriga qarama-qarshi joylashgan ayvonlardan iborat. Har ikki ayvonda ham 21 tadan o'yma ustun o'rnatilgan. Ustunlarning 17 tadani bir qatorga o'rnatilgan bo'lib, marhumlarning nomi zikr etilgan zarhal "kitoblar" o'rnatilgan devorining ikki tomoniga 2 tadan 4 ta o'yma ustun o'rnatilgan. Ushbu majmua Respublikamizning har bir viloyatlari, Toshkent shahri va Joraqalpog'iston Respublikasi uchun alohida-alohida pavilonlar ajratilgan bo'lib, har bir viloyatning o'ziga xosligini ko'rsatishga intilganlar.

Majmua "to'rida" o'tirgan motamsaro Onaning o'ng tomonidagi bo'lim Toshkent shahridan urushga ketgan jangchilarning nomlarini zikr etish bilan boshlanadi. Ustunlar o'ymasi bir qavatli islami naqshlardan tashkil topgan. Pardoz turining choka (yorma) va tabaqa turlaridan unumli foydalanilgan. Naqsh kompozitsiyasini asosan bandlar va gullar tashkil etadi. Keyingi bo'limlar Xorazm va Toshkent viloyatlariga ajratilgan bo'lib, naqsh kompozitsiyasi o'ziga xos bo'lsada, o'ymani bajarish va pardoz turlari deyarli bir xil uslubda bajarilgan. Surhandaryo va Sirdaryo bo'limlari esa o'ziga xos bo'lib, o'ymasining chuqurligi, naqsh

kompozitsiyasini barglar, bargli gullar tashkil etadi. Choka va tabaqa pardo turlaridan unumli foydalaniogan.

Samarqand va Jashqadaryo bo'limlarida ham avvalgi bo'limlardagi kabi naqsh kompozitsiyasi barglar va bargli gullardan tashkil topgan bo'lsada, pardo turlarining pax, lo'la va tabaqa turlaridan keng foydalanilgan.

Ayvonning ikkinchi tomonidan Joraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Farg'ona, Jizzax, Namangan va Navoiy viloyat bo'limlari joy olgan bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Joraqalpog'iston Respublikasi, Andijon va Buxoro viloyati bo'limlaridagi ustunlar 1 qavatli o'yma, kam zaminli, uncha chuqur bo'lmagan va naqshning islimiy turidan tashkil topgan. Jolgan bo'limlarda 2 qavatli o'ymadan o'ta nozik did bilan foydalanilgan bo'lib, naqsh kompozitsiyasini asosan barglar va bargli gullar tashkil qiladi. Pardozning barcha turlaridan unumli foydalanilgan.

Majmuani har ikki tomonidagi ustunlarning poyustuni, o'rta qismi va yuqorisi, ya'ni muqarnasi bir xil ko'rinishda tanlanib o'ziga xos go'zallik kashf etib turibdi. Shunga qaramay, majmuada O'zbekiston yog'och o'ymakorligining ilg'or an'alarini amalda qo'llay bilganlar. Ayvonning xarilari, to'sinlari, peshtoqlari, kalvamlari (qoshlari) va vossalarini bezashda yog'och o'ymakorligining go'zal namunalaridan keng foydalanilgan. Shunday bo'lsada naqshlar tekislikning sirtini butkul qoplamay, lavhlarlarda amalga oshirilgan. Ustunlarning bo'yi 2,5m x 3m qilib tanlab olinganligi ayvonlarning umumiy balandligiga hamohang tushib, ular bir muncha engil va nozikligi bilan e'tiborga molik. Navoiy viloyati bo'limiga o'rnatilgan ustunlarning birida "Asadov Mirjalol. Samarqand. 1999 yil" degan yozuvni uchratishimiz mumkin.

"Xotira va Jadrlash maydoni" majmuasi mustaqillik maydonidagi ochiq maydonda joylashgan. Kompleksning atrofidagi tabiat manzarasi bilan bog'liqligini saqlab qolish maqsadida, undagi xarilar, to'sinlar, peshtoqlar, kalvamlar ("qoshlar"), vassajo'stlar va boshqa qismlar uchun o'simliksimon, ya'ni islimiy naqsh turlari tanlab olingan va amalga oshirilgan. Shu orqali mualliflar tabiat bilan majmua orasidagi o'zaro uyg'unlashuvini saqlab qolishga muvaffaq bo'lganlar.

Ushbu majmuadan farqli o'laroq Samarqand viloyatining Chelak tumanida qad rostlagan Imom al-Buxoriy majmuasida boshqacharoq manzarani kuzatamiz. Mazkur me'moriy kompleks o' o'z navbatida naqqoshlik, ganchkorlik, toshtaroshlik va yog'och o'ymakorligi san'atining uyg'unlashuvidan bunyod etilgan o'zbek me'morchiligining yorqin namunasi.

Masjid-majmuadagi yog'och o'ymakorligi asarlarini yuqoridagi "Xotira va Jadrlash maydoni" kompleksida bo'lgani kabi, ustunlar, peshtoqlar hamda 3,60 x 5,5 metr o'lchamdagi katta darvoza tashkil etadi. Darvozani M.Abrorov boshliq yog'och o'ymakor ustalar guruhining ijod namunasi bo'lib, u yog'och o'ymakorligining oddiy pardoiz turlaridan "choka (yorma)" pardoiz va murakkab pardoiz turlaridan "Lo'la" pardoiz turlaridan unumli foydalanganlar.

Ushbu komplekslarda nafaqat Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabi, balki Respublikamizning boshqa viloyatlari -- Samarqand, Xiva, Jo'qon yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik maktablari vakillari qatnashishlari natijasida ko'pgina usullar aksariyat hollarda bir-biri bilan uyg'unlashib keyinini ko'rishimiz mumkin.

O'tgan asrning 90 yillarida bunyod etilgan masjid-majmualardan yana biri Samarqand viloyatining Bulung'ur tumanidagi Juma masjididir. Mazkur masjid-majmua tarhidan tortib uning bezaklarigacha mukammal texnik ishlovi va kompozitsion echimi o'ziga xos tarzda bunyod etilgan. Masjid-majmuadagi eshiklar, ustunlar va derazalar yog'och o'ymakorligining so'ngi an'analari asosida go'zal va jozibador qilib bezatilgan. Ushbu masjid-majmuaga uyg'un holda qurilgan xujralar umumiylikni yaxlitini tashkil qilib turibdi. Bu kompleksning poydevoridan tortib bezak ishlarigacha Jo'qonlik usta Bahridin Ahmedovning farzandlari Mirsaid Bahridinov va Muhammadyusuf Ahmedovlar boshchiligida qurib bitkazilgan. Masjidning uch tomoni o'yma ustunli ayvon va uch tomonida 3 ta o'yma eshiklar, shuningdek derazalar ham yog'och o'ymakorligi bilan o'ziga hos qilib bezatilgan. Masjidga hamohang holda qurilgan hujralar old ayvoni o'yma ustunli qilib qurilgan.

Masjid qadimiy qo'sh araqi sorrovli va vassajuftli qilib qurilgan yanada salobat, ko'rkamlik va jozibadorlik kasb etib turibdi. Naqsh kompozitsiyalarining bejirimligi, mukammal texnik ishlovi, monumentalligi, o'ymalarning chuqurligi,

yirikligi Jo'qon yog'och o'ymakorligi maktabining yorqin namunasidir. O'yma ustunlar, eshiklar va derazalarga o'simliksimon-islmiy naqsh kompozitsiyasi tanlanib, buyumga mosligi, har biri betakror kompozitsion echimga ega ekanligi bilan diqqatga sazovordir. O'ymaga hamohang tarzda tanlangan "pax (yoyma)" va "tabaqa" pardoz turidan unumli foydalanganlar.

Bugungi kunda zamonning rivojlanib borishi, zamonaviy sayyohlikning rivojiga olib keldi, natijada sovg'abop buyumlar ishlab chiqarish ommaviylashdi. Bu borada "Musavvir" ilmiy-ijodiy-ishlab chiqarish markazining ulushi beqiyos. Markazning yog'och o'ymakor ustalaridan - O.Fayzullaev, A.Azlarov, E.Aliev, A.Saydaliev, Z.Alimboev, S.Raxmatillaev M.Jalolov, H.G'aniev va boshqalarning hissasi katta. Yuqorida nomlari zikr etilgan ustalarning ijod namunalari nafaqat respublikamizda, balki xorij ko'rgazmalarining faol ishtirokchisiga aylanib ulgurgan. Shu bilan birga Germaniya, AJSh, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Belgiya, Yaponiya, Turkiya, Hindiston, Pokiston va boshqa o'nlab mamlakatlardagi muzeylardan va shaxsiy kolleksiyalardan joy olgan.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish joyizki, A.Azlarovning maishiy xarakterdagi asarlari o'zining naqsh kompozitsiyasining bejirimligi, mukammal texnik ishlovi bilan boshqa ustalarining asarlaridan keskin ajralib turadi. Usta qanaqa yog'och xom-ashyosidan ishlamasin, yog'ochning tabiiy ko'rkamligi va fakturasinisaqlab qolishga harakat qilishi tahsinga sazavor. Azlarovning yana bir uslubi shundan iboratki, u ba'zi asarlari ustida ishlayotganda yog'ochningsirti to'q qoramtir-jigarranggabo'yab ishlov berishidadir. Yog'ochning sirtiga naqsh o'yilganda esa, undagi qoramtir tus bilan yog'ochning o'yilgan och-qizg'ish rangi bir-biriga qarama-qarshi bo'lib, asarning jozibadorligini, ko'rimgililigini va go'zalligini yanada oshiribkishi ruhiyatiga taskin beradi, asabini tinchlantiradi. A.Azlarov o'zi yaratgan betakror san'at asarlari, tinimsiz va mashaqqatli mehnatlari evazigahar yili Respublikamizda o'tkaziladigan xalq hunarmandchiligining "Tashabbus-2000" ko'rik tanlovining g'olibi bo'ldi.

Ko'rinib turibdiki, zamonaviy inshootlarda qo'llanilayotgan san'at turlari va aynan Respublikamizning bosh maydonidagi bunday yodgorlikni faqat yog'och o'ymakorligi bilan bezatilishi ushbu san'at turining bugungi kunda gurkirab

rivojlanib borayotganligidan dalolat berib turibdi. Yog'och o'ymakorligining bugungi kundagi bunday yutuqlarga erishuvida bir necha shogirdlarning ustози, 1973 yildan Rassomlar uyushmasining a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Respublika Badiiy Akademiyasining faxriy akademigi Ortiq Fayzullaevning qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Ortiq Fayzullaev 1933 yil 1 mayda Toshkentda tug'ildi. Uning yoshligidan she'riyatga, musiqaga va amaliy san'atga bo'lgan qiziqishi 1952 yilda P.P.Benkov nomidagi Badiiy bilim yurtiga boshlab keldi. Bilim yurtida u taniqli yog'och o'ymakorligi ustasi Maqsud Josimov qo'lida tahsil oldi. O.Fayzullaev 1957 yili yoshlar festivalida o'zining kursi, quticha va boshqa asarlari bilan ishtirok etib, "Jahonga tinchlik" pannosi uchun "Festival lauriyati" unvonini oldi. U o'zi ustida tinmay ishladi, izlandi. Buning natijasida u "O'zbekiston" mehmonxonasini, "Moviy gumbazlar" inshootini bezashda faol ishtirok etdi.

O'ymakor rassom Ortiq Fayzullaev Respublikamizdagi ko'plab zamonaviy inshootlarni, eng yirik ma'muriy binolarning badiiy jihatdan jozibador va go'zal qilib bezashda ishtirok etdi. U Respublikamizning adabiyot va san'at muzeyini, xozirgi tarix muzeyini, Toshkentdagi san'at saroyini, "O'zbekiston" teploxodining kafesini, Kislovodskiydagi "O'zbekiston" sanatoriyasini, Parkent tumanidagi Chotqol qo'riqxonasining tabiat muzeyini, Jarshi shahridagi muzeylardan birini, poytaxtimizdagi Toshkent mehmonxonasini, Vazirlar kengashi bog'ini badiiy bezashda yog'och o'ymakorligining uzoq asrlik boy an'alaridan keng foydalanilgan holda ularni aynan qaytarmasdan zamonaviy ruhga monand yangi jilo va bezaklar bilan boyitadi.

"...Vazirliklar kengashi bog'idagi yog'och o'ymakorligi ishlari, bir qarashda an'anaviy islmiy ishlarni eslatadi. Shu bilan birga undagi detallarning nisbatlari, chiziqlari o'ynoqiligi, ularning harakati oraliq'iga naqsh uchun tanlangan chuqurlik, yirik detallar ritmikasing munosibligi asarga alohida joziba bahsh etgan. Ijodkorning an'anaviy naqsh o'ymakorligiga yangicha realistik detallarni kiritishga intilishi uning "Xalq ustalari" va ayniqsa, "Anor" naqsh kompozitsiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. "Anor" kompozitsiyasida tasvirlangan anor shoxi va undagi meva,

qushlar tasviri bir tomondan real ko'rinishini ifodalasa, ikkinchitmondan, tasvirdagi shartlilik, afsonaviylikka intilishi butun kompozitsiyaga alohida husn va joziba bag'ishlaydi". (S.S.Bulatov, O'zbek xalq amaliy bezak san'ati.-T.: "Mehnat", 1991, 237-bet).

Ortiq Fayzullaev o'ymakorligining murakkab turlaridan biri hisoblangan panjara san'ati bilan qiziqib bu borada ham salmoqli yutuqlarga erishgan. Mixsiz, elimsiz ishlanadiganpanjara ijodkordan g'oyat katta iste'dod, chidam va matonat talab qiladi. Panjaradagi detallarning har birida yuksak darajadagi matematik aniqlik lozim. Usta 1962 yilda yaratgan uch tabaqali panjarali shirmaning har bir tabaqasi tqrt bo'lakka ajratilgan bo'lib, bularning uch bo'lagida panjara ishlangan. Ustaning panjara uchun oqish yog'och hamda chekkasi qoramtir-jigarrangga bo'yab ishlov berishidir. Yog'ochning sirtiga naqsh o'yilganda esa, undagi qoramtir tus bilan yog'ochning o'yilgan och-qizg'ish rangi bir-biriga qarama-qarshi bo'lib, asarning jozibadorligini, ko'rkamligini va go'zalligini yanada oshirib kishi ruhiyatiga taskin beradi, asabini tinchlantiradi. A.Azlarov o'zi yaratgan betakror san'at asarlari, tinimsiz va mashaqqatli mehnatlari evaziga har yili Respublikamizda o'tkaziladigan hunarmandlarning "Tashabbus-2000" ko'rik tanlovining g'olibi bo'ldi.

Chunonchi, Ortiq Fayzullaev o'rining asarlarida an'anaviy o'simliksimon naqsh kompozitsiyalari bilan birgalikda qanday-geometrik naqsh kompozitsiyalariga ham keng o'rin berib ko'plab yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Usta Ortiq Fayzullaev hozirgacha 100 dan ortiq ko'rgazmalarda ishtirok etib kelayotganligi ustaning tinmay izlanishda ekanligidan dalolat berib turibdi. U 1994 yili Pokistonda 46 musulmon mamlakatlaridan ishtirok etgan amaliy san'at ustalari festivalida qatnashib faxrli to'rtinchi o'rinni egallab qaytdilar. Ortiq Fayzullaevga 1995 yil 26 oktyabrda Toshkent shahrida o'tkazilgan birinchi respublika xalq amaliy san'at yarmarkasida "Xalq ustasi" sertifikatini berildi.

El tahsiniga sazovor mohoratli usta Ortiq Fayzullaev bugungi kunda Respublika Rassomlik kollejida yoshlarga o'ymakorlik san'ati sir-sinoatlarini o'rgatib kelmoqda. Ustaning ta'limini olgan Ergash Aliev, Botir G'aniev, Abduvosiq Saydaliev, Mirza Najmiddinov, Rahim Malikov kabi shogirdlari bugungi kunda

o'zlarining ajoyib asarlari bilan o'ymakorlik san'ati rivojiga munosib hissalarini qo'shib qilmoqdalar.

Ortiq Fayzullaev yaratgan san'at asarlari nafaqat respublikamiz muzeylarida, balki Yaponiya, Germaniya, Turkiya, Polsha, Finlandiya, AJSh, Buyuk Britaniya, Pokiston kabi chet el ko'rgazmalarida ham namoyish etib kelenmoqda, shuningdek shaxsiy kolleksiyalaridan o'rin olmoqda.

Yog'och o'ymakorligining har bir maktabi o'ziga xosligi, o'yish va pardozi usullari, naqsh kompozitsiyasining yangi-yangi ijodkor ustalarining etishib chiqayotganligi bilan bog'liqdir. Jo'qon yog'och o'ymakorlik maktabida ham bugungi kunda Xusan Umarov va Tesha Ismoilov kabi iste'dodli o'ymakor ustalar etishib yoshlarga hunar sirlarini sidqi dildan o'rgatib kelmoqdalar. Jo'qonlik shunday ustalardan biri Bahridin Ahmedovdir.

Bahridin Ahmedov 1929 yil 1 iyunda Farg'ona viloyati Beshariq tumani "O'zbekiston" jamoa xo'jaligiga qarashli Yangi qishloq qishlog'ida dunyoga keldi. (1-rasm). U dastlabki hunarmandchilik sirlarini otasi Mirzomahmud Ahmedovdan o'rgandi. Mirzomahmud ota o'sha davrning etuk duradgor ustalaridan bo'lib, o'zi amalga oshirayotgan har bir ishda yangi biror usul qo'llashga intilardi. Bino shiftini araqi, qo'sh araqi, araqi sarrov yoki qo'sh sarrov usulida bezamasin, ularga o'yima bezaklar bilan jilo berishni hush ko'rardi. Uning eng yaqin yordamchisi o'g'li B.Ahmedov edi.

Yosh ustozoda otasi bajarayotgan har bir ishni sinovchanlik bilan kuzatar, uning tub mohiyatini tushunib etishga intilardi. U 16 yoshida birinchi bo'lib mustaqil ravishda kolxoz klubi binosini qurib bitkazadi va xalq orasida "usta" degan nom oladi. Shundan so'ng o'zi mustaqil ravishda katta kichik bino va inshootlarni qurishiga boshchilik qilib go'zal va bejirim ko'rinishda bezay boshladi.

Ayniqsa, uning xayotida 1978 yili jamoa xo'jaligi hududidan o'tgan Tiyan-shan tog' tizmalarining adrligida qurila boshlagan "Bog'u bo'ston" choyxonasi alohida sahifa bo'ldi. B.Ahmedov ushbu choyxona qurilishida duradgorlik va yog'och o'ymakorligi bo'yicha boshchilik qilib, choyxona ayvoniga 12 metr uzunlikda araqi-sarrov tortib o'ziga xos go'zal asar namunasini yaratadi. Ayvon

o'yma bezakli ustunlar, choyxonaga kirish uchun 1 ta asosiy va 2 ta qo'shimcha eshiklarni yog'och o'ymakorligining yangi motivlari bilan boyitgan holda bezaydi.

“Bog'u bo'ston” choyxonasi har jihatdan xalq e'tiborini qozonadi. Uning ochiq va sof havoda bunyod etilganligi, tarhining va bezatilishining o'ziga xosligi bir-biri bilan uyg'unlashgan aniq bir kompozitsiyani tashkil qiladi. Shundan so'ng 1980-82 yillarda B.Ahmedov Besh-ariq shahrida aylana tarhli “Murabbiylar” choyxonasini gir aylanasi o'yma ustunli, araqi sarrovli ayvonni badiiy jihatdan nafis va go'zal qilib bezaydi.

1983-84 yillarda Farg'ona viloyati Agrosanoat birlashmasi oshxonasining ayvonini va Besh-ariq tuman paxta tozalash zavodining choyxonasini o'yma bezaklar bilan bezagan bo'lsa, 1984-86 yillarda Jizzax viloyati Zomin tumanidagi Jome' masjidi va “Sayqal” choyxonasini milliy ruhda, qadimiy an'analar asosida yog'och o'ymakorligining yangi, o'ziga xos yo'nalishida bezatadi. Bahriddin Ahmedov “Sayqal” choyxonasining tarhini rejalashtirishda ham mualliflarga yaqindan yordam beradilar. Ushbu choyxonaning tarhi betakror me'moriy inshootlardan biriga aylanib, xalqning sevimli oromgohlaridan biri bo'lib qolishida o'zining munosib hissasini qo'shadi. Choyxonada 15 ta ustun, 1 ta asosiy va qo'shimcha eshiklar o'yma bezaklar bilan bezatilgan.

Ahmedovning yutuqlaridan biri, u boshchiligida qurib bitkazilgan har bir inshootning tarhidan tortib uni qurib bitkazgunga qadar bosh-qosh bo'lib, yangi-yangi uslublarda bezatishga qiziqishi, hoh u duradgorlik bo'lsin, hoh u o'ymakorlik bo'lsin bir marotaba amalga oshirgan uslubdan voz kechishi, betakror san'at asarini bunyod etishga intilishidadir. Buni “Sayqal” choyxonasida qo'llagan ko'p qavatli araqi sarrovlardan ajoyib san'at asarini yaratganligida ko'rishimiz mumkin. Ushbu choyxonaning ayvoni texnik jihatdan mukammal, estetik jihatdan go'zaxal, ko'rkam va jozibador chiqqan. B.Ahmedov qayerda va qanday ishni amalga oshirmasin u ustazoda usta degan muqaddas nomni oqlashga intiladilar.

Bahriddin Ahmedov har bir ishni amalga oshirar ekan did bilan, chin ko'ngildan bajarish uchun harakat qiladi. O'zi qurib bitkazgan inshootlarda olib borgan bezak ishlarida o'ymaga mos pardozi turini tanlab, yangicha talqinda

bajaradilar. O'ymakorlikda mavjud bo'lgan pardoz turlarining barchasidan unumli va o'z o'rnida foydalaniladi. "Pax (yoyma)", "Choka (yorma)", "Lo'la" va "Tabaqa" pardoz turlaridan qo'llab ajoyib go'zallikka erishmoqdalar.

Bugungi kunda ustaning farzandlari Mirsaid Bahriddinov va Muhammadyusuf Ahmedov, shogirdlari Ahadjon Nishonov, Sultonali Asraqulov va nabirasi Axrorbek To'xtaboevlar o'zlari qurgan binolar va uning bezak ishlari orqali amaliy san'at rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Respublikamizda so'nggi o'n yil mobaynida yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik san'ati haqiqatdan ham rivojlanib, unut bo'lib borayotgan ba'zi uslublarni qayta tiklanayotgani, naqsh turlarining ro'yxati yil sayin kengayib borayotgani va islmiy naqshlarining bir necha turlari uyg'unlashib ketayotganining guvohi bo'lib turibmiz. Birgina "pargori" uslubini olib ko'rsak, u XIX-XX asrning boshlaridagi Toshkent yog'och o'ymakorligi maktabidaaynimqsa mashhur bo'lib, so'nggi paytlarda deyarli qo'llanilmayotgan edi. Hozirda esa u qayta tiklanib yana buyumlarni go'zal va jozibador qilib bezashda o'ymakor ustalarimiz tomonidan qo'llanib kelinmoqda. Mahalliy yog'och xom-ashyolaridan yong'oq, chinor, qayrag'och, nok, o'rik va boshqa materiallarga talab kuchayib bormoqda. Shuningdek, chetdan keltiriladigan Ruminiya buki va Malayziya palmasi kabi yog'och navlariga e'tibor ortib, ustalarimiz tomonidan qiziqish kuchayib bormoqda.

Bugungi kunda fan va texnika rivoji ustalarimiz xayoti va ijodiy faoliyatini ham chetlab o'tmadi, balki ijodiy izlanishlarini davom ettirish bilan birga INTERNET va kommunikatsiyaning boshqa zamonaviy aloqa vositalari orqalisohalariga talluqli yangiliklar bilan tanishmoqdalar. Shu orqali xorijiy ko'rgazmalarda, Xalqaro tashkilotlar tomonidan xomiylik qilinayotgan turli loyihalarda ishtirok etibo'zlarining kasbiy mahoratlarini yanada oshirib kelmoqdalar. Masalan, 1994 yili Pokistondagi 46 musulmon mamlakatlari qatnashgan amaliy san'at ustalari festivalida, 1995 yil Toshkent shahrida YuNESKO tashkilotining loyihasi asosida tashkil etilgan xalq hunarmandlarining yarmarkasida, 1996 yili Parij shahrida o'tkazilgan Amir Temur tavalludining 660 yilligi tantanalari doirasidagi ko'rgazmasida, 2000 yil Gannover shahridagi Butun jahon ko'rgazmalarida

muvoffaqiyatli ishtirok etib dunyo xalqlarida yurtimizga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otib kelmoqdalar.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

ARAJI (fors-tojikcha) – shiftning gir aylanasiga, bo'g'ot ostiga, eshik, deraza tepasigatashlangan yog'och, yog'och naqsh; karniz.

BO'G'OT - qamish solib yopilgan tomning devordan tashqari chiqib turgan qismi.

KARNIZ (ruscha < grekcha) – 1. Bino devorining ustki qismida yoki eshik, deraza ustida gorizontol holdagi chiqiq qismi.

2. Shift, bo'g'ot ostidagi taxta, yog'och yoki ganchdan qilingan uzun gorizontol bezak; piramon.

3. Deraza yoki eshik tepasida parda osish uchun yog'och yoki metaldan qilingan dor.

KOMPLEKS (ruscha < latincha) – bir butunni tashkil qilgan narsalar, hodisalar, belgi-xususiyatlar majmui.

MOTIV (fors-tojikcha) – syujetning tarkibiy elementi, asarning asosiy mazmuni, mavzu.

PESHTOJ (fors-tojikcha) – binolarning old tomonidagi serhasham yuqori qismi; ark.

PIRAMON (fors-tojikcha) – deraza yoki eshik tepasidagi tokcha.

REAL (ruscha - *realniy*) – 1. Haqiqatdan ham mavjud bo'lgan; haqiqiy, chin, voqeiy.

2. Amaliy; amalga oshadigan, bajarilishi mumkin bo'lgan.

REALIZM (ruscha < latincha) – adabiyot va san'atda aoqelikni, hayotni, uning tipik tomonlari asosida badiiy obrazlar bilan haqqoniy va tug'ri tasvirlab berishni talab etuvchi yo'nalish.

REALISTIK (ruscha – *realisticheskiy*) – 1. Realizm printsiplariga asoslangan, realizmga xos.

2. Real, amaliy.

SARROV (fors-tojikcha) – binoning ikki yon tomonidagi devorga, to'sinlar ostiga solinadigan yog'och.

TO'SIN – imoratning va umuman har qanday qurilma yoki inshootning tepasiga ko'ndalang solingan baquvvat balka.

TO'SINBOP – to'singa yaraydigan, to'sin bo'ladigan.

TO'SINLI – to'sini bo'lgan.

TO'SINLIK – to'sinbop.

XARI - to'sinlar ostidan ko'ndalangiga qo'yiladigan uzun, yo'g'on asosiy yog'och.

XARIBOP - xariga yaraydigan, xari bo'ladigan.

ShIP – xona, uyning tepa qismi, tomning xona ichidan ko'rinadigan sirti; shift.

ShIFT – ship.

JOSH – 1. Ba'zi narsalarning old qismi, turtib chiqqan joyi; kalvak.

2. Uzuk, isirg'a kabi buyumlarga o'yib solingan yoysimon gul-bezak.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Yurtimizda xalq hunarmandchiligini rivojlantirish to'g'risida qanday qonunlar qabul qilingan?

2. Respublikamizda qanday ishlab-chiqarish markazlari mavjud?

3. Mustaqillik yillarida qanday me'moriy inshootlar bunyod etildi?

4. Imom al-Moturudiy maqbarasi qaerda va u haqda nimalarni bilasiz?

5. “Xotira va Jadrlash maydoni” kompleksining qurilish tarixi va bezatilishi haqida nimalarni bilasiz?

6. Imom al-Buxoriy masjid-majmuasini ta'riflab bering.

7. Samarqand viloyati Bulung'ir tumanida qanday me'moriy inshoot bunyod etilgan?
8. Yog'och o'ymakor ustalardan kimlarni bilasiz?
9. Ortiq Fayzullaev xayoti va ijodiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
10. Bahridin Ahmedov qaysi yog'och o'ymakorligi maktabi vakillaridan va ularning ijodiy faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
11. "Sayqal" choyxonasi qayerda bunyod etilgan va ijodkor ustalari kimlar?
12. Yog'och o'ymakorligi ustalari qaysi xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan ko'rgazmalarda ishtirok etganlar?
13. Poytaxtimiz Toshkentda qanday zamonaviy inshootlar bunyod etildi?
14. Ayvonning xarilari, to'sinlari, peshtoqlari, kalvablari (qoshlari) va vassalarini bezashda yog'och o'ymakorligining go'zal namunalari qaysi foydalangan majmua qaysi?

BIRIKMALAR.

I. ODDIY BIRIKMALAR.

Yog'ochni o'ymaga tayyorlagunga qadar bo'lgan ishlarni asosiy qismini duradgorlik ishlari tashkil qiladi. o'ymakor-usta faqatgina o'yish bilan chegaralanib qolmay arralash, randalash, teshish, duradgorlik dastgohlarida ishlash kabi ko'nikma va malakalarga ham ega bo'lish zarur. Chunki, har bir o'ymakorlik ishini bajarish duradgorlik ishlarini amalga oshirishdan boshlanadi.

Duradgorlik yo'li bilan tayyorlanadigan buyumlarning va mebellarning qismlari bir-biriga turli usullar bilan biriktiriladi. Birikmalar hosil qilishda har xil biriktiruvchi materiallardan foydalaniladi va unda bir necha biriktirish usullari qo'llaniladi.

Buyumlarni biriktirishdan oldin u qanday materialdan tayyorlanilayotganligiga, qanday maqsadda ishlatilishiga va unga qanday sifat berilishiga qarab har bir detallari bir-biriga o'zaro oddiy va murakkab ko'rinishdagi birikmalar bilan biriktiriladi. Shunday qilib birikmalar ikkiga bo'linishini, ya'ni oddiy va murakka birikmalarga bo'linishini bilib oldik.

Dastlab oddiy birikmalar bilan tanishib chiqamiz (67-a,b va v rasmlar). Yog'och detallarni bir-biriga mix yoki shuruplar yordamida biriktiriladigan birikmalarga oddiy birikmalar deyiladi. o'z navbatida oddiy birikmalar uchga, ya'ni uchma-uch birikma, burchakli birikma va tirnoqli birikmalarga bo'linadi.

Uchma-uch birikmada ikki detalning chokini bir-biriga to'g'rilab, chok bo'lgan joyining ustiga yoki ostiga taxta, yog'och qo'yib mixlanadi (67-a rasm). Bu birikma qurilishsozlikda ishlatilib dala shiyponlari va shu kabi qurishlarda foydalaniladi.

Burchakli birikmada ikki detalning uchi 45° burchak ostida kesilib, bir-biriga to'g'rilab mix bilan qoqiladi (67-b rasm). Biriktirish paytida qay darajada bir-biriga jiplashish yoki jiplashmayotganligi tekshirib ko'rilidi va bir-biriga jiplashgunga qadar qayta-qayta teshada chopish yoki randalash yo'li bilan to'la jiplashtirilib so'ng mixlanadi. Burchakli birikma duradgorlik va binokorlkda keng qo'llanilib, u bino ayvonining xarilarini ulashda keng foydalaniladi.

Tirnoqli birikmada ikki detalning ulanadigan har ikki uchidan, ya'ni birining ostki qismidan, ikkinchisining usitki qismidan yarim yog'och kesib olinib, detallarning kesilgan uchlari bir-biriga ustma-ust tushirib mix qoqiladi. Bu birikmadan binokorlikda keng foydalaniladi (67-rasm).

Oddiy birikmalardan binokorlikda keng foydalanilib, bunday ulashlar orqali yog'ochlar bo'yiga uzaytiriladi. Bu birikmalarni qo'llagan holda yog'ochlarni eniga ham kengaytirish mumkin. Odatda eshik va darvoza yasashda ana shunday birikmalardan foydalangan holda ularning dilasi ulanadi. Biriktirish paytida yog'ochdagi yillik halqalari va tolalarining joylashishi va yo'nalishiga e'tibor berib biriktirish kerak.

II. MURAKKAB BIRIKMALAR.

Duradgorlik birikmalarining keng tarqalgan turlaridan yana biri murakkab birikmalardir. Bu birikmalar oddiy birikmalarga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ulardan foydalanishda alohida qunt va mahorat talab qilinadi. Duradgor-ustalar orasida murakkab birikmalar “Tirnoqli birikma” nomi bilan ham keng qo'llanilib kelinadi.

Murakkab birikmalar ikkita detaldan tashkil topgan bo'lib, biri “Tirnoq” (ba'zi joylarda “murg'oq”), ikkinchisi “quloqcha” (ba'zi joylarda “chalmak”) deb yuritiladi. Agar tirnoq va quloqchalar ikkitadan ortiq bo'lsa “Ko'p tirnoqli birikma” deyiladi. Ko'p tirnoqli birikmalar mebelsozlikda va duradgorlikda – darvoza, eshik, romlarni, shaxmat taxtachalarini, dastgohlarini yasashda qo'llaniladi. Bu detallarni biriktirishda elimlar orqali biriktiriladi.

Demak, murakkab birikmalar elimlar yordami bilan biriktirilgan birikmalarga aytiladi (68-a,b va v rasmlar). Murakkab birikmalar ham o'z navbatida bir nechta turlarga bo'linib, qaldirg'och quyruq birikma, o'rtaliq birikma va yashirin birikma deb ataladi.

qaldirg'och quyruq birikmalari ko'proq rom, eshik va darvoza chorcho'plarini biriktirishda, yog'ochdan uylar solishda ishlatiladi. Bu birikmalarda elimlar yordamida biriktirilgandan so'ng parma yordamida teshilib yog'och mix qoqib mustahkamlanadi. (68-a rasm).

Yashirin va o'rtaliq birikmalari esa mebelsozlikda keng qo'llanilib mebel detallarini biriktirishda foydalaniladi (68-b va v rasmlar). Ko'rinib turibdiki murakkab birikmalarda biriktirilgan buyumlar o'zining sifatililigi bilan, bejirimligi bilan hamda qulayligi bilan diqqatga sazovor.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

DILA – eshik yoki darvoza chorcho’pi orasidagi taxtacha.

DETAL – 1). Mashina, qurilma va shu kabilarning qismi, bo’lagi.

2). Biror ish, hodisa va shu kabilarning kichik uzviy qismi.

PARMA (fors - tojikcha) – 1). Aylanma harakat qilib tig’i bilan narsalarni teshadigan asbob.

2). Burg’i.

TEShA – tig’i dastasiga nisbatan ko’ndalang o’rnatilgan chopish, teshish quroli; duradgorlik asbobi.

XARI – to’sinlar ostidan ko’ndalangiga qo’yiladigan uzun, yo’g’on asosiy yog’och.

ChORCho’P (fors - tojikcha) – 1). To’rtta taxtachadan tuzilgan ramka; eshik va darvozalarning asosini tashkil qiluvchi to’rtta taxta.

2). Imoratning to’rt devori poydevoriga qo’yiladigan to’rt tagsinch.

ShIYPON (xitoycha) – 1). Atorofi har tomondan ochiq yozlik bino.

2). Dala ishchilarining dam olishi va ovqatlanishi uchun maxsus qurilgan yozlik bino.

ShURUP (ruscha < nemischa) – yog’och yoki metall detallarni mahkamlash uchun ishlatiladigan burama mix.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN

SAVOLLAR:

1. Birikmalar nechi turga bo’linadi?
2. Oddiy birikmalarning qanday turlari bor?
3. Murakkab birikmalar qanday turlarga bo’linadi?
4. qanday birikmalarga uchma-uch birikmalar deyiladi?

5. 45° burchak ostida biriktirilgan birikmaga qanday birikma deyiladi?
6. Burchakli birikma qaerlarda ishlatiladi?
7. qanday birikmaga tirnoqli birikma deyiladi?
8. qaldirg'och quyruq birikmalaridan qaerlarda foydalaniladi?
9. Oddiy birikmalar nima yordamida biriktiriladi?
10. qanday birikmalarga o'rtaliq va yashirin birikmalar deyiladi?
11. Murakkab birikmalar nima yordami bilan biriktiraladi?
12. Nima uchun murakkab birikma ko'p tirnoqli birikma deyiladi?

**BUYuM YaSASH, UNGA NAQSh KOMPOZITsIYaSI TUZISH,
O'YISH VA PARDOZLASH.**

Yog'och o'ymakorligida yog'ochni yasalayotgan buyumga mos keladigan sifatlisini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. o'tmishda o'ymakor-ustalar bunga alohida ahamiyat berib, yillar davomida tayyorgarlik qilib borganlar. Daraxtlarni kesib xodasining ikki tomoniga, ya'ni kesilgan joyiga qog'oz yopishtirib maxsus tayyorlangan suv havzalariga tashlab, bir necha yil saqlaganlar. So'ng uni olib quritishda quyosh nuri tushmaydigan, salqin joyda quritgan. Bu yog'och xom-ashyosini yorilishdan saqlash bilan bir qatorda namga, har xil chirishlarga bo'lgan chidamliligini oshirgan.

Yog'och xom-ashyosining tabiiy guli buyumga o'zgacha bir tarovat berib turadi. Ota-bobolarimiz buni e'tibordan chetda qoldirmaganlar. quritilgan yog'ochni bug'doy, arpa yoki sholi yanchilganda poyalarining maydalanishidan hosil bo'lgan somonidan foydalanib, taxtani unga ko'mib qo'yganlar. Somon o'zidan issiqlik chiqarib taxta yuzasini qizartirib tabiiy gul hosil qilgan.

Buyum yasashda u qaerlarda va qay maqsadda foydalanishiga ham e'tibor qaratish lozim. Biz quticha yasash ustida to'xtalib o'taylik. quticha yasash uchun eng

qulay yog'och xom-ashyosi qora qayin, yong'oq va zarang materiallari deb aytishimiz mumkin. uning o'lchamini esa taxminan eni 10 sm, bo'yi 20 sm, balandligi 6 sm qilib olamiz.

Kerakli o'lchamda taxtachalar arralab tayyorlangach, jilvir qog'ozda silliqlab olinadi. Ularni biriktirishda esa yashirin birikmani qo'llagan holda biriktirishimiz mumkin. Biriktirib olganimizdan so'ng burchaklarini, bir-biriga ulangan joylarini ko'zdan kechirib, yana bir marotaba jilvirlab chiqiladi.

Naqsh kompozitsiyasi tuzishdan oldin, yasalgan buyumning o'lchamini aniq o'lchab olish buyumni sifatli va yanada jozibador chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buyum o'lchamini olishda esa turli asboblardan foydalaniladi. Masalan, turli burchakli va to'g'ri chizg'ichlar, reyshina, transportir, reysfeder, pargor (tsirkul) va boshqa bir qator asboblardan kerak bo'ladi.

Buyum o'lchami aniq o'lchab olingandan so'ng, buyum uchun qanday naqsh kompozitsiyasi tuzilsa buyum yanada ko'rkamroq, go'zal va jozibador chiqishligini ko'z oldiga keltirgan holda fikr yuritish lozim. Bunda kompozitsiya tuzuvchining dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, eng muhimi uning nozik tabiatliligi va didining yuqori darajadiligiga bog'liq. Demak, bir to'xtamga kelgach xitoy qog'oziga naqsh kompozitsiyasi chiziladi.

Kompozitsiya tuzishdan oldin bir narsaga aniqlik kiritib olish maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni buyumning qanday materialdan tayyorlanganligini e'tiborga olish alohida ahamiyatga ega. Yumshoq materialdan olingan bo'lsa yirikroq, qattiq materialdan olingan bo'lsa maydaroq, murakkabroq naqsh kompozitsiyalaridan foydalanish mumkin.

o'zbek xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jamiki naqshlar borki, ular tabiatni va voqelikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning aynan o'zidan stillashtirilgan tarzda olingan. Odatda o'simliklar bir tomonga qarab o'sadi, bu tabiat qonunidir. Masalan, majnuntol misolida ko'radigan bo'lsak, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyulsa-da, lekin haqiqatdan esa, u ildizdan tana, tanadan novda,

novddan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishiga qarab o'sadi. Tabiatning bu qonuni naqshda ham o'z aksini topgan.

Naqqosh ustaning chizadigan naqsh kompozitsiyalari shunchaki qog'oz betini to'ldirish yoki o'yma yuzini o'yish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun - qoidalarga amal qilgan holda naqsh kompozitsiyasini chizish tushuniladi. Shu nuqtai - nazardan olib qaraganda o'ymakor ustaning ijodiy jarayonidagi eng qiyin va eng mas'uliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasi nusxasini chizishdan iboratdir. Agarda naqsh kompozitsiyasi tabiat qonunlariga zid ravishda tuziladigan bo'lsa, u holda hoh o'yishda bo'lsin yoki pardozi berishda bo'lsin har qancha yutuqqa erishilmasin ish ko'ngildagidek go'zal va jozibador chiqmaydi.

Daf'atan qaraganimizda o'yma naqsh juda chiroyli, go'zal va jozibador ko'rinsa-da, lekin bir ozdan so'ng naqsh kompozitsiyasi tuzishda qo'yilgan xato va kamchiliklar, nuqsonlar yaqqol sezilib qoladi. Mohiyatan olib qaraganimizda kompozitsiya nima o'zi?

KOMPOZITSIYA – ruscha-lotınca so'zdan olingan bo'lib, adabiy asar yoki san'at asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va o'zaro munosabati hamda tarkibiy qismlari ma'no jihatidan o'zaro bog'lanib birlik tashkil etgan badiiy yoki tasviriy san'at asari tushuniladi. Kompozitsiya ishlashda ritm, simmetriya, asimmetriya, kompanovka, taqsim, davriy takrorlanish, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyliligi va pardozlarning bir-biriga uyg'unligi kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

KOMPANOVKA, ya'ni joylashtirish – chizish kerak bo'lgan naqsh kompozitsiyasini yoki tasvirni qog'oz, o'yma uchun tayyorlangan taxatacha, buyum yoki tasvirni tushirish lozim bo'lgan yuzaga to'g'ri joylashtirish demakdir.

TAQSIM (ruscha *rapport*) – frantsuzcha so'zdan olingan bo'lib, naqshning ma'lum bir shaklda takrorlanuvchi qismi, bo'lagi hisoblanadi. Markaziy Osiyo naqshlari o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, naqshlarning deyarli hammasi takrorlanuvchi ma'lum bo'lakdan, qismdan iboratdir. o'ymakor-naqqoshlar avval taqsim yuzini qog'ozga belgilab, naqsh kompozitsiyasining bir qismini chizadi va

axtasini, ya'ni ulgusini tayyorlaydi. o'ymakor-naqqosh bezatiladigan yuzaga shu axta yordamida naqshni takrorlab tushirshi natijasida naqsh kompozitsiyasi yaxlit holga keladi. Naqsh kompozitsiyasining takrorlanuvchi qismi har xil bo'ladi. Masalan, uchburchak, to'rtburchak, kvadrat va hakkazo ko'rinishda bo'lishi mumkin. Doira yoki gumbazga o'xshash buyum yuzasiga mo'ljallangan bo'lsa naqsh taqsimi kompozitsiya yuzining to'rtidan, oltidan, sakkizdan, o'n ikkidan va hakkazo qismlarini tashkil etib, taqsim doirada yonma-yon takrorlanadi. Bunday taqsimni aylana taqsim deb ham atashadi. Taqsim to'g'ri chiziq bo'yicha takrorlansa uni to'g'ri taqsim deb yuritiladi. Taqsim to'g'ri va oynada aksi ko'ringandek shaklda almashlab takrorlansa unda chapu-rost taqsim deyiladi. Bunday ko'rinishdagi taqsimlar juda keng tarqalgan.

SIMMETRIYA – ruscha-grekcha so'zdan olingan bo'lib, biror narsaning ma'lum nuqta, chiziq yoki tekislikka nisbatan qarama-qarshi tomonda joylashgan qismlari o'rtasidagi munosiblik, o'xshashlik, moslik, uyg'unlik tushuniladi.

ASIMMETRIYA – ruscha-grekcha so'zdan olingan bo'lib, simmetriya yo'qligi yoki buzilganligi, simmetriyasizlik, ya'ni tuzilgan kompozitsiyada simmetrik qonun-qoidalar muvozanatining buzilganligi tushuniladi.

RITM – ruscha-grekcha so'zdan olingan bo'lib, biror hodisa, ish-harakat yoki naqsh kompozitsiyasi elementlarining ma'lum tartibda vaqt oralig'ida o'lchovli ravishda bir tekis takrorlanib turishidir. U naqshdagi harakatning uzluksiz va go'zal ko'rinishini ta'minlaydi.

STILIZATSIYA – tabiatdagi nabobot, hayvonot olami va shu kabilarning tasviri, rangi, shakli va tuzilishini badiiy usulda umumlashtirishdir.

Naqsh kompozitsiyasi chizishda quyidagilarga e'tibor qaratish va amal qilish kerak bo'ladi:

Birinchi, tanob yoki novda tagida gul, g'uncha yoki bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas, ya'ni: naqsh kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi negizi va shakl beuvchi chiziq hisoblanadi;

Ikkinchidan, tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;

Uchinchidan, taqsimda ortiqcha naqsh elementlarini chizishga yo'l qo'ymaslik;

To'rtinchidan, tanobdan hech qachon gul, novda, g'uncha va boshqalarni o'sib chiqqan holda tasvirlamaslik;

Beshinchidan, naqsh elementlari nisbatini saqlay bilish;

Oltinchidan, tuzilgan naqsh kompozitsiyasining yog'och o'ymakorligiga moslab tuzilishini ta'minlash;

Etinchidan, naqsh zichligiga e'tibor berish;

Sakkizinchidan, naqsh orasidagi zamin bo'shliqlar nisbatini saqlash va hokkazolarni e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

Buyumdan olingan o'lchamga moslab naqsh kompozitsiyalaridan bir nechtasi chizib mashq qilinadi. Chizilgan naqsh kompozitsiyalaridan eng munosibi tanlab olinib, chetiga zanjiralardan birini hoshiya sifatida qo'llash ham mumkin. Agar zanjira qilmasa chetidan albatta ramka qoldirish zarur. Ramkasiz naqshni bezalmagan uyga qiyos qilish mumkin.

Kompozitsiya tuzishda naqsh elementlari hoshiyaga tekizilmaydi. Bu naqsh kompozitsiyasi alohida ajralib o'ziga xoslikka ega bo'lishligi bilan bir qatorda joziba baxsh etadi. Bunga turinj, namoyon, kvadrat va boshqa tugallangan naqsh kompozitsiyasi tuzishda ayniqsa ahamiyat qaratish lozim.

Tuzilgan naqsh kompozitsiyasini kalka (xitoy qog'ozi yoki shaffof qog'oz) ga ko'chirib axta (ulgi) tayyorlanadi.

AXTA – tayyor rasmni shaffof qog'ozga chizib, chiziq yo'llarini igna sanchib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlanadigan andozadir. Ilk davrlarda ustalar o'yma yuzasiga to'g'ridan-to'g'ri chizib, o'yib ketganlar. Keyinchalik esa axta orqali tasvirni tushirish qulayligini sezishgan va undan foydalanib kelganlar.

Axta tayyorlash uchun buyumning o'yma bajariladigan yuzasiga mo'ljallab yupqa shaffof qog'oz olinadi. Naqsh kompozitsiyasiga moslab simmetriya o'qi

bo'ylab shaffof qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokkazolarga buklanadi. Buklangan shaffof qog'ozning bir qismiga naqsh kompozitsiyasi chiziladi. Naqsh chizilgan shaffof qog'ozni yumshoq yostiq ustiga qo'yib naqsh chiziqlari ustidan igna bilan teshib chiqiladi. Naqshning yirik-maydalagiga qarab igna tanlanadi va igna teshigi oralig'i naqshning mayda yoki yirikligiga qarab teshib chiqiladi. Teshilgan nusxa tayyor bo'lgandan so'ng, shaffof qog'oz yozib yuboriladi va bir butun kompozitsiyasini ko'rish mumkin. Tayyor bo'lgan axtani o'yma yuzasiga qo'yib ustidan xoka urib yoki bosib yurgizib chiqiladi. Natijada naqsh nusxasi buyum yuzasiga ko'chiriladi.

Ko'chirilgan naqsh nusxasini o'yishda yog'och o'ymakorligida turli asboblari ishlatilib, ularning har biri o'ziga xos ishlarni bajaradi. Yog'och o'ymakorligida asboblari ikki turga bo'linadi, ya'ni naqshni o'yish uchun "o'yma qalamlar" va ikkinchisi "naqsh qalamlar"dir.

Iskanalar shakli va bajaradigan ishiga qarab ularning bir qancha turlari mavjud. Masalan, to'g'ri iskana, kovza iskana, nova iskana, zamin iskana, baliq sirti iskana, morpech iskana, chekma iskana, kurakcha iskana, chekma qalam va boshqalar kiradi. Odatda yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan iskanalarni maxsus asbob tayyorlaydigan chilangar ustalar tayyorlaganlar yoki o'ymakor ustalarning o'zlari tayyorlaganlar. o'yish bosqichlari esa biz avvalgi mashg'ulotlarimizda ta'kidlab, amalda ko'rganimiz kabi ketma-ketlikda, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

o'ymakorlik ishlarini amalga oshirib bo'lgach, albatta, so'nggi pardoqlash ishlari bajariladi. Xalq amaliy bezak san'ati turlari zargarlik, ganchkorlik, misgarlik, kulolchilik kabi yog'och o'ymakorligida ham buyumga oxirgi ishlov berish, pardoqlash berish, jilolashdan iboratdir. Masalan, yog'och o'ymakorligida umuman 6 ta pardoqlash turi mavjud bo'lib, ular qirma, chizma, pax, choka, lo'la va tabaqa pardoqlash turlariga bo'linadi. Shularga 4 xili, ya'ni pax, choka, lo'la va tabaqa pardoqlash rel'efga pardoqlash berishda ishlatiladi. Ushbu pardoqlash turlari 2 ga bo'linib oddiy (pax va choka) va murakkab (lo'la va tabaqa) pardoqlash turlarini o'z ichiga oladi.

Odatda tuzilgan naqsh kompozitsichsining xarakteriga mos ravishda pardoz turi tanlanadi. Pardoz turini tanlashda yorug' va soya tushishini ham hisobga olishni unutmaslik kerak. Masalan:

Pax pardoz – yog'och o'ymakorligida o'yma naqsh relefni bir tomonga qiyalab kesiladigan oddiy pardoz turidir. Bu pardozni yoyma pardoz deb ham yuritiladi. Ustalar pax pardozi “zanjira” ni o'yish natijasida yuzaga kelgan deya taxmin qilishadi. Pax pardozi choka pardoz, lo'la pardoz va tabaqa pardozdan ancha oson bo'lib, pax pardozi berilgan o'ymadagi nur va soya ancha yumshab mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

Choka pardoz – naqsh bandining qiyaligini o'rtaga olib uzunasiga o'yilgan pardoz turi. Bu pardozni yorma pardoz deb ham ataydilar. qo'kon yog'och o'ymakorlik maktabi ustalari bu pardoz turidan keng foydalanadilar. Choka pardozi o'ymakor ustadan mahorat va iste'dod talab qiladi. Bu pardoz turi bilan pardozlangan naqsh o'zgacha bir xusn kasb etadi.

Lo'la pardoz – o'yma relefni yarim yumaloq shaklda ishlov berilgan murakkab pardoz turi. Bu pardoz turi nafaqat yog'och o'ymakorligida, balki ganch va tosh o'ymakorligida ham ishlatiladi. Lo'la pardoz turi barcha pardoz turlari ichida eng oxiri qo'llanila boshlangan. Lo'la pardozi bilan pardozlangan o'ymaning chuqurligi kamayadi va naqsh mayin ko'rinishga ega bo'ladi.

Tabaqa pardoz – XIX asrda Buxor ustalari tomonidan yaratilgan bo'lib, o'yilayotgan barg, gul ikki yoki uch qatlam qilib o'yiladigan pardoz turi. Tabaqa arabcha qatlam, daraja degan ma'noni bildiradi. Tabaqa pardozi bircha pardoz turlari ichida eng murakkabi bo'lib, o'ymakor ustadan professional mahorati talb etiladi.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

ZARGARLIK – oltin va kumushdan zeb-ziynat yasovchi badiiy hunarmandchilik turi.

KOMPONENT (ruscha < lotincha) – biror narsaning tarkibiy qismi.

MISGARLIK (fors - tojikcha) – mis buyumlar yasash va ularni tuzatish ishi bilan shug'ullanuvchi hunarmanchilik turi.

NAMOYOŇ (fors - tojikcha) – 1). Yaqqol ko'rinib turadigan, gavdalanadigan.

2). Atrofi hoshiya naqsh bilan o'ralib tugallangan naqsh turi.

NUSXA (arabcha) – 1). Bir turdagi narsalar haqida tasavvur beradigan namuna.

2). Bir xil qilib yasash, ko'chirish uchun tayyorlangan namuna; andoza.

RAMKA (ruscha) – 1). Portret, rasm va shu kabilar solinadigan to'g'ri burchakli moslama.

2). Ish-harakat, faoliyat, tasviriy san'at va shu kabilarning doirasi; chek; chegara.

RELEF (ruscha < frantsuzcha) – 1). Er sirtidagi turli notekisliklar – balandlik, pastlik, tog' va shu kabilar yig'indisi.

2). Bo'rtma naqsh.

TURUNJ – doira shaklidagi naqsh.

XITOIY qOG'OZI – shaffof qog'oz, kalka.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN

SAVOLLAR:

1. Buyum o'lchamini olishda qanday asboblardan foydalaniladi?
2. Buyumga naqsh kompozitsiyasi tuzishdan oldin nimalarga e'tibor qaratish lozim?
3. Naqsh kompozitsiyasi tuzishda qanday qonun-qoidalarga amal qilish kerak.
4. Kompozitsiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?
5. Simmetriya va asimmetriya nima?
6. Ritm deganda nimani tushunasiz?
7. Kompanovka nima?
8. Kompozitsiya tuzishda nimlarga amal qilish kerak?
9. Axta nima va u qanday tayyorlanadi?

10. o'ymani bajarishda qanday asboblardan foydalaniladi?
11. Iskanalarni nomlarini bilasizmi?
12. Yog'och o'ymakorligida nechta pardozi turi mavjud?
13. o'yma relief yuziga qanday pardozi beriladi?
14. Oddiy pardozi qaysi pardozi turlari kiradi?
15. Murakkab pardozi qaysi pardozi turlari kiradi?

BUYuM ZAMININI ChAKICHLASH TEXNOLOGIYASI

Dunyo xalqlari fan va madaniyati, adabiyot va san'atining rivojlanishida ajdodlarimiz ijodi muhim o'rin tutadi. O'zlari yozib qoldirgan asarlari, qurdirgan me'moriy obidalari, ma'naviy va moddiy boyliklari orqali dunyo tsivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shganlar. Ota-bobolarimiz qoldirgan boy merosni o'rganmay turib porloq kelajakni bunyod etib bo'lmaydi. Bu boyliklarni qadriga etish uchun esa ularni o'qib o'rganish, me'moriy obidalarga, muzeylarga borib ko'rish va ularning tarixini o'rganish, shu soha mutaxassislari bilan suhbatlar tashkil etish zaruriyati haqida fikr yuritgan edik. Jaerda bo'lmasin talabalar yog'och o'ymakorligiga oid san'at asarlarini o'rganar ekanlar, uni batafsil va atroflicha tahlil qilishni o'rganishlari kerak.

Chunki, o'ymaning sifatliigi, pardozni naqsh kompozitsiyasiga va o'ymaga mosligi bilan bir qatorda chakichlashga ham bog'liq ekanligini tushunmoqliklari lozim. Yog'och o'ymakorligida o'ymaning zamini chakichlanganda naqsh kompozitsiyasini mayin, jozibador, shu bilan birga o'yma releftini bo'rttirib, yaqqol namoyon qiladi, pardozni yanada go'zal ko'rinishiga, naqshlar hosil qiladigan yorug'-soya o'yini o'ymani emotsional tomonini belgilovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yog'och o'ymakorligida ganch o'ymakorligidan farqli o'laroq o'ziga xoslikka ega. Ya'ni, yog'och xom-ashyosining tabiiy fakturasini saqlagan holda o'yma naqshlardagi nur-soya ko'rinishining quyoshli yoki bulutli bo'lishiga qarab turlicha kayfiyat uyg'otadi. Naqsh kompozitsiyasida naqsh elementlari orasidagi bo'shliqni

ataylab chekma qalam yoki chekma iskanalar yordamida o'yiqlar hosil qilingan yog'och o'ymakorligi usulida chakichlangan mayda chuqurchalar umumlashib teks o'yilgan yuzalarga qaraganda o'ziga xos tarzda ko'rinib naqsh kompozitsiyasini nafis, ya'ni mayinlashtirib ko'rsatadi.

Naqsh zaminini chakichlashda ishlatiladigan chekma qalam va chekma iskanalarni bir-biridan farqlab olmoq zarur. Chunki, har ikkisinin ham o'z vazifasi va ishlatiladigan o'rni bor. Chekma iskana uy-ro'zg'or buyumlari, sovg'a buyumlarini badiiy bezashda ishlatilsa, chekma qalamlar ko'proq monumental o'ymakorlikda, ya'ni eshik, darvoza, ustun va hakkozolarni chakichlashda qo'llaniladi. Chekma iskanalar bir tishli, uch tishli, besh tishli va hakkozo bo'lib, naqsh zaminini xuddi patir yuzasiga o'xshatib, chakichlab chiqsa, chekma qalam bir qatorli, ikki qatorli, uch qatorli bo'lib, har bir qatorida ikki, uch, to'rt, besh va hakkozo bo'rtma tishli bo'ladi va chekma qalamlar chekma iskanalardan farqli o'laroq yirik va kvadrat shakliga o'xshash iz qoldiradi.

Shunga alohida e'tibor berish joizki, har ikkisidan foydalanishda yog'och xom-ashyosining holatiga ahamiyat berish kerak. Chekma qalam yoki iskana yog'och xom-ashyosiga nisbatan 45° qiyalikda ishlatish talab etiladi. Aks holda buyum sifatiga putur etkazadi. Ya'ni, chekma qalam yoki iskananing tishlari yog'och tolalariga nisbatan parallel holda ishlatilsa buyumga chuqurroq botishi va xatto buyum darz ketishi ham mumkin. Agarda 90° da foydalaniladigan bo'lsa, yog'och tolalarini titib yubordi. Bu esa buyum sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Buyumni chakichlashdan oldin chekma qalam va chekma iskananing ishchi holatiga ahamiyat berish lozim. Chekma qalam va chekma iskanalarning tishlari orasidagi o'lcham bir xilda bo'lishligiga, shuningdek, haddan ziyod mayda yoki yirik bo'lmasligiga ahamiyat berish kerak. Chunki, mayda tishli chekma qalam yoki chekma iskanalarda chakichlanganda o'yma zamin tushunarsiz, sifatsiz o'yma bajarilganday ko'rinishga kelib qoladi. Yirik tishli chekma qalam yoki chekma iskanalardan foydalanilganda esa yirik-yirik chuqurchalar hosil bo'ladi, kishi kayfiyatini buzadi, ne-ne mashaqatlar bilan ishlangan san'at asarini ko'rimsiz va yaroqsiz buyumga aylantiradi.

Chekma qalam yoki chekma iskanalardan foydalanishda o'yish jarayonidagi singari iskanani bo'shroq, bolg'ani esa mahkamroq ushlab kerak. Buyumni chakichlash davomida bolg'ani bir xil kuchlanishda urishga e'tibor qaratish lozim. Buyumni chakichlash ustadan katta mahorat va qunt talab qiladi. Usta fikrni jamlab bolg'aning tushishiga, qator oralarining bir xilligiga alohida sinchkovlik bilan axamiyat berib borish zarur. Yaratilayotgan san'at asari muhlislar ruhiyatini ko'taradi, kishiga zavq bag'ishlaydi, ko'ngliga shodlik olib kiradi. Shuning uchun har bir ishni bajarishda ushbu jihatlarga amal qilish muhim.

TAYaNCh TUShUNChALARI:

FAKTURA I (ruscha < latincha) - xaridorlariga sotish uchun jo'natilgan mollarning ro'yxati, miqdori va narxi ko'rsatilgan xujjat.

FAKTURA II (latincha-*Factura* - ishlov, tuzilish) - 1. Badiiy asar sirtining ishlanish yoki tuzilishi xususiyati.

2. Badiiy mohirlikning o'ziga xosligi, foydalanilgan material sirtining tabiiy xususiyatlari.

ChAKICH ZAMIN - yog'och o'ymakorligida o'yima naqsh zaminiga ishlov berilgansan'at asari.

ChEKMA - nuqta, chakich nuqtalari.

ChEKMA PARDOZ - o'ymakorlikda naqsh zaminini chakichlab (nuqtalab) pardozlash.

EMOTsIONAL (ruscha - *emotsionalniy*) – emotsiyalarga, his-tuyg'ularga to'lgan; emotsiyani, his-tuyg'ularni ifodalaydigan; jo'shqin.

EMOTsIYA (ruscha < frantsuzcha) – his-tuyg'u; his-hayajon.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UChUN

SAVOLLAR:

1. Chakich nima?
2. Yog'och o'ymakorligida chakich qanday axamiyat kasb etadi?
3. Chekma qalam nima?
4. Chekma iskana nima?
5. Chekma qalam va chekma iskananing bir-biridan farqi nimada?
6. Buyum zaminini chakichlashda nimalarga e'tibor berish zarur?

BUYuMNI LOKLASH TEXNOLOGIYASI

Yog'och o'ymakorligida qanchalik sifatli o'yma bajarilmasin, o'ymaga mos pardozi turi tanlanib a'lo darajada ishlov berilmasin, buyumni jozibadorligining 70-80 foizini so'nggi ishlov berilganlik darajasi tashkil qiladi. So'nggi ishlov berish deganda buyum o'yilib, zamini chakichlanib, o'ymaga mos pardozi berilgandan keyingi yumushlarni tushinmok kerak. Ya'ni, o'yma bajarilib bo'lingandan keyingi loklash boskichi nazarda tutiladi.

O'yma yuzasiga lok berishdan oldin o'yma yuzasini yaxshilab qum qog'ozda, ya'ni jilvir qog'ozda jilvirlab chiqish zarur. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, jilvir qog'ozning bir necha turlari mavjud. O'yma yuzasini mayin jilvir qog'oz bilan jilvirlangandan so'ng chang va gardlardan tozalanadi.

Shu o'rinda quyidagilarni ta'kidlab o'tish joizki, ya'ni turli yog'och o'ymakorlik maktablarida naqsh kompozitsiyasining tuzilishi, o'yilishi va pardozi usullari kabi loklash usullarida ham o'ziga xoslikka ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, Jo'qon yog'och o'ymakorlik maktabi vakillari ba'zi hollarda monumental asarlarni yaratishda dastlab o'yma zamini va sirtiga bir tekisda alif moyi surtib chiqadilar, so'ngra loklashlariga guvoh bo'lsak, Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi vakillari esa o'ymaning hamma zamini va releflarini bir maromda loklab chiqadilar.

Xivalik ustalar yog'och rangining tabiiyligini saqlagan holda o'yma yuzasi va zaminiga avval paxta, zig'ir, ya'ni oq yog' berib so'ngra loklaydilar. Toshkentlik ustalar ijodiga nazar soladigan bo'lsak, umuman boshqacha manzaraning guvohi bo'lishimiz mumkin, ya'ni o'yma yuzasiga, xattoki o'yma zaminini yog'och ranglari bilan och va to'q ko'rinishda bo'yab, so'ng o'yma relief yuzasini tanpon yordamida lok surtiladi. Bir necha marotaba lok surtib chiqilgandan keyin mayin baxmal material bilan lok qurigach artib chiqiladi. Bu ham buyumga o'ziga xos go'zallik va joziba baxsh etadi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'ymaning sirti yoki zaminiga rang berilganda o'ymakorlikda ishlatiladigan bo'yoqlar suvli bo'lganligi sababli sifatsiz bajarilgan o'ymakorlik namunalarida yog'och namlanib toza olib tashlanmagan yog'och tolalari xunuk ko'rinishga kelib qoladi. Shuning uchun bo'yoq surtib chiqilgandan so'ng har gal bo'yoq qurigach mayin jilvir qog'ozda jilvirlanadi, zaminida sifatsiz o'yma tufayli hosil bo'lgan tolalar zamin iskana yordamida ehtiyotkorlik bilan olib tashlanadi.

Bo'yoq o'yma zaminiga mayin qilqalam bilan surtilsa, relief yuzasiga esa mayin va yumshok latta tanpon yordamida amalga oshiriladi. Yana shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik joizki, qanday bo'yoq tusidan foydalanishimiz bajarayotgan buyumimizning ishlatilish joyini, yog'och xom-ashyosining tabiiy ko'rinishini va hakkazolarni inobatga olgan holda rang tusini tanlash kerak. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan bo'yoqlar bir necha turga bo'linadi. Masalan, yong'oq tusli, dub yoki buk tusli va qo'ng'ir tusli bo'yoqlarni uchratishimiz mumkin.

Amaliy san'atning bir qator tur va janrlaridagidek yog'och o'ymakorligida ham barcha yumushlar bajarilib, oxirgi ishlov berish, ya'ni loklash muammosi paydo bo'ladi. Yog'och o'ymakorligi ustasi lok turlarini bir-biridan farqlay olishi va amalda qo'llash texnologiyasini puxta egallagan bo'lishi zarur. Aks holda ne-ne mashaqqatlar bilan amalga oshirilgan mehnatni birgina arzimas xato tufayli yo'qqa chiqarishimiz mumkin. Chunki, o'ymakor usta tomonidan yaratilgan san'at asarinig jozibadorligiga, go'zalligiga va ko'rkamligiga loklash orqali erishiladi. Xo'sh, lok

nima o'zi? Lok smolani spirtida eritib hosil qilinadigan suyuqlik bo'lib, buyumlarni yaltiratish va pardozlash uchun ishlatiladigan massa.

Lok sifatiga qarab 4 s, 6 s va 7 s markali bo'lib, yog'li, spirtli va smolali loklarga bo'linadi. 4 s markali loklar tusi quyuq ko'k choy yoki paxta yog'iga o'xshash bo'lib, ishlatilganda bo'yoqlarning, yog'och materiallarining tabiiy rangini saqlab qoladi va rangini o'zgartirmaydi. 6 s va 7 s markali loklarning tusi qoramtir, rangi qora choyga o'xshash, hidi achchik bo'lib, ishlatilganda bo'yoqning va yog'och materiallarining tabiiy rangini saqlab qolmaydi, ularning rangini o'zgartirib sal qoramtir tus beradi.

Ayrim loklarda yuqorida aytilgan maxsus markalar qo'yilmaydi. Masalan, PF-283 lokini olaylik. Ushbu lok Toshkent lok-moy ishlab chikarish korxonasida tayyorlangan bo'lib, rangsiz, xuddi 4 s markali lok tusiga o'xshash rangi toza, tiniq. Lok qanday markada bo'lishidan qat'iy nazar undan foydalanishdan avval uni kichkina narsaga surtib amalda sinab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda ishlatmoqchi bo'lgan lokimiz haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lamiz.

Chunki, lokni amalda qo'llamay turib u haqda to'liq tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin emas. Undan foydalanish jarayonida rang tusi, qanday havo haroratida qurishi va muddati, yaltiroqligi, amalda foydalanilgandagi jilo berishi kabilarni bilib olamaz va shu yo'sinda amalda qo'llaymiz. Odatda lok 18-22 darajali haroratda 48 soatda, ya'ni ikki sutkada yaxshi quriydi.

Buyum loklanganda maxsus salqin, changsiz va quruq joyda saqlanishi lozim. Chang va gardlar lok sifatiga putur etkazadi, issiq va nam joydalokning qurish muddati uzayadi. 2 va 3 marotaba lok surtilganda yaxshi qurimagan lok yig'ilib-yig'ilib burishib qoladi. Bunday kamchiliklar ishning saviyasiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shuning uchun har bir ishni amalga oshirishda puxta o'ylab ehtiyotkorlik va sinchkovlik bilan harakat qilish zarur.

TAYaNCh TUShUNChALAR:

ALIFMOY (ruscha - *olifa*) – alif moy (to'g'ri yozilishi shu shaklda) zig'ir yog'dan qizdirib tayyorlangan va bo'yoqchilikda ishlatiladigan moy.

BO'YOJ - 1. Bo'yash, rang berish uchun ishlatiladigan modda; kraska.

2. Nutqni, tasvirni bezatuvchi ifoda vositalari.

ZIG'IR – 1. Poyasidan tola, urug'idan yog' olinadigan bir oylik o'simlik.

2. Shu o'simlikning urug'i, hosila.

LOYIHA (atabcha) – 1. Bino, inshoot, mashina va shu kabilarni qurish yoki tiklash uchun ishlangan chizma, reja; proekt.

2. Jaror, farmon, qonun va shu kabi xujjatlarning dastlabki xomaki teksti; proekt.

MARKA (ruscha < nemischa) – 1. Po'chta haqi va boshqa xil davlat yig'implarini to'laganligini ko'rsatuvchi, narxi yozilgan, odatda biror tasvir tushirilgan to'rtburchak qog'ozcha.

2. To'lanadigan haqning belgisi, nishoni.

3. Mol, tovarga qo'yilgan tamg'a.

4. Mol, tovarning navi, xili.

MASSA (ruscha < latincha) – 1. Mexanikaning eng muhim fizikaviy xossaligidan biri, materiyaga xos vazminlikni, inertsianixarakterlaydigan miqdor.

2. Yaxlit yoki bo'tqasimon jism yoki modda.

LOK (fors - tojikcha) – smolani spirtida eritib hosil qilinadigan, buyumlarni yaltiratish, pardoqlash uchun ishlatiladigan suyuqlik.

RELEF (ruscha < frantsuzcha) – 1. Er sirtidagi turli noteksliklar-balandlik, pastlik, tog' va shu kabilar yig'indisi.

2. Bo'rtma naqsh.

SMOLA (ruscha) – ignabargli va boshqa ba'zi bir o'simliklardan ajralib chiqadigan, havoda qotib qoladigan elimkash modda; shira.

SMOLALI – smola beradigan; sersmola.

TEXNIKA (ruscha < grekcha) – 1. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan mehnat qurollari-mexanizm, apparat, moslama va shu kabilar majmui, shuningdek ularni o'rganish, qo'llash, takomillashtirish sohasidagi inson faoliyati.

2. Biror ish yoki harakatni bajarish yo'llari, usullari majmui; shu usullarni egallaganlik, mahorat darajasi, san'at, mahorat.

TEXNOLOGIYA (ruscha < grekcha) – 1. Ishlab chiqarish protsesslari, usul va vositalari haqidagi bilimlar majmui.

2. Ishlab chiqarishning biror sohasida materiallarga ishlov berish yoki qayta ishlashda qo'llaniladigan usullar, operatsiyalar majmui.

TUS – 1. Rang-bo'yoqning bir-biridan ko'rinishi bilan farq qiladigan har bir ayrim turi.

2. Mollar, hayvonlar terisining rangi, rang nozikligi.

3. Tashqi ko'rinish, qiyofa, taxlit.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN

SAVOLLAR:

1. Buyumga so'nggi ishlov berish deganda nimani tushunasiz?

2. Buyumni loklashda nimalarga ahamiyat berish zarur?

3. Jo'qon yog'och o'ymakorligi maktabi vakillarining buyumni loklash usullari haqida gapirib bering.

4. Xivalik o'ymakor ustalarning loklash usullarini tushuntirib bering.

5. Toshkent va Samarqand yog'och o'ymakorligi maktabi vakillarining buyumni loklash usullarida qanday farq bor?

6. Jaysi maktab vakillari avval rang berib, keyin loklaydilar?

7. Lok o'yma buyumga nimalar yordamida surtilishi mumkin?

8. Lok nima?

9. Lokning qanday markalari mavjud?

10. Lokning qanday turlari bor?

11. 4 s markali lok qanday xususiyatlarga ega?

12. 6 s va 7 s markali loklar haqida ma'lumot bering.

13. Loklangan buyumni qanday joyda saqlash lozim?

14. Lok necha daraja havo haroratida va qancha muddatda quriydi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi materiallari. 1997 yil 29 avgust. I chaqiriq 9 sessiyasi materiallari. – T., “Xalq so'zi” gazetasi. 1997 yil, 30 avgust, 181- son.
2. “Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – T., “Toshkent oqshomi” gaz. 1997 yil, 2 aprel, 38 son.
3. Abduqodirov A. “Obidalar jilvasi”. –T., “O'zbekiston”, 1972, 64 b.
4. Avedova N.A. “Toshkent o'ymakorligi”. –T., O'z. Dav. Badiiy adabiyot nashr. 1961, 88 b.
5. Azimov I. “Farg'ona vodiysining arxitektura yodgorliklari”. – T., “O'zbekiston”, 1986, 71 b.
6. Azimov I. “O'zbekiston naqshu-nigoralari” –T., Adabiyot va san'at nashri. 1987 yil, 144 b.
7. Apuxtin O.K. “Badiiy naqsh maktabi”, -T., “O'qituvchi”, 1969.
8. Barta Ch. “Mohir qo'llar uchun 200 ish”, -T., “O'qituvchi”, 1967, 278 b.
9. Bulatov S.S. “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati”, -T., “Mehnat”, 1991, 384 b.
10. Bulatov S.S., Ashurova M.O. “Amaliy san'at qisqacha lug'ati”, - T., Qomuslar bosh Taxr. 1992, 48b.
11. Zohidov P.Sh. “Me'mor san'ati”, -T., Adabiyot va san'at nashr. 1978, 102 b.
12. Zohidov P.Sh. “Zeb ichra ziynat”, -T., Adabiyot va san'at nashr. 1985, 118 b.
13. Zohidov P.Sh. “O'zbekiston me'morchiligining ustozlari”, -T., “O'zbekiston”, 1967, 72 b.
14. Zohidov P.Sh. “Me'mor olami” -T., Qomuslar bosh tahririyati, 1996, 240 b.
15. Karimov X. “Usto Qodir”, -T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981, 120 b.
16. Kreyndlin L.N. “Yog'ochsizlik ishlari”, -T., “O'qituvchi”, 1978, 300 b.

17. Malnkovaya L. Yu. "Qashqadaryo vohasining arxitektura yodgorliklari, -T., "O'zbekiston", 1979, 100 b.
18. Mirzaaxmedova M. X. "Materiallarga badiiy ishlov berish", -T., "O'qituvchi", 1986.
19. Mirzaaxmedov M. X. "Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash metodikasi", -T., "O'qituvchi", 1976, 24 b.
20. Mirzaaxmedov M. X. Ergashev S. "Yog'och o'ymakorligi", -T., "O'qituvchi", 1995, 64 b.
21. Muranov B. I. "Umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi mashg'ulotlarini taxminiy rejalashtirish", -T., UBMTMU, 1996, 68 b.
22. "Mo'jiza yaratish san'ati" (Bosh muallif A. S. O'rolov), -T., "Mehnat", 1996.
23. Mo'minov I. M. "Temuriylar davri O'rta Osiyo san'atining paydo bo'lishi va taraqqiy etish tarixiy ildizlari haqida" (TAT, 3 tomlik), -T., "Fan", 1969, 48 b.
24. Gadoev P. "Oqsaroy" -T., "Xalq so'zi" gaz. 1995 yil, 24 oktyabr.
25. Usmonov O. "Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi", -T., "Fan", 1977, 149 b.
26. O'zbek tilining izohli lug'ati (3. M. Ma'rufov tahriri ostida): Ikki tomlik, I - II tom -M.: "Rus tili" nashriyoti, 1981.
27. Qosimov Q. Q. "Naqqoshlik", -T., "O'qituvchi", 1990, 160 b.
28. Hasanov R. "Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi kontsepsiyasi", -T., 1995, 12 b.
29. Haqqulov A. "Ta'mir san'ati", -T., "Mehnat", 1991, 200 b.

MUNDARIJA

KIRISH

Yog'och o'ymakorligi tarixi, maktablari, ustalari va ularning ijodiy faoliyati.

Me'morchilikda yog'och o'ymakorligining tutgan o'rni.

Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarini jihozlash va texnika havfsizligi

- I. Yog'och o'ymakorligi ustaxonalarini rejalashtirish va jihozlash.
- II. O'ymakorlik asbob – uskunalari va ularni ishchi holatga tayyorlash.
- III. Dastgohlar va ularni ishchi holatga tayyorlash.

Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar, asbob-uskunalar va uning turlari

- I. Yog'och materiallar va uning turlari.
- II. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan asbob-uskunalar va uning turlari.
- III. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan yordamchi asboblar.

Zanjira naqsh kompozitsiyasi tuzish va o'yish.

Me'moriy obidalar, zamonaviy inshootlar, muzeylar va xalq ustalari
ijodxonalariga sayohat.

Yog'och o'ymakorligiga oid naqsh elementlari va ularni chizish.

- I. O'ymakorlikka oid naqsh elementlari.
- II. O'ymakorlikka oid naqsh elementlarini chizish.

Yog'och o'ymakorligiga oid oddiy naqsh namunalarini chizish va o'yish.

- I. Oddiy islami naqsh namunalarini chizish.
- II. Oddiy pargora naqsh namunalarini chizish.
- III. Oddiy islami naqsh namunalarini o'yish.
- IV. Oddiy pargora naqsh namunalarini o'yish.

Zamonaviy inshootlar va ulardagi yog'och o'ymakorligi.
Birikmalar.

- I. Oddiy birikmalar.

II. Murakkab birikmalar.

Buyum yasash, unga naqsh kompozitsiyasi tuzish, o'yish va pardoqlash.

Buyum zaminini chakichlash texnologiyasi.

Buyumni loklash texnologiyasi.

Ilovalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Darslik

AHMEDOV MUHAMMAD-UMAR

BAHRIDDINOVICH

YoG'OCh O'YMAKORLIGI